

ЎЗБЕКИСТОН РЕСПУБЛИКАСИ АХБОРОТ
ТЕХНОЛОГИЯЛАРИ ВА КОММУНИКАЦИЯЛАРИНИ
РИВОЖЛАНТИРИШ ВАЗИРЛИГИ

МУҲАММАД АЛ-ХОРАЗМИЙ НОМИДАГИ ТОШКЕНТ
АХБОРОТ ТЕХНОЛОГИЯЛАРИ УНИВЕРСИТЕТИ
САМАРҚАНД ФИЛИАЛИ



**“АХБОРОТ КОММУНИКАЦИЯ
ТЕХНОЛОГИЯЛАРИ ВА ДАСТУРИЙ
ТАЪМИНОТ ЯРАТИШ”**

**МАВЗУСИДА ПРОФЕССОР-ЎҚИТУВЧИЛАР ВА
ТАЛАБАЛАРНИНГ XV - ИЛМИЙ-АМАЛИЙ
КОНФЕРЕНЦИЯСИ**

**2020 ЙИЛ, 5 МАРТ
I-QISM**



САМАРҚАНД 2020

КОНФЕРЕНЦИЯ ТАШКИЛИЙ ҚЎМИТАСИНИНГ

ТАРКИБИ:

А. А. Халджигитов	раис, ТАТУ Самарқанд филиали директори
О. Р. Ялғашев	ТАТУ Самарқанд филиали илмий ишлар ва инновациялар бўйича директор ўринбосари
З. А. Қаршиев	ТАТУ Самарқанд филиали ўқув ва тарбиявий ишлар бўйича директор ўринбосари
Х. А. Примова	ТАТУ Самарқанд филиали Илмий тадқиқотлар, инновациялар ва илмий-педагогик кадрлар тайёрлаш бўлими бошлиғи
У. Х. Нарзуллаев	ТАТУ Самарқанд филиали Телекоммуникация технологиялари ва касб таълими факультети декани
О. А. Мамарауфов	ТАТУ Самарқанд филиали Компьютер инжиниринги факультети декани
С. Х. Уринов	ТАТУ Самарқанд филиали Иқтидорли талабаларнинг илмий тадқиқот ишларини ташкил этиш бўлими бошлиғи

ДАСТУРИЙ ҚЎМИТА ТАРКИБИ:

Р. Ш. Индаминов	ТАТУ Самарқанд филиали профессори
З. М. Махмудов	Ахборот технологиялари кафедраси мудири
К. А. Бекмуратов	Компьютер тизимлари кафедраси мудири
А. Б. Қаршиев	Дастурий инжиниринг кафедраси мудири
Н. Р. Зайналов	Ахборот хавфсизлиги кафедраси мудири
Х. А. Жуманов	Телекоммуникация инжиниринги кафедраси мудири
Ш. А. Асраров	Табиий фанлар кафедраси мудири
Д. К. Якубжанова	Ахборот таълим технологиялари кафедраси мудири
А. Абдукаримов	Компьютер тизимлари кафедраси доценти
Д. Ф. Тоирова	Тиллар ва жисмоний тарбия кафедраси мудири
Ф. Н. Усмонов	Ижтимоий гуманитар фанлар кафедраси мудири

I-Шўъба

**Дастурий таъминот ва мобил
иловалари технологиялари**

DASTURLASH TILLARINI O'RGANISHDA MOBIL ILOVALARDAN FOYDALANISH IMKONIYATLARI

Djuraeva R.B.

O'zbekiston xalqaro islom akademiyasi katta o'qituvchisi

Bugungi kunda, yosh avlodni barkamol shaxs etib tarbiyalashga bo'lgan ijtimoiy ehtiyojni qondirish asosiy vazifa hisoblanadi. Kadrlar tayyorlash milliy modeli tarkibiy qismlardan biri bo'lgan shaxsni har tomonlama kamolga etkazish, yuksak ma'naviy va ahloqiy sifatlarni tarbiyalash, unda kasbiy ko'nikma va malakalarni shakllantirishda zamonaviy ilg'or tendensiyalardan maqsadli foydalanish dolzarb masala hisoblanadi.

Barkamol avlodni tarbiyalashda uning intellektual qobiliyatini rivojlantirmay, uni ma'naviy-ahloqiy tarbiyalamay, shuningdek, imkoniyatlarining yangi qirralarini to'la ro'yobga chiqarmay turib ijtimoiy taraqqiyotga erishib bo'lmaydi. Turli o'yinlar, mobil vositalar hamda kompyuterlar uchun mo'ljallangan dasturiy ishlanmalar barkamol avlod ongida yangi bilim ko'nikmalarini shakllantirishga qaratilgan. Ma'lumki inson ongi va tafakkurida kechayotgan tasavvurlarning vizuallashuvi kompyuter texnikasi va uning dasturiy imkoniyatlarisiz bo'lmaydi[2].

Kadrlar tayyorlash borasidagi davlat siyosati uzluksiz ta'lim tizimi, intellektual va ma'naviy-ahloqiy tarbiyasi bilan bog'liq har tomonlama rivojlangan shaxsning kamol topishini nazarda tutadi. Bunda barkamol avlodni ilm olish, ijodiy qobiliyatini namoyon etish, intellektual rivojlanish, kasbiy, mehnat huquqlari ro'yobga chiqadi. Har bir shaxsning har tomonlama shakllanishi uchun zarur pedagogik shart-sharoitlarni yaratish, milliy-madaniy, tarixiy an'analar, urf-odatlar, qadriyatlarga asoslangan ilg'or tendensiyalar asosida tarbiyalash maqsadga muvofiqdir.

Zamonaviy pedagogik texnologiyalarning ta'lim samaradorligini oshirishdagi o'rnini e'tiborga olgan holda O'zbekiston xalqaro islom akademiyasida bir qancha ishlar amalga oshirilmoqda. Akademiyaning "Zamonaviy axborot kommunikatsiya texnologiyalari" kafedrasida etarli darajada kadrlar salohiyati, moddiy-texnikaviy baza hamda axborot va pedagogik texnologiyalarini keng joriy qilish va telekommunikatsiya tarmoqlaridan unumli foydalanish imkoniyati mavjud.

Yuqoridagi mulohazalarga xulosa o'laroq "Zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari" kafedراسi talabalari tomonidan android tizimida "C++ dasturlash tilini o'rgatish" o'quv qo'llanmasi yaratildi. U endigina dasturlash tilini o'rganuvchilar uchun ko'makchi bo'ladi. Dasturga qo'yilgan eng asosiy talablar quyidagilardan iborat:

- dasturni android tizimi uchun yaratish. Hozirgi kunda android tizimidagi dasturlar yaratish tobora rivojlanib bormoqda. Doimiy ravishda kitoblar, hattoki mini kompyuterlardan ham har doim foydalanish imkoniyati cheklangan. Foydalanuvchilarga qulay bo'lishi uchun bu dasturni mobil aloqa vositalariga mo'ljallab yaratilgan;

- ma'lumotlar bazalari bilan ta'minlash. Har qanday dasturchi dastur yaratishdan oldin uni ma'lumotlari ishonchli va aniq bo'lishi uchun bir qancha izlanishlar olib boradi. Dasturdagi ma'lumotlar bazasini kerakli ma'lumotlar bilan boyitilishi, foydalanuvchining xatoliklarga yo'l qo'ymasligini oldini oladi.

- har bir mavzuga oid misollar joriy qilish. Foydalanuvchi har bir ma'ruzadan keyin shu mavzuga oid bir qancha misollar ishlab, olgan bilimlarini amaliyotda qo'llay olishi uchun misollar bo'limi ham joriy qilingan.

- bilimlarni mukammallashtirish uchun test tizimi yaratish. Odatda talabalarning ko'pchiligi olgan bilimlarini tekshirish maqsadida test tizimidan foydalanishga qiziqadilar. Shuni inobatga olgan holda test tizimi ham yaratilgan.


- elektron qo'llanmalar bilan ta'minlash. Foydalanuvchilarga dastlabki C++ ga oid tushunchalarni berib, bilimlarni oshirishga yordam berish maqsadida elektron qo'llanmalar bilan ta'minlangan.

Dastur olti menyudan iborat bo'lib, quyidagi 1-rasmda dasturning bosh oynasining ko'rinishi aks etgan:



1-rasm. Dastur bosh oynasining ko'rinishi.

Har bir menyu o'ziga xos ma'lumotlar bilan boyitilgan. Masalan "Test" bo'limidan foydalanuvchi o'zining darajasiga qarab xohlagan test turini tanlashi mumkin. Testni ishlash jarayonida 4 ta variant berilgan va belgilangan javoblar to'g'ri yoki xato ekanligi ko'rsatiladi (2-rasm).



2-rasm. Testlar bo'limining ko'rinishi

Misollar bo'limida esa har bir mavzuga oid turli xil misollar ishlash namunalari keltirilgan. Bu jarayon quyidagi 3-rasmda ko'rsatilgan.

```

#include<iostream.h>
main()
{
int n;
cout<<"Butun son kiriting\n";
cin>>n;
if ( n%2 == 0 )
cout<<"Juft\n";
else
cout<<"Toq\n";
return 0;
}

```

3-rasm. Misollar bo‘limi bilan ishlash.

Bu yaratilgan dastur android sistemasida ishlaydigan barcha mobil telefonda ishlaydi va androidning barcha versiyalari uchun mos keladi. Undan tashqari dastur unchalik ko‘p xotira talab qilmaydi. Bu dasturni ishlatish davomida foydalanuvchilar bilimlarini oshishiga yordam beradi.

Dastur veb texnologiyalar asosida tuzilgan bo‘lib dizayn jihatdan foydalanuvchilarni jalb qilishi, interfeysining qulayligi, bugungi kunda dolzarb bo‘lgan JavaScript, JQuery kutubxonasi, HTML, CSS, PHP, PhotoShop dasturiy vositalardan va AJAX texnologiyalaridan foydalanilgan.

Xulosa qilib aytganda, ushbu yaratilgan elektron o‘quv axborot resurs dasturidan foydalanish natijasida: talabalar mustaqil bilim olishga; fanlarga oid o‘z bilim darajalarini rivojlantirishga; o‘quv adabiyotlariga bo‘lgan talab muammosi birmuncha echilishiga; vaqtning tejalishiga va axborot almashishini tezlashishiga erishiladi.

Adabiyotlar

1. Lutfullaev M.H. Oliy ta’lim o‘quv jarayonini takomillashtirishda axborot texnologiyalarini integratsiyalash nazariyasi va amaliyoti (Informatika va tabiiy fanlar misolida): Ped. fan. doktori... dis.aftoref. – Toshkent: TDPU, 2006. – 27 b.;
2. Ro‘zimurodov O. N. Web dasturlash fanidan ma’ruzalar matni. TUIT, Axborot texnologiyalarining dasturiy ta’minoti kafedrası. Toshkent – 2011;
3. Djuraeva R.B. Struktura i soderjanie «Polojeniya ob elektronnom uchebno-metodicheskom komplekse dissiplini» // Materiali II Mejdunarodnoy nauchno-prakticheskoy konferensii, Kokshetauskiy gosudarstvenniy universitet im. SH. Ualixanova na temu «Formirovanie professionalnoy kompetentnosti budushix spetsialistov v usloviyax kreditnoy texnologii obucheniya: opit, problemi i perespektivi», 22-24 aprelya 2010 goda. Kokshetau: KGU, 2010. – S. 285-289.

МОБИЛ ИЛОВАНИНГ БАРҚАРОР ЭКОЛОГИК ТИЗИМИНИ ЯРАТИШДАГИ АҲАМИЯТИ

М.З. Махкамova¹, С.Я. Рахимова²

¹ Муҳаммад ал-Хоразмий номидаги Тошкент ахборот технологиялари,
munojatm1969@gmail.com

² Муҳаммад ал-Хоразмий номидаги Тошкент ахборот технологиялари
талабаси, rakhimovasayyora1@gmail.com

Ўзбекистонда маиший чиқиндилар билан боғлиқ ишларни амалга ошириш масаласи бутун дунёдаги каби долзарб ҳисобланади. Чиқиндилар экологик ҳавфсизликка ва фуқаролар соғлиғига ҳавф солувчи муаммога айланмоқда. Улар атроф муҳитга, хусусан ер ресурслари, ер усти ва ости сувлари, ўрмонлар ва бошқа ўсимликлар, шунингдек, ҳайвонларнинг яшаш муҳити, ҳаво ва атроф муҳитнинг бошқа компонентлари ҳамда объектларига салбий таъсир кўрсатади.



Маиший чиқиндиларнинг ҳосил бўлиши кўп омилларга боғлиқ бўлиб, улардан кўпроқ аҳамиятга эгалари аҳоли даромади, истеъмолчиларнинг ҳатти-ҳаракати, бозорда янги қадоқланган маҳсулотларнинг пайдо бўлиши ва демографик кўрсаткичлар ҳисобланади.

Савдо тармоқлари (супермаркетлар, гипермаркетлар ва бошқалар) сонининг аҳоли жон бошига ялпи ички маҳсулотнинг ўсиши билан параллель равишда ортиши қадоқланган маҳсулотларни сотиб олиш имконини, шу билан бирга ҳосил бўладиган маиший чиқиндиларнинг ортишига олиб келади. Урбанизация ҳам чиқиндилар ҳосил бўлишига таъсир кўрсатиб, шаҳар ҳудудлари аҳолиси қишлоқ аҳолисига нисбатан кўпроқ чиқинди чиқаради.

Маиший чиқиндилар ҳосил бўлишининг бу каби ўсиш суръати аҳолининг яшаш шароити ва республика иқтисодиётининг ўсишини кўрсатади. Бироқ, мазкур соҳа муаммосининг ечимини ҳал этиш мумкин бўлмаган, маиший чиқиндилар билан боғлиқ ишларни амалга ошириш тизимини модернизациялаш ва такомиллаштиришга тизимли, дастурли ёндашиш зарурияти янада долзарб бўлмоқда.

Республикада экологик ҳавфсизликни таъминлаш ва атроф муҳитни муҳофаза қилиш соҳасида давлат бошқарувини тубдан такомиллаштириш, экологик ҳолатни яхшилаш, чиқиндиларнинг фуқаролар соғлиғига зарарли таъсирининг олдини олиш, аҳоли турмуш даражаси ва сифатини ошириш учун қулай шароитлар яратиш, маиший чиқиндиларни йиғиш, сақлаш, ташиш, утилизация қилиш, қайта ишлаш тизимини янада такомиллаштириш мақсадида мобил илова яратиш ушбу мақоланинг асосий ғояси ҳисобланади.

Чиқиндиларни қайта ишлаш соҳасида фойдаланиш учун мобил илова яратиш орқали кенг аҳолини бу фаолиятни юритишга жалб қилиш кўзда тутилган. Мобил илова, Апп Инвентор платформасида яратилган. Апп Инвентор - бу фойдаланувчидан минимал дастурий билимларни талаб қиладиган муҳити ҳисобланади.



Ушбу мухит тўғридан-тўғри браузер орқали ишлайди. Қўшимча дастурларни юклаб олиш ва ўрнатиш шарт эмас. Иловаларни Android смартфон, планшетда, ҳатто iPad да ҳам яратилиши мумкин. Ускуна учун асосий талаб экраннинг яхши пикселлар сонига қараб қўйилади. Тайёр иловаларни Play Market га жойлаштирилиши мумкин. Яна шунини таъкидлаш жоизки App Inventor платформаси ARDUINO мухитини ҳам қўллаб қувватлайди. MIT App 2 платформаси бир неча ҳафтада янгилашиб туради. Янгиланган версияси унинг самарадорлигини оширишга хизмат қилади.

давлатимиз экологик жараёни ижобий тарафга ўзгартириш вазифасини хал қилишга ёрдам беради.

Бу иловани яратишда маиший чиқиндиларни саралаб йиғишни жорий этиш кўзда тутилмоқда: қайта ишланадиган қаттиқ маиший чиқиндилар (полимерлар, қоғоз ва металл), ҳавфли маиший чиқиндилар (аккумуляторлар, батарейкалар, тиббиёт чиқиндилари ва бошқалар), шиша идиш буюмлари ва бошқалар.



Илова яратишда энг зарур мақсадлардан бири қайта ишлашга ихтисослашган корхоналар ҳақидаги ҳозирги вақтда актуал бўлган маълумотлар базасини лойиҳалашдан иборат.

Маълумотлар базасидан фойдаланган ҳолда мобил илова қуйидаги кўринишда ишлаб чиқилади:

Ушбу мобил илова асосида қуйидаги натижаларга эришилиши кутилмоқда:

I. Республика бўйича аҳамияти:

- Шахар ва ҳудудларда тозаликка эришилади
- Экологик мувозанат сақланади

II. Аҳоли орасида аҳамиятли жихати:

- Моддий манфаатдорликга эга бўлади
- Қўшимча ишчи ўринлари ратилади
- Экологик маданият ошади

III. Қайта ишлаб чиқарувчиларга аҳамиятли жихати:

- Маиший чиқиндиларни аҳолидан турларга ажратилган ҳолда қабул қилиб олиш имкониятига эга бўлади
- Корхона самарадорлиги ошади

Адабиётлар

1. “Beginning Андроид™ 4 Application Development”, by Wei-Meng Lee, printed at Radha Offset, Delhi in 2015, pages – 533.

2. “Android™ Application Development Cookbook”, by Wei-Meng Lee, printed at Sharda Offset Press, Delhi in 2015, pages – 385

3. “Андроид Wireless Application Development Volume I: Андроид Essentials, 3rd Edition”, Published Feb 23, 2014 by Addison-Wesley Professional, pages449.

ANGULAR FRONTEND FRAMEWORKI

N.M. Alimqulov

Andijon davlat universiteti o‘qituvchisi, developeradu@gmail.com

Angular - HTML, CSS, JavaScript/TypeScript tillari yordamida Frontend yoki Client tomonida ishlovchi Web dasturlarni qurish platformasi hisoblanadi. Angular bu ochiq kodli framework uning ortida Google korxonasiining "Angular Team" jamoasi turadi. TypeScript tili JavaScriptga o‘giriluvchi til hisoblanadi. Agarda siz TypeScriptni bilmasangiz xavotir olmang bu juda oson til.

Tabiiyki hayolimizga Angular nima uchun kerak? Degan savol keladi. Mavjud bo‘lgan JavaScript yoki Jquerylarni ishlatib web dastur qilaversak bo‘lmaydimi degan savol keladi. Ammo web dasturlarimiz kattalashgan va takomillashgan sari dasturimizni strukturalarini tartibga solishimiz kerak bo‘ladi. Frameworkni ishlatmagan holda bu ishni amalga oshirish biroz mujmal ish. Bundan keyin JavaScriptni o‘zida yozilgan kodni test qilish ham oson emas. Mana shu muammolarni hal qilish maqsadida oxirgi vaqtlar bir nechta JavaScript

Frameworklar paydo bo'ldi. Masalan Angular, React, Ember va x.k. Shular orasida Angular eng mashxur Framework hisoblanadi.

Angular afzalliklarini sanab o'tadigan bo'lsak avvalo Angular Kross platformalik ya'ni Angularda Mobil telefonlarga, Desktoplarda, Linux, Windows yoki MacOSlarda ishlovchi web dasturlarni tuzish mumkin va ular hammasi birdek ishlaydi. Ikkinchidan dastur strukturasi "toza" bo'ladi. Bundan keyin dasturdagi ko'pgina kodni qayta ishlatish imkoniyatimiz mavjud bo'ladi. Bu juda muhim narsa. Hamda Angularda yozilgan dasturlarni test qilish ancha oson bo'ladi. Ya'ni Angular dasturimizdagi har xil funksiyalarni tekshiruvchi avtomatlashgan testlarni yozishimiz mumkin.

Angular haqida eng ko'p so'raladigan savollardan biri AngularJS, Angular 2.0 va Angular 4 larni bir-biridan farqi qanaqa? AngularJS FrontEND dasturlarini qurishga mo'ljallangan JavaScript frameworki sifatida 2010-yilda yuzaga kelgan tez orada AngularJS juda mashxur bo'lib ketdi, albatta AngularJS ijodkorlari unga yangidan yangi imkoniyatlar qo'shib borishdi, ammo vaqt o'tishi bilan frameworkni arxitekturasi bugungi kunning talabiga javob bermasligi ma'lum bo'ldi. Bundan tashqari AngularJSning ba'zi xususiyatlari biroz murakkabroq edi. Shular sababli Angular mualliflari buni tamomila yangitdan TypeScriptda yozib chiqishga qaror qilishdi. Shu bilan 2016-yilning o'rtalarida Angular 2.0 vujudga keldi. Angular 2.0 AngularJS dan tubdan farq qiladi ular orasidagi farq shunchalik kattaki, ularni agar nomidagi Angularni aytmasangiz ikkalasi tamomila boshqa framework deb atash mumkin. Bunday yangilik albatta ko'pgina dasturchilarni xursand qildi deyolmaymiz, buning sababi shuncha minglab qatorlab yozilgan qanchadan-qancha AngularJSdagi dasturlarni Angular 2.0 ga o'girish uchun qaytadan yozib chiqish kerak bo'ladi degan gap. Ammo Angular 2.0 AngularJSga qaraganda tushunishga osonroq, hamda Angular 2.0 dagi loyiha arxitekturasi tomonlama ancha tozaroq framework hisoblanadi. Shunday qilib Angular 2.0 ni 2.1, 2.2 va 2.3 versiyalari chiqdi, bundan so'ng bir ajib holat ro'y berdi, birdaniga Angular 4.0 paydo bo'ldi, bu yana ko'pgina dasturchilarni hayron qoldirdi tabiiyki hammada Angular 3.0 qayerda qoldi degan savol vujudga keldi, nahotki yana AngularJSga o'xshagan holat bo'ladi degan qo'rquv bo'lgan albatta ammo havotirga o'rin yo'q edi, Angular 4.0 hamon o'sha-o'sha framework Angular 4.0 ni oddiy qilib Angularni 2.4 versiyasi deb aytib qo'ysak bo'ladi. Hozirga kelib Angular 5.0 2017 yilda chiqqan versiya. Angular bir nechta kuubxonalaridan tashkil topgan ushbu kutubxonalar alohida node paketlar sifatida tarqatiladi. NodeJS – JavaScript kodini browserdan tashqarida ishlataoladigan muhit va backendda ishlashi mumkin bo'lgan JavaScript platformasi hisoblanadi. Shuning uchun ham ularni o'ziga xos versiyalari mavjud. Birinchi paket bu barcha Angular dasturlarini negizi hisoblagan angular/core paketi bundan keyin angular/compiler bundan keyin http xizmatlarini chaqirish uchun ishlatiladigan angular/http kutubxonasi dasturni navigatsiyasi uchun ishlatiladigan angular/router komponenti va boshqa kutubxonalar Angularni tashkil etadi. Komponentalarni versiyalarini bir xil qilish maqsadida Angular jamoasi birdaniga 4-versiyaga o'tishni maqul topdi demak Angular 4.0 bimalol Angularni 2.4 versiyasi deb faraz qilishimiz mumkin

bunda hech qanday qaytadan yozib chiqish degan narsa yo‘q. Mana shu versiya raqamalariga tegishli bo‘lgan mojaro sababli Angular jamoasi Angularni versiyasini nomidan olib tashlashdi va uni oddiygina hozir Angular deb nomlardigan bo‘lishdi. Demak hozirda Angularni faqat ikki xil turi mavjud birinchisi bu AngularJS ya‘ni Angularni ilk avlodi JavaScriptda yozilgan framework uni aytganda doim AngularJS deb ataladigan bo‘ldi, ikkinchisi esa Angular eng so‘nggi versiyasi ya‘ni 2.0 verisyada boshlab hozirgacha oddiygina qilib Angular deb ataladi.

Hozirgi kunda ko‘pgina zamonaviy veb dasturlar eng kamida 3 ta tashkil etuvchilardan iborat bo‘ladi, bular Frontend, Back-end va Ma‘lumotlar ombori. Frontend yana Client deb ham ataladi u browserda ishlovchi dastur hisoblanadi, Frontend foydalanuvchi yaani siz bilan biz ko‘radigan va muloqot qiladigan interfeysni o‘z ichiga oladi, buni user interfeys yoki qisqartirib UI deb ataladi. Frontendni tuzilganda HTML, CSS, TypeScript va Angular dasturlaridan foydalanamiz, Back-end bu web serverda ishlovchi dastur hisoblanadi web server bir yoki bir nechta serverlardan tashkil topgan bo‘lishi yoki umuman back-endimiz cloudda ya‘ni bulutda ishlayotgan bo‘lishi mumkin. Back-end ma‘lumot bilan ishlashga hamda ma‘lumotni ma‘lumotlar omboriga saqlashga yoki olib berishga mas‘ul bo‘ladi. Bundan tashqari Back-endga har xil biznes logikalar joylashtiriladi, Frontend Backend bilan ma‘lumot almashinish uchun aloqa qiladi, masalan foydalanuvchi tomonidan kiritilgan ma‘lumotlarni Backendga yuboradi yoki avval saqlab qo‘yilgan ma‘lumotlarni Back-enddan olib keladi. Aksar holatlarda ma‘lumot Back-endni ortida turgan ma‘lumotlar omborida saqlanadi, chunki agar ma‘lumotlarni Front-endda saqlaydigan bo‘lsak ma‘lumot osonlikcha yo‘q bo‘lib ketishi mumkin yoki umuman foydalanuvchi boshqa kompyuterni ishlatishi mumkin. Shuning uchun ham ma‘lumotni Back-end ortidagi ma‘lumotlar omborida saqlanadi. Endi Frontend ma‘lumotlarni to‘g‘ridan-tog‘ri bazadan olmasdan balki Back-enddagi maxsus xizmatni chaqiradi u xizmat yoki http xizmat atayin Front-end yoki boshqa dasturlash chaqirish uchun ochib qo‘yilgan bo‘ladi. Front-end ma‘lumot olish uchun Back-endni APIga murojaat qiladi API degani Application Programming Interface. Web dasturlarda ushbu API lar http xizmat ham deb ataladi, ya‘ni bu Back-end ishlovchi servislarga http bayonnomasi yordamida bog‘lanib ular bilan ishlaymiz shu xizmat ishlab turgan manzilga http so‘rov yuboramiz va javobni olib kelamiz. Buni tushunishlik uchun Ombor va yuk mashinasini faraz qilaylik dasturimizni shularga qiyos qiladigan bo‘lsak omborni o‘zi http xizmat yoki API, yuk mashinasi bu http so‘rov va yuk esa olib kelinadigan ma‘lumot. Demak yuk mashinasini omborga borib yuk olib kelishiga o‘xshab Frontenddan kelgan so‘rov ham Back-endga kelib APIga ulanib kerakli ma‘lumotni oladi va Frontendga qaytib boradi foydalanuvchi interfeysida ma‘lumotlar tegishli joylarda ko‘rsatiladi. Tabiiyki dasturimiz biznes logikasi ya‘ni dasturning asosiy ish vazifasi Back-endda bo‘lishi lozim masalan dasturimiz biror-bir internet magazin bo‘lsa foydalanuvchini bank hisobidan pulni yechib olish kabi ishlarni backendda bajarishimiz mumkin buning uchun backend boshqa masalan Paynet yoki Click degan tashqi xizmatlarga murojaat qilib kerakli ishlarni bajarishi

mumkin. Frontend tomonda esa foydalanuvchi interfeysi ma'lumotni foydalanuvchiga ko'rsatishga hamda foydalanuvchi tomonidan yo'naltirilgan ma'lumotni backendga yuborishga mas'ul bo'ladi. Frontendda asosan html shablon hamda foydalanuvchi interfeysi logikasi bo'ladi bu logika biror tugma bosganda nima ish bajarilishi yoki kiritilishi shart bo'lgan elementlarni foydalanuvchi tomonidan to'ldirilganligini tekshirish yoki ma'lumotlarni biror to'g'ri formatda ekanligini tekshirish, boshqa sahifaga o'tish va shunga o'xshash logikalar Frontendda bo'lishi kerak. Frontend va Backend alohida bo'lganligi sababli Frontend va Backend dasturchi degan kasblar mavjud. Frontend dasturchilar asosan HTML, CSS, JavaScript va Angular kabi frameworklarni bilishi lozim Backend dasturchilari esa ko'proq Backendda ishlovchi texnologiyalarni masalan MySQL, Oracle kabi dasturlar bilan ishlashni bilishi kerak bundan tashqari bazi dasturchilar ham Frontend ham Backenddan ma'lumotga ega bo'ladilar bunday dasturchilarni Full stack dasturchilar deb atashadi bunda faqatgina Frontend, Backenddan tashqari boshqa ko'p texnologiyalarni ham bilish lozim bo'ladi.

Adabiyotlar

1. Joseph D. Booth. "Angular Succinctly". Sunconfusion, Inc. USA-2019.
2. Frederik Dietz. "AngularJS Succinctly". Sunconfusion, Inc. USA-2013.
3. <https://angular.io/docs>

С# ДАСТУРЛАШ ТИЛИ ОРҚАЛИ MICROSOFT ACCESS ДАСТУРИГА МУРОЖАТЛАРНИ АМАЛГА ОШИРИШ

Қодиров Б.

Муҳаммад ал-Хоразмий номидаги Тошкент ахборот технологиялари университети Қарши филиали, mr.soc@bk.ru

Маълумки, бугунги кунда яратилган дастурий восиларнинг ҳисоби йўқ. Лекин, қайси бир дастурий таъминот бошқаларидан аниқ қайсидир томонлама устунроқ туради ва фойдаланувчига хуш келади. Ўз ўрнини янги дастурий таъминотга берган олдинги дастурий таъминот эндиликла ўз фойдланувчиларни ўзига жалб қилиш учун янгича услубда тайёрланган идеялар билан ўзини бойитишга ҳаракат қилади. Шу сабабли бирор-бир ном билан танилган дастурий таъминотлар ўз устида қайта ишлаётганини билдириш сифатида кейинги яратган дастурларини янгича вариантларда оммага тақдим этадилар.

Microsoft Access дастури Microsoft Office пакетининг маҳсулоти бўлган дастурлар сарасига киради. Бу дастур орқали бирор-бир предмет соҳа лойиҳалаштирилади ва унинг маълумоилар базаси тузилади. Фойдаланувчи эса бу ташкил этилган маълумотлар базасига ўзига керакли бўлган маълумотларни киритиб қўйиши, керакли вақтда уни чақириб олиши, унинг қайсидир элементида хатоликга йўл қўйган бўлса ўзгартириши, акчинча у яроқсиз бўлган вазиятда уни ўчириши имкониятларини амалга оширади.


C#(Си Шарп)[1] дастурлаш тили Visual Studio дастурлар жамланмаси пакетига кириб, объектга йўналтирилган дастурлаш тили ҳисобланади. Бугунги кунда фойдаланувчиларга ўзининг тушунарлилиги ва оммабоплилиги билан манзур бўлган дастурлаш тилларидан биридир.

Ушбу мақолада Microsoft Access дастури орқали тузилган маълумотлар базасини C# дастурлаш тили билан боғлиш назарда тутилган. Фойдаланувчиларда савол туғилган бўлиши табиий, нимага уларни боғлаш керак, бу жараён қандай имкониятларни яратади? Ушбу саволларга аниқроқ жавоб беришга ҳаракат қиламиз. Демак, уларни боғлаш Microsoft Access да мавжуд бўлмаган мураккаб сўровларни амалга ошириш, фойданувчига қулайроқ интерфейс яратиш ва энг асосийси локал тармоқларда қулайроқ ишлаш имкониятини беради.


Ҳозирда, икки муҳитни бир-бирига нисбатан боғлаймиз. Даст аввал Microsoft Access да база яратиб оламиз

ID	Nomi	Yo'nalishi	Manzili	Щелкните для добавления
2	Mars	Xo'jalik_buyumlari	Toshkent viloyati Yunusobod tumani 3kv	
3	Lion	Kiyim kechak	Qarshi shahar Orzu bozori 7-qator	
*	(№)			


Кейинги қадамларда ушбу реляцион жадвалга C# дастурлаш тилини боғлаймиз. Бунинг учун Visual Studio дастурлар пакетини юклаб олишимиз зарур. Аммо, бу амалий дастурлар пакети бизнинг компютеримизга юкланганлиги сабабли уни ишга тушураемиз ва қуйидаги қадамларни бажарамиз




Танланмаларни амалга оширганимиздан сўнг уни Далее тугмаси билан тасдиқлаймиз.



Юқоридаги бандларни тўлдириб уни тасдиқлаш учун Создать тугмасини босамиз ва қуйидаги ойнани ҳосил қиламиз




Бу ойна C# дастурлаш тилининг ишчи ойнаси ҳисобланади. Маълумотлар базаси билан ишловчи компоненталардан бири бўлган DataGridView тугмаси орқали ўз ишимизни бошлаймиз




Очилган ойнадан «Выберите источник данных» бандидан «Добавить источник данных проекта» бандини танлаймиз ва юқоридаги ойнани ҳосил қиламиз


Ҳосил бўлган онадан «База данных» ёрлиғи танланиб Далее тугмаси босилади ва кейинги ойнага ўтилади




Сўнгра «Набор данных» ёрлиғи танланади ва Далее тугмаси орқали тасдиқланади. Қадамлар охирида бизга 2та дастурни бир-бирига боғлаш ойнаси очилади.



«Добавить подключение» ойнасидан «Обзор» банди танланиб биз ҳосил қилган охириги ойна яъни Microsoft Access дастурида яратган маълумотлар базамизнинг ёрлиғини кўрсатамиз.



Тайёр бўлган дастурий маҳсулотимизни ишга тушуриб қуйидаги маълумотлар базамизнинг интерфейсини ҳосил қиламиз



Адабиётлар

1. Mahesh Chand. FileInfo in C#. July 2012, Garnet Valley PA.
2. <http://mycsharp.ru/>


ANDROID PLATFORMASI UCHUN MOBIL ILOVA YARATISH BOSQICHLARI

Abdurazzoqov F. B., Ismoilov I.T.

Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti
 assistant,boss8388@mail.ru, ilhom_ismoilov87@rambler.ru


Maruzada Android ilovalari Java va dasturlash tillarida yozilgan. Android SDK vositalari (dasturiy ta'minotni ishlab chiqish to'plami - dasturiy ta'minotni ishlab chiqish to'plami) siz kiritgan kodni va barcha kerakli ma'lumotlar va manba fayllarini APK fayliga - kengaytmali arxiv fayli bo'lgan *Android dasturiy paketini* kompilyatsiya qiladi .apk. APK fayli Android ilovasining ishlashi uchun

zarur bo'lgan barcha narsani o'z ichiga oladi va ilovani Android tizimida ishlaydigan har qanday qurilmaga o'rnatishga imkon beradi. Odatiy bo'lib, tizim har bir ilovaga yagona Linux foydalanuvchi identifikatorini belgilaydi (bu identifikator faqat tizim tomonidan qo'llaniladi va dastur uchun noma'lum); tizimda ilova ichidagi barcha fayllar uchun ruxsat berilishi uchun faqatgina ushbu ilovaga tayinlangan identifikator bilan foydalanuvchi ruxsat beriladi.



1-rasm. Android ilovani ishga tushirish jarayonini

Odatiy bo'lib, har bir dastur o'z Linux jarayonida ishlaydi. Android ilovani ishga tushirish jarayonini ishga tushirish jarayonini boshlaydi va undan keyin kerak bo'lmaganda yoki tizim boshqa ilovalar uchun xotirani bo'shatish kerak bo'lganda jarayoni tugatadi. Shunday qilib, Android tizimi *minimal huquqlarni berish printsiplini* amalga oshiradi. Boshqacha aytganda, sukut bo'yicha har bir dastur faqat ishlash uchun zarur bo'lgan komponentlarga va boshqa hech qanday ma'lumotga ega bo'lmaydi. Bu esa, ilovaning tizimning ruxsatsiz joylariga kirish imkoniga ega bo'lmagan juda xavfsiz muhitni yaratadi.



Navigation Drawer Activity

2-rasm. Navigation Drawer activitydan foydalanildi.

Biroq, dasturda boshqa ilovalarga ma'lumot berish va tizim xizmatlariga kirish imkoniyatlari mavjud:

ikkita ilova bir Linux foydalanuvchi identifikatoriga berilishi mumkin. Bunday holatda, ularning har biri boshqa dasturning fayllaridan foydalanishi mumkin. Bu tizimda Android dasturining mavjudligi haqida asosiy ma'lumotlar. Ushbu hujjatning qolgan qismi quyidagi mavzularni qamrab oladi:

ilovani belgilaydigan asosiy komponentlar;

dastur tomonidan talab qilinadigan komponentlar va qurilma funktsiyalari e'lon qilingan manifest fayli;

dastur kodidan alohida ajratilgan resurslar va ilovaning turli xil konfiguratsiyalarga ega qurilmalarga moslashishiga imkon beradi.

Dastur komponentlari

Dastur tarkibiy qismlari - Android dasturining qurilish bloklari. Har bir komponent alohida tizim bo'lib, uning yordamida tizim dasturga kiritilishi mumkin. Barcha tarkibiy qismlar foydalanuvchi kirish nuqtalari emas va ularning ba'zilari bir-biriga bog'liq. Bundan tashqari, har bir komponent mustaqil tarkibiy birlik bo'lib, muayyan rol o'ynaydi - ularning har biri ilovaning ishlashini aniqlaydigan strukturaning noyob elementini ifodalaydi

Dastur tarkibiy qismlari to'rtta tipdan biri bilan bog'lanishi mumkin. Har bir turdagi komponentlar muayyan maqsadlar uchun mo'ljallangan bo'lib, ular tarkibiy qism yaratish va tugatish usulini belgilovchi o'zlarining hayot aylanish davriga ega.

Komponentlarning to'rt turi:

Operatsiyalar

Faoliyat (Faoliyat) - foydalanuvchi interfeysi bo'lgan yagona ekran. Misol uchun, elektron pochta ilovasida bir operatsiyani yangi xabarlar ro'yxatini ko'rish, boshqasini xabar qilish va uchinchi xabarni o'qish uchun ishlatish mumkin. Operatsiyalar birgalikda foydalanuvchi va elektron pochta ilovalari o'rtasida o'zaro bog'liqlik hosil qilishiga qaramasdan, ularning har biri boshqa operatsiyalarga bog'liq emas. Ushbu operatsiyalarning ba'zilari boshqa dastur tomonidan boshlanishi mumkin (agar sizda dastur sizga elektron pochta bilan ishlash imkonini beradi). Misol uchun, kamera ilovasi foydalanuvchining fotosuratni yuborishi uchun yangi xabarni tashkil etadigan elektron pochta ilovasida ishni boshlashi mumkin.

Xizmati (xizmati) *bo'lgan* fon rejimida ishlaydi va uzoq jarayonlar amaliyot bilan bog'liq uzoq operatsiyalarni amalga oshiradi, bir qismi. Xizmatda foydalanuvchi interfeysi yo'q. Masalan, foydalanuvchi boshqa dasturda ishlayotgan paytda fonda musiqa ijro etishi yoki foydalanuvchining operatsiya bilan o'zaro aloqasini blokirovka qilmasdan tarmoq orqali ma'lumotlarni qabul qilishi mumkin. Xizmatni boshqa komponentlar bilan boshlash mumkin, ular keyinchalik u bilan ishlashadi - masalan, operatsiya.

Kontent provayderlari

Yetkazib beruvchi *kontent* (*Kontent provayderi*) dastur ma'lumotlarni umumiy majmuini faoliyat ko'rsatmoqda. Ma'lumotlar fayl tizimida, SQLite ma'lumotlar bazasida, Internetda yoki ilovangizga kirish huquqiga ega bo'lgan boshqa doimiy saqlash joylarida saqlanishi mumkin. Kontent provayderi orqali boshqa ilovalar ma'lumotni so'rashi yoki hatto o'zgartira olishi mumkin (agar

kontent provayder ruxsat bergan bo'lsa). Masalan, Android tizimida foydalanuvchining kontakt ma'lumotlarini boshqaradigan kontent provayderi bor. Tegishli ruxsatnomalarni olgan har qanday dastur ushbu kontent provayderining bir qismini ContactsContract.Datamuayyan shaxs haqidagi ma'lumotlarni o'qish va yozish uchun talab qilishi mumkin .

Kontent provayderlari, ilovaning tashqi komponentlarga kirishni ta'minlamaydigan ma'lumotlarni o'qish va yozish uchun ishlatiladi. Misol uchun, namuna nusha ilovasida namuna saqlovchisi qaydlarni saqlaydi.

Kontent provayderi sinfning sinfiga tegishli ContentProvider. Boshqa ilovalar bitimlarni amalga oshiradigan standart API to'plamini qo'llashi kerak. Tafsilotlar Content Provayderlaridagi ishlab chiquvchi qo'llanmasida keltirilgan.

Adabiyotlar

1. <https://www.smashingmagazine.com/2018/02/comprehensive-guide-to-mobile-app-design/>Герберт Шилдт. Java 8. Полное руководство, 9-е издание = Java 8. The Complete Reference, 9th Edition. – М.: «Вильямс»

2. Кей С. Хорстманн. Java SE 8. Вводный курс = Java SE 8 for the Really Impatient. – М.: «Вильямс»

3. Фрэд Лонг, Дхрув Мохиндра, Роберт С. Сикорд, Дин Ф. Сазерленд, Дэвид Свобода. Руководство для программиста на Java: 75 рекомендаций по написанию надежных и защищённых программ = Java Coding Guidelines: 75 Recommendations for Reliable and Secure Programs. – М.: «Вильямс»

ANDROID OPERATSION TIZIMI VA UNING XUSUSIYATLARI

Abdurazzoqov F.B., Ismoilov I.T.

Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti
assistenti,boss8388@mail.ru, ilhom_ismoilov87@rambler.ru

Maruzada Android – Linux yadrosiga asoslangan kommunikatorlar, planshetli kompyuterlar, elektron kitoblar, raqamli musiqa uskunalari, qo'l soatlari, netbuklar va smartbuklar uchunportativ (tarmoqli) operatsion tizimdir. Android Google tomonidan ishlab chiqilgan kutubxona orqali qurilmani boshqaruvchi Java-ilovasini yaratishga imkon beradi. Android Native Development Kit Si va boshqa tillarda yozilgan ilovalarni yaratadi. 2012-yilning uchinchi choragida sotilgan smartfonlarning 75 foizida Android operatsion tizimi o'rnatilgan.



1-rasm. Android operatsion tizimi

HTC Dream (T-Mobile G1) – Android OT asosida birinchi smartfoni yangiliklar kiritilishi tarixi 2008-yil sentabr oyida birinchi versiyasi chiqarilgandan so‘ng tizimga bir necha yangiliklar kiritilishi sodir bo‘ldi. Ushbu yangiliklar odatda, aniqlangan xatolarni tuzatish va tizimga yangi funksiyani kiritish bilan bog‘liq bo‘ldi. Tizimning har bir versiyasi yangilik sifatida o‘zining kodli nomi bilan ataldi. Kod nomlari alifbo tartibida berildi. 2012-yil noyabr oyiga kelib, tizimning 14 ta versiyasi yaratildi. Oxirgi versiyasi – 4.1 Jelly Bean («qo‘shimchasi bilan chaynash obaki») deb nomlandi. HTC kompaniyasi tomonidan yaratilgan HTC Dream smartfoni (T-Mobile G1 nomi ostida rasman T-Mobile mobil aloqa operatori tomonidan yaratilgan) Android boshqaruvi ostida ishlovchi birinchi qurilma bo‘ldi, uning taqdimoti 2008 - yil 23-sentabr kuni bo‘lib o‘tdi. Ko‘p o‘tmay, smartfonlar boshqa ishlab chiqaruvchilari tomonidan Android asosida qurilma ishlab chiqarish istagi bilan ko‘plab murojaatlar kelib tusha boshladi. Planshetlar uchun mo‘ljallangan Android uchinchi (Honeycomb) versiyasi chiqishi bilan borgan sari ko‘proq ishlab chiqaruvchilar ushbu platformada planshetlar ishlab chiqarishlarini e‘lon qila boshladilar. Smartfonlar va planshetlardan tashqari Android operatsion tizimini boshqa qurilmalarga ham o‘rnata boshladilar. 2009-yil oxirida Android asosida ishlovchi birinchi fotoramka savdoga chiqarildi. 2011-yil iyun oyida Italiyaning BlueSky kompaniyasi Android operatsion tizimi boshqaruvi ostida ishlovchi i‘m Watch intellektual qo‘l soatlarini ishlab chiqarishini ma‘lum qildi. 2012-yil avgust oyida Nikon Google platformasida ishlovchi jahonda birinchi foto kamerasini taqdim etdi. Bundan tashqari, tashabbuskor Androidni qator mashhur qurilmalarga ko‘chirib o‘tkazib joriy qildilar, ular orasida misol uchun, Windows Mobile HTC Touch Dual va HTC TyTN II platformasidagi smartfonlar bor, ularda Android emulyatsiya rejimida ishga solingan. Maemoda ishlovchi – Nokia N810 va Nokia N900 (Nitdroid nomli port) internet-planshetlari – Windows Mobile operatsion tizimida, MeeGo, va HTC HD2 platformasida ishlovchi Nokia N9 smartfonlari kabi qurilmalarga to‘laqonli ko‘chirib o‘tkazish ham amalga oshirildi, ularda Android operatsion tizimini micro SD-kartalar sifatida ichki NAND-xotira sifatida ham ishga solish mumkin. Koolu kompaniyasi Neo Free Runnerga Androidni o‘rnatish bilan shug‘ullanish bilan birga, qayta o‘rnatilgan Google mobil platformasi bilan ushbu smartfonlarni sotishda o‘z biznesini rivojlantirmoqda. Koolu kompaniyasidan Neo Free Runnerga birinchi rasmiy va umumiy foydalanish uchun Android o‘rnatilishi beta-relizi 2008-yil dekabr oyida bo‘lib o‘tdi. Android x86 arxitekturasiga ham ko‘chirib o‘tkazilgan. Ustunliklari : Ba‘zi sharhlovchilar Android qator hollarda veb-syorfing, Google Inc. servislari bilan mosligi kabi va boshqa xususiyatlari bilan o‘z raqobatchilaridan biri Apple iOS kompaniyasiga qaraganda o‘zini yaxshi namoyon qilishini aytadilar. Android, iOS ga nisbatan ochiq platforma hisoblanadi, bu holat unda ko‘proq funksiyalarni amalga oshirishga imkon beradi. iOS va Windows Phone 7 dan farqli ravishda, Androidda fayllarni qabul qilish va uzatishga ham imkon beruvchi Bluetooth oqimini to‘la amalga oshirish mavjud. FTP-serverini, tarmoqqa ulanish nuqtasi rejimi (PAN

xizmati) va Bluetooth orqali guruhli birinchi darajali tarmoqni (GN xizmati) amalga oshirish mavjud. Android-apparatlarida, odatda, USB va xotira kartalarini olmasdan turib boshqa uzatish usullari tezlik cheklanishlaridan qat'iy nazar kompyuter fayllarini tezlikda telefonga ko'chirishga imkon beruvchi, MicroSD-kardrider mavjud; bundan tashqari, iOS va Window Phone 7 sinxronlashtirish dasturi (iTunes va Zune), orqali amalga oshirishdan tashqari, biror-bir fayllarni telefonga/telefonidan to'g'ridan-to'g'ri uzatish mumkin emas, Android operatsion tizimidagi telefonlar esa xotira kartasi fayllar tizimini USB mass storage device («fleshka») kabi uzatish imkoniga ega. Avvaldan dasturni "tekshirilmagan manbalardan" (misol uchun, xotira kartasidan) o'rnatish taqiqlanishiga qaramay, ushbu cheklash apparat sozlashlarida doimiy vositalar yordamida o'chiriladi, bu holat esa internet-ulanishsiz dasturlarni telefonlar va planshetlarga o'rnatishga imkon beradi (misol uchun, Wi-Fi-ulanish nuqtalariga ega bo'lmagan va odatda juda qimmat turadigan mobil internetga pul sarflashni istamaydigan foydalanuvchilar uchun), hamda barcha istaganlarga Android uchun ilovalarni bepul yozish va o'z apparatida test sinovlaridan o'tkazish imkonini beradi, shu bilan birga, IOS va Windows Phone 7 da hatto o'z dasturlarini tarqatish istagi bo'lmaganda ham loyihachining qayd etish ro'yxatini sotib olishi kerak bo'lardi. Android ARM, MIPS, x86 kabi turli apparatli platformalarda foydalanish mumkin. Ilovalar boshqa muqobil Google play magazinlari mavjud, misol uchun Amazon'dan Appstore for Android, Opera Store, Yandex.Store. Android rivojlanishi tarixi : 2005-yil iyul – Google kompaniyasi Android Inc. kompaniyasini sotib oldi. 2007-yil 5-sentabr – Open Handset Alliance (OHA) kompaniyalar guruhi tashkil etilganligi rasman e'lon qilindi, uning maqsadi mobil qurilmalar uchun ochiq standartlarni ishlab chiqish hisoblanadi va shu bilan birga mobil ilova rivojiga bu kompaniyalar katta xissa qo'shib kelmoqda.

Adabiyotlar

4. <https://www.smashingmagazine.com/2018/02/comprehensive-guide-to-mobile-app-design/>Герберт Шилдт. Java 8. Полное руководство, 9-е издание = Java 8. The Complete Reference, 9th Edition. – М.: «Вильямс»

5. Кей С. Хорстманн. Java SE 8. Вводный курс = Java SE 8 for the Really Impatient. – М.: «Вильямс»

6. Фрэд Лонг, Дхрув Мохиндра, Роберт С. Сикорд, Дин Ф. Сазерленд, Дэвид Свобода. Руководство для программиста на Java: 75 рекомендаций по написанию надежных и защищённых программ = Java Coding Guidelines: 75 Recommendations for Reliable and Secure Programs. – М.: «Вильямс»

7. Кей С. Хорстманн, Гари Корнелл. Java. Библиотека профессионала, том 1. Основы. 9-е издание = Core Java, Volume I: Fundamentals (9th Edition). – М.: «Вильямс».

JAVA ДАСТУРЛАШ ТИЛИДА ДАСТУР ЁЗИШ ФОРМАТИ

Мусаев Х.Ш., Қаюмов А. М., Хошимов Б.М.

Муҳаммад ал-хзоразмий номидаги тошкент ахборот технологиялари университети Фарғона филиали, farkompyuter@mail.ru

Java дастурлаш тилида дастур формати асосан классдан ташкил топади. Бунда класснинг номи файлнинг номи билан устма–уст тушиши керак бўлади. Яратилаётган иловада асосий класснинг ичида оммавий метод мавжуд бўлим, у ҳар доим main номи билан номланиши шарт.

```
class <Класснинг номи>
{
    public static void main(String[] args)
    {
        <Дастурнинг тана қисми>;
    }
}
```

Java дастурлаш тили C оиласига мансуб бўлганлиги сабабли, регистрга боғлиқ бўлган дастурлаш тили ҳисобланади. Агар Java дастурлаш тилидаги хизматчи сўзларининг биргинаси ҳам ўзгарган бўлса, яъни юқори регистрдаги белги қуйи регистрда ёки қуйи регистрдаги белги юқори регистрда бўлиб қолса, хатолик келиб чиқади.

Класснинг номи идентификатор бўлганлиги сабабли, класснинг номи фақат лотин ҳарфидан бошланиши керак. Класснинг номи одатда катта ҳарфлардан бошланиши мақсадга мувофиқ. Бундан ташқари Java дастурлаш тилида бир нечта сўзлардан ташкил топган идентификатор туя усулида ёзилиши дастурчилар томонидан одат бўлиб қолган. Бу усулга қуйидагиларни мисол сифатида келтириш мумкин.

```
MyValue = 100;
YouAge = 35;
FloatPointNumber = 12.5;
Value = 15;
```

Java дастурлаш тилида ёзилган кодларнинг кенгайтмаси *.java билан ифодаланади. Агар дастур тўғри ёзилган бўлса, компиляциядан сўнг байт–код ҳосил бўлади. Бу байт–коднинг номи класснинг номи билан устма–уст тушган ҳолда, кенгайтмаси *.class га ўзгаради.

Java дастурлаш тилида ёзилган дастур javac компилятори ёрдамида байт–кодга айлантирилади ва Java интерпретаторидан фойдаланиб дастур ишга туширилади. Интерпретатор ўз ишини main методини чақиришдан бошлайди. Дастур форматидаги фигурали қавслар ({,}) алоҳида блокка олиш учун ишлатилади. Барча дастурлар алоҳида блок ҳисобланади, шунинг учун класслар номидан кейин қавс очилади ва охирида ёпилади. Дастур ичидаги алоҳида блоклар, класснинг методлари ҳисобланади.

Бошқа дастурлаш тилларида бўлгани сингари Java дастурлаш тилида ҳам изоҳлар жойлаштириш мумкин. Изоҳлар компилятор томонидан инобатга олинмайди, улардан дастурчилар ўз кодларини тушунтириш

мақсадида фойдаланадилар. Изоҳлардан фойдаланилган кодларни кейинчалик очиб кўрилганда, нима вазифа бажарилганлигини тез англаб олиш мумкин. Изоҳлар қолдиришнинг 2 тури мавжуд. Бу турларни қуйида кўриш мумкин.

Бир қаторли изоҳлар (//). Кўп қаторли изоҳлар (/*) белгилардан бошланиб, (*/) белгилар ёрдамида тугайди.

```
public class HelloWorld {
    public static void main(String[] args) {
        // Mening birinchi dasturim
        ...
    }
}
```

```
/**
 * Bu mening
 * birinchi
 * dasturim
 */
```

Бўлинмада келиб чиқадиган хатоликлар қуйидаги жадвалда келтириб ўтилган.

Номла-ниши	Таърифи	Мисоллар
Infinity	Ихтиёрий мусбат сони 0 га бўлинишидан ёки қиймати жиҳатдан катта сонни қиймати жиҳатдан 0 га яқин сонга бўлинишидан келиб чиқади	1.0/0.0, 1e300/1e-300, Math.abs (-1.0/0.0)
-Infinity	Ихтиёрий манфий сони 0 га бўлинишидан ёки қиймати жиҳатдан манфий кичик сонни қиймати жиҳатдан кичик 0 га яқин сонга бўлинишидан келиб чиқади	-1.0/0.0, 1.0/(-0.0), 1e300/-1e-300
-0.0	Ихтиёрий манфий сонни Infinity қийматига бўлинишидан келиб чиқади	-1.0 / (1.0 / 0.0), -1e300 / 1e300
NaN	Мавжуд бўлмаган сон	0.0/0.0

Адабиётлар.

1. Core Java 2 Volume I – Fundamentals, 7 th Edition, Cay S. Horstmann, Gary Cornell, Prentice Hall PTR, 2004.
2. Learning Java, 3 rd Edition, Jonathan Knudsen, Patrick Niemeyer, O'Reilly, 2005.
3. Head First Java, 2 nd Edition, Kathy Sierra, Bert Bates, O'Reilly, 2005.

JAVA ДАСТУРЛАШ ТИЛИДА КИРИТИШ ВА ЧИҚАРИШ ОПЕРАТОРЛАРИ

Мусаев Х.Ш., Қаюмов А. М., Хошимов Б.М.

Муҳаммад ал-хзоразмий номидаги тошкент ахборот технологиялари университети Фарғона филиали, *farkompyuter@mail.ru*

Java дастурлаш тилида киритиш ва чиқариш операторлари оқимларга мисол бўлади. Оқим – бу маълумотлар мажмуаси. Java оқим байтлардан иборат. Java дастурлаш тилида 3 та автоматик консолга боғланган оқимлар мавжуд. Уларни киритиш ва чиқариш операторлари тарзда ўрганилади. Қолган оқимлар билан кейинги маърузаларда танишамиз.

Киритиш ва чиқариш операторлари қуйидагилар:

1. System.out – стандарт чиқариш оқими;
2. System.in – стандарт киритиш оқими;
3. System.err – стандарт хатолик оқими;

Ҳар бир оқимнинг ўзига тегишли бўлган методлари ёки функциялари мавжуд. Чиқариш операторининг 3 та тури мавжуд.

System.out.print(Object obj) – Маълумотларни ёнма–ён чиқариш;

System.out.printf(...) – Маълумотларни форматлаб чиқариш;


System.out.println(Object obj)– Маълумотларни битта қаторга чиқариш;

Ҳар бир чиқариш операторини мисолларда кўриб чиқамиз. Барча мисолларнинг натижалари NetBeans IDE муҳити олинган.

2.6.1–мисол: Икки сонни экранга чиқариш.

```
public class HelloWorld {  
    public static void main(String[] args) {  
        int a = 100, b = 5;  
        System.out.print(a);  
        System.out.print(", ");  
        System.out.print(b);  
    }  
}
```

Бу дастурнинг натижаси қуйидаги кўринишда




Маълумотларни ёнма–ён чиқариш буйруғи ёрдамида чиқарилган барча маълумотлар битта қаторга жойлашади. Агар битта қатор тўлса, чиқаётган маълумотлар иккинчи қаторга автоматик ёзила бошлайди.

2.6.2–мисол: Битта бутун сонни ва битта ҳақиқий сонни экранга форматлаб чиқариш.

```
public class HelloWorld {  
    public static void main(String[] args) {  
        int a = 100;
```

```
float b = 5.25f;
System.out.printf("%d, %5.2f\n", a, b);
}
}
```

Дастурнинг натижаси қуйидаги кўринишда



2.6.3–мисол: Икки сонли типдаги ўзгарувчининг қийматини экранга чиқариш.

```
public class HelloWorld {
    public static void main(String[] args) {
        int a = 100; float b = 5.0f;
        System.out.println(a);
        System.out.println(b);
    }
}
```

Бу дастурнинг натижаси қуйидагича:



Java дастурлаш тилида киритиш операторлари байтлар тарзида ишлайди. Уларга мисол сифатида қуйидаги буйруқларни кўриб чиқишимиз мумкин. `int System.in.read()` – бу буйруқ клавиатура ёрдамида киритилган маълумотни битта белги сифатида ўқиб, шу белгининг ASCII кодидаги қийматини ўзгарувчига жўнатади.

`int System.in.read(byte[] k)` – бу буйруқ клавиатура ёрдамида киритилган маълумотлар кетма–кетлиги `k` ўзгарувчисининг қийматларини ташкил этади.

`int System.in.read(byte[] k, int start, int count)` – бу буйруқ клавиатура ёрдамида киритилган маълумотлар кетма–кетлигидан `start` ўриндаги белгидан бошлаб `count` тасини олиб `k` ўзгарувчисининг қиймати сифатида олади.

Java дастурлаш тилида маълумотларни консоль ойнасидан ўқиб олиш учун ўзининг `Scanner` классидан фойдаланамиз. Бу класс ёрдамида клавиатура томонидан киритилган ихтиёрий маълумотни ўқиш мумкин. Бу класснинг 40 дан ортиқ методлари мавжуд. Уларнинг айримлари билан танишиб чиқамиз.

Методлар номи	Таснифи
next()	Маълумотлар оқидамидаги кейинги маълумотни қидиради ва мавжуд бўлса унинг қийматини қайтаради.
nextInt()	Маълумотлар оқидамидаги кейинги бутун int типдаги сонни қидиради ва мавжуд бўлса унинг қийматини қайтаради.
nextByte()	Маълумотлар оқидамидаги кейинги бутун byte типдаги сонни қидиради ва мавжуд бўлса унинг қийматини қайтаради.
nextShort()	Маълумотлар оқидамидаги кейинги бутун short типдаги сонни қидиради ва мавжуд бўлса унинг қийматини қайтаради.
nextLong()	Маълумотлар оқидамидаги кейинги бутун long типдаги сонни қидиради ва мавжуд бўлса унинг қийматини қайтаради.
nextBoolean()	Маълумотлар оқидамидаги кейинги мантиқий типдаги қийматни қидиради ва мавжуд бўлса унинг қийматини қайтаради.
nextDouble()	Маълумотлар оқидамидаги кейинги ҳақиқий double типдаги сонни қидиради ва мавжуд бўлса унинг қийматини қайтаради.
nextFloat()	Маълумотлар оқидамидаги кейинги ҳақиқий float типдаги сонни қидиради ва мавжуд бўлса унинг қийматини қайтаради.
nextLine()	Маълумотлар оқидамидаги кейинги қаторни қидиради ва мавжуд бўлса унинг қийматини қайтаради.

Методларнинг ишлатиш учун ўзгарувчи қуйидагича эълон қилиниши мумкин:

```
Scanner input = new Scanner(System.in);
```

Адабиётлар

1. Core Java 2 Volume I – Fundamentals, 7 th Edition, Cay S. Horstmann, Gary Cornell, Prentice Hall PTR, 2004
2. Learning Java, 3 rd Edition, Jonathan Knudsen, Patrick Niemeyer, O'Reilly, 2005
3. Head First Java, 2 nd Edition, Kathy Sierra, Bert Bates, O'Reilly, 2005.

TYPESCRIPTNING AFZALLIKLARI VA OB'YEKTGA YO'NALTIRILGANLIK SIFATLARI

N.M.Alimqulov

Andijon davlat universiteti o'qituvchisi, *developeradu@gmail.com*

Angular da dastur tuza olish uchun TypeScript tilini bilish lozim. TypeScript bu JavaScriptni yanada takomillashgan turi bo'lib, uning JavaScriptdan bir qancha afzalliklari mavjud. Bular statik typelar hamda OOP xossalari, shunday bo'lganidan keyin har qanday JavaScript kod TypeScript kod ham hisoblanadi. ECMAScript degan termin mavjud, uni qisqartirib ES ham deb ataladi, sodda qilib aytadigan bo'lsak ECMAScript bu skriptlash tillari bo'yicha standart JavaScript esa o'sha standart asosida qurilgan til hisoblanadi. ECMAScript standartining ham o'zini versiyalari bor, masalan ES5, ES6. ES standartiga yangi xususiyatlar qo'shib borishi bilan uni versiyasi oshib boradi, hozirgi kunda ES standartining oxirgi versiyasi bu ES6 bo'lsa TypeScriptda bundanda ko'proq xususiyatlar borligini ko'rishimiz mumkin.

TypeScript Microsoft tomonidan tuzilgan aniqrog'i uning muallifi *Anders Hejlsberg* degan ajoyib muhandis boshchiligi ostidagi jamoa hisoblanadi. Bu inson TurboPascal, Delphi va C# tillarining ham ijodkori hisoblanadi.

TypeScriptning JavaScriptda yo'q bo'lgan xususiyatlari quyidagilar: Static Typing agar siz C# yoki JavaScript ishlagan bo'lsangiz u tillarda biror o'zgaruvchi e'lon qilish uchun o'sha o'zgaruvchini turini berishingiz shart, TypeScriptda ham o'zgaruvchilarni turini berish tavsiya etiladi ammo bu ixtiyoriy Statik yoki Strong deyiladi Statik Typing kodni tushunishni ancha osonlashtiradi. TypeScriptning yana bir afzalligi bu unda OOP xususiyatlari borligi ya'ni bular interfeyslar, klasslar, xossalar va x.k. TypeScriptning yana bir afzalligi bu koddagi xatolarni komplyatsiya vaqtida aniqlash mumkinligi bundan tashqari TypeScriptda VS kod bilan ishlangiz intelises ham mavjud bu juda qulay xususiyat.

TypeScript bu go'zal til bo'lgani bilan ammo hozirgi vaqtda browserlar uni tushunmaydi chunki ancha vaqtdan beri JavaScript tili browserlar uchun asosiy til hisoblanib qoldi yaqin kelajakda ham bu narsa o'zgarishi qiyin masala. Shuning uchun TypeScriptni kodi JavaScriptga komplyatsiya aniqrog'i tarjima qilinadi. Angular dasturimiz build bo'lgan vaqtda TypeScript compileri ishga tushib kodimizni JavaScriptga o'giradi.

TypeScriptda "interface" obyekt qila olishi mumkin bo'lgan funksiyalarni hamda ob'yekt ega bo'lishi mumkin bo'lgan xossalarni ta'riflab beruvchi konseps hisoblanadi. Masalan chiroq yoqadigan tugmani bossak chiroq yonadi, yana bir marta bossak o'chadi bizga uni qanday tarzda o'chib yonishi qiziq emas, demak chiroqni yoqish yoki o'chirish degan funksiyalar bo'lishi mumkin, bundan tashqari yana chiroqni yorug'lik darajasi degan xossasi ham bo'lishi mumkin, mana shu yoqish o'chirish degan funksiyasi hamda yorug'lik darajasi degan xossalarni o'zida mujassam etgan har qanday ob'yektni chiroq deb atashimiz mumkin, interfeys ham klass ham bir-biriga bog'liq bo'lgan xossalarni yagona mantiqiy ob'yekt ko'rinishiga keltirishga xizmat qiladi.

```

Interface Shape
{
    x:number;
    y:number;
}
Function drawShape(shape:Shape)
{
    console.log(shape.x.toString());
}
Let shape:Shape;
Shape={x:10, y:20}
drawShape(shape);

```

Ko'pincha raqamli signallarni spektr qiymatlarini olib yoki qulay formaga keltirish orqali qayta ishlash interferensiyalardan yoki shumlardan bartaraf etish, signallarni siliqlash, siqish, tanishda katta yordam beradi. Bugungi vaqtda signallarga raqamli ishlov berish ko'pgina, avval analogli usullarda ishlatiladigan sohalarda tashqari yangi analogli qurilmalarda bajarib bo'lmaydigan sohalarda qo'llanilmoqda. Signallarga raqamli ishlov berishning jozibaliligi quyidagi asosiy qulayliklarga bog'langan.

Signallarga raqamli ishlov berishdan maqsad turli o'zgartirishlar orqali ularni samaradorlik bilan uzatish, saqlash va axborotni ajratib olishdan iborat. Keyingi vaqtlarda keng rivojlangan signallarga raqamli ishlov berish usullari bir qator afzalliklarga ega:

- umuman olganda signallarga ishlov berishning har qanday murakkab algoritmlarini amalga oshirish mumkinligi va ushbu signallarga ishlov berish algoritmlarini real vaqtda amalga oshirish imkoniyatini beruvchi elementlar bazasi borligi;

- raqamli qurilmalar yuqori aniqlikda ishlash imkoniyatini beruvchi algoritmlarning yaratilganligi va mavjudligi;
- nazariy jihatdan uzatilayotgan xabarlarini halaqitbardosh kodlardan foydalanib uzatish va saqlash natijasida xatosiz qayta tiklash imkoniyatining borligi raqamli signallarga xosdir.

Yuqoridagi afzalliklarni amalga oshirish diskret signallar va elementar zanjirlar haqidagi asosiy ma'lumotlarga ega bo'lish darajasiga bog'liq.

Hozirgi vaqtda signallarga raqamli ishlov berish quyidagi sohalarda: raqamli televedeniya, radiolokatsiya, aloqa, meditsina, multimediya, nutqni analizlash va IR telefoniya qo'llash prinsiplariga egadir. Bugungi kundagi zamonaviy IP tarmoqlarda ma'lumotlar trafiginin asosiy tashkil etuvchilari sifatida kommutatsiya paketlari rejimida nutqni jo'natishdan iboratdir.

Shunday ekan real vaqt rejimida talab darajasidagi sifatli nutqni jo'natishni tashkil etish ancha qiyinchiliklarni to'g'diradi. Ayniqsa ovozli va audio signallarni siqish va filtrlash barcha sohalarda qo'llanilishi muhim ahamiyat kasb etadi.

Adabiyotlar

1. Завьялов Ю.С. Леус В.А., Скороспелов В.А. Сплайны в инженерной геометрии. - М.: Машиностр., 1985. - 224 с.

2. Зайнидинов Х.Н. Локальная аппроксимация сплайнами: анализ двух видов представлений. / XVI международная научная конференция «Математические методы в технике и технологиях». (ММТТ-16), Сб. трудов, том.2, секция 2. Санкт-Петербург, 2003. - С.164-166.

3. Mirzaev A.E., Xalilov S.P. "Signallarni qayta tiklashdagi interpolatsiya masalasi va interpolatsion kubik splaynning ahamiyati". TATU xabarlar, 1(33)/2015. Toshkent. 20-25 bet.

SIGNALLARNI SPLAYN FUNKSIYALAR YORDAMIDA APPROKSIMATSIYALASH

R.B. Kudratov¹, O.M. Rajabov²

¹Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti Samarqand filiali assistenti, rustam_4040_tatu@mail.ru.

² Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti magistranti, rajabovorzu46@gmail.com

Interpolatsiyalash – bu funksiyaning qiymatlarini argumentning jadvalda berilmagan qiymatlari uchun topish deb tushunilgan bo'lsa hozirda interpolatsiyalash tushunchasi juda keng ma'noda tushiniladi.

Interpolatsiyalashni "satlarni orasidagini o'qiy bilish san'ati" deb ta'riflash mumkin. Hozirgi kunda interpolatsiyalash tushunchasi keng ma'noda bo'lib uning mohiyati quyidagichadir.

Funksiyalarni yaqinlashtirishda splayn funksiya alohida ahamiyatga ega. Berilgan $[a,b]$ oraliq splayn to'ri deb ataluvchi nuqtalar bilan bo'linadi.

$$a = t_0 < t_1 < t_2 < \dots < t_n = b$$

Har bir oraliq $[t_i, t_{i+1}]$, $i = 0, n$. uchun o'zining interpolyatsion ko'phadi quriladi. Umumiy holda, agar interpolyatsiyalash nuqtalari splayn to'rini tashkil etuvchi nuqtalari bilan ustma-ust tushmasa bunday qurilgan yaqinlashuvchi funksiya uzilishga ega bo'lgan funksiyadan iborat bo'ladi.

Mavjud adabiyotlarning tahlili shuni ko'rsatadiki, yaqinlashtirish usuli bo'yicha interpolyatsion va silliqlovchi splaynlar, tasvirlash turi bo'yicha esa polinomial va bazisli splaynlar ishlatiladi.

Bu o'z navbatida ko'plab hisoblash resurslari sarfini talab qiladi hamda ular asosida olingan algoritmlar esa murrakkab hisoblanadi. Ushbu holatda bazisli splaynlar lokal yaqinlashtirishning samarali vositasi hisoblanadi, qachonki ular berilgan o'zgarma oraliqda qurilsa va faqat yaqinlashtiriladigan funksiyaning ushbu oraliqdagi qiymatlariga bog'liq bo'lsa. Kubik bazisli splaynlarning xususiyatlarini o'rganadigan bo'lsak kubik splaynlar juda katta matematik afzallikka ega.

Ular berilgan nuqtalarni interpolyatsiyalovchi va kvadrat bilan integrallanuvchi ikkinchi hosilasi mavjud bo'lgan barcha funksiyalar ichida minimal yassilik xususiyatiga ega bo'lgan yagona funksiya . $d=1$ defektli kubik bazisli splaynlar dasturlarda ancha kengroq tarqalgan. Bunday splaynlar $[x_i, x_{i+1}]$ oraliqlarning har birida kubik ko'phadlar bilan mos keladi.

$f(x)$ funksiyasini yaqinlashtirish uchun kubik bazisli splaynlar to'rta juft ko'paytmalarning yig'indisi ko'rinishida tasvirlanadi. Amaliyotda splayn-funksiyalar yordamida singnallarni tiklash uchun kubik bazisli splaynlar tizimidan foydalaniladi. Aniqlanish sohasining $[0,1]$ intervalida har bir splayn qiymatlarining bir qismi joylashgan va bu qiymatlar qolgan intervallar uchun bazis bo'lib hisoblanadi.

Splayn funksiyalar asosidagi tiklash metodlarini joriy qilish uchun singnallarni raqamli qayta ishlash ham tahlil qilingan. Splayn funksiyalari metodlari shunisi bilan qulayki ular jamlovchi parallel ko'paytirish amallarini bajarishga asoslangan singnallarni tiklash va parrallellashtirish prinsplarini keng qo'llash imkoniyatini beradi. Splayn-funksiyalar metodlarining bu afzalliklari ularni singnallarni raqamli qayta ishlash masalalarida qo'llash imkoniyatini yaratadi.

Splayn funksiyalar metodlari asosida singnallarni tiklash koeffisientlari hisoblanadi. Kubik splaynlar asosida tiklash koeffisientlarini hisoblash modellari va algoritmlarini hamda kubik bazisli splayn asosida parallel hisoblash strukturasi ishlab chiqiladi.

Signallarga raqamli ishlov berishning keng tarqalgan masalalaridan biri kiruvchi signalni matematik ifodasini olishdan iborat. Axborot tizimlarida dinamik jarayonlarning o'zi emas, balki uning analitik tavsifi ko'rinishidagi kiruvchi signalni matematik modeli ko'riladi. Shuning uchun gapni tahlil qilish, filtrlash, obrazlarni idrok etish, tasvirlarga ishlov berish, siqish masalalarini yechish uchun unumli apparatli amalga oshirishni, talab qilingan tezlik va aniqlikni ta'minlovchi ishlov berishning algebraik usullardan foydalaniladi. Amaliyotda signalda shovqinli tashkil etuvchilar bo'lganida yoki jadval ko'rinishidagi qiymatlar

berilganda algebraik usulli ishlov berish masalasi paydo bo'ladi.

Masalani yechishni soddalashtirish uchun signal yoki uning qismlarini bir muncha oddiy signallar (funktsiyalar) yoki umumiy ko'phadlarning chiziqli kombinatsiyasi ko'rinishida taxminan tasvirlash mumkin. Bunda soddaroq bo'lishi uchun ishlov berilayotgan signal real dinamik jarayonni tavsiflovchi va chegaralangan intervalga ega vaqt funktsiyasi $f(t)$ kabi ifodalanadi.

Qo'yilgan bitta masala doirasida signal (vaqt funktsiyasi) $f(t)$ ga quyidagi cheklovlar o'rnatilgan: signal chastotasi 50 kGts atrofida bo'ladi, signal va shovqin nisbati birga ung nisbatda bo'lishi kerak.

Tahlil natijalari shuni ko'rsatadiki, kiruvchi signalni analitik ifodasini olish uchun ko'rinishidagi algebraik ko'phadlardan foydalanish bir muncha qulay hisoblanadi. Bunda ular amalda umumiy struktura va algoritmi o'zgartirmasdan faqat A_k koeffitsientning qiymatini almashtirish evaziga barcha ko'rinishdagi funktsiyalarni va ko'plab signallarni hosil qilish imkoniyatini ta'minlaydi.

Ko'rsatilgan masalalarni real vaqt tizimida yechish uchun yuqori tezlikni ta'minlovchi, algoritimli va apparat vositali amalga oshirishda soddalik, aniqlik bo'yicha esa an-anaviy usullardan qolishmaydigan usullar talab qilinadi. Shovqinli signallarga ishlov berish masalalarida klassik interpolyatsion ko'phadlar imkoniyati cheklangan bo'ladi.

Bu klassik interpolyatsion ko'phadlardan foydalanganda shovqin tashkil etuvchilari foydali signalni approksimatsiyalash xatoligidan oshib tekmasligi kerakligini bildiradi. Aks qolda ishlov berish sifati shovqin kattaligini ortishiga proporsional ravishda ortadi.

Shovqinli real signallarga ishlov berish uchun bir muncha ma'quli o'rtacha kvadratik yaqinlashtirish usuli, ya'ni eng kichik kvadratlar usuli, ortogonal tizim bo'yicha signallarni yoyish usuli va boshqalar.

Bu usullar amalda qo'llash uchun murakkab hisoblanadi, hamda ko'p sonli ko'paytirish amallarini bajarilishini talab qiladi. Splayn approksimatsiya yuqori aniqlikni talab qiluvchi signallar va tasvirlarga ishlov berish uchun qulay instrument hisoblanadi.

Xuddi shunday o'xshash amallarini bajarib boshqa bazislarda ham approksimatsiyalovchi strukturalarni olish mumkin. Approksimatsiyalovchi ifodalarni olish signal protsessorlarida unumli amalga oshiriluvchi amallarni o'zida ask ettiradi.

Taklif qilinayotgan signalni ko'phad ko'rinishiga o'tkazishda foydalanish bitta amaliy dastur yordamida bir vaqtning o'zida silliqdash (filtrlash), siqish va interpolyatsiya masalalarini echish imkonini beradi. Shu asosida signallarga splayn funktsiyalalar yordamida approksimatsiyalashning matematik modeli va dasturiy ta'minoti ishlab chiqildi.

Adabiyotlar

1. Лэй Э. Цифровая обработка сигналов для инженеров и технических специалистов: практическое руководство / Э. Лэй ; [перевод с англ. ООО «Пропартнер», переводчик Соколюб Н.С.].- М.: ООО «Группа ИДТ», 2007.- 336 с.:

2. Зайнидинов Х.Н. Локальная аппроксимация сплайнами: анализ двух видов представлений. / XVI международная научная конференция «Математические методы в технике и технологиях». (ММТТ-16), Сб. трудов, том.2, секция 2. Санкт-Петербург, 2003. - С.164-166.

3. Зверев В.А., Стомков А.А. Выделение сигналов из помех численными методами. Нижний Новгород. ИПФ РАН, 2001. 188 с.

EMG SENSORLARI ASOSIDA SURDO IMO-ISHORALARNI ANIQLASH TIZIMI.

D.B. Jurayev.

Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti
Samarqand filiali assistant, dilsamtuit@gmail.com

EMG-ga asoslangan imo-ishora tanib olish insonning mashina bilan o'zaro aloqalari istiqbollari namoyish etadi. Tizimlar ko'pincha signal va elektrod o'zgaruvchanligidan aziyat chekishadi, bu vaqt o'tishi bilan ishlashni yomonlashtiradi. Biz ushbu katta o'zgaruvchanlikka qarshi kurashish uchun keng qamrovli tizimni taqdim etamiz va bir martalik mashg'ulotda EMG funksiyalarini qayta ishlash uchun ko'p o'lchovli hisoblashlardan foydalanamiz.

Qo'llarning imo-ishoralari inson mashina aloqasi (IMA) ning ajralmas qismi bo'lib, bu inson-mashina o'rtasida ko'proq o'zaro aloqaga ta'sir o'tkazish uchun ishlatilishi mumkin. Imo-ishoralarni aniq va samarali aniqlash poli-artikulyatsiyalangan protez qo'llardan tortib mobil va o'yin interfeysigacha bo'lgan dasturlarni imo-ishora orqali boshqarish imkonini beradi. Qo'llarning imo-ishoralari elektromiografiya (EMG) yordamida o'lchanadigan mushaklarning faolligi, mushak tolalarining super o'tkazilgan elektr faolligini aks ettiruvchi maydon potentsialini aniqlash asosida tan olinishi mumkin. Odatda EMG - bu signallarni to'g'ridan-to'g'ri terining yuzasiga o'rnatish orqali yozuv elektrodlarini joylashtirish orqali olinadigan usul hisoblanadi.

Ilmiy-tadqiqot ishlari ham, tijorat mahsulotlari ham inson-mashina aloqasini o'rganish texnikasini EMG-ni dekodlash va tabiiy imo-ishoralarni aniqlashga imkon beradigan katta imkoniyatlarni namoyish etadi. Ushbu tizimlarning aksariyati bilakka joylashtirilgan va ma'lumot olish va ishlash rejimini aniqlash algoritmlari uchun kompyuterga ulangan EMG sensorlar qatoridan iborat bo'lib ushbu tizimlar 3-8 sensorlar qatoriga ega bo'lgan 5-6 ta imo-ishoralarni tan olishda 90% dan yuqori tasnifga ega bo'lishlari mumkin. Shunga qaramay, tasnifning aniqligi mushaklarni etarli darajada qamrab olish uchun elektrodni aniq joylashishiga bog'liq. Elektrodning soni kam bo'lgan tizimlarda noto'g'ri joylashish imo-ishoralarni aniqlash uchun etarli bo'lmagan ma'lumotlarning yozilishiga olib kelishi mumkin.

Bundan tashqari, EMG signali juda o'zgaruvchan bo'lishi mumkin va bir nechta sotib olish seanslarida bir xil aniqlikka erishadigan ishonchli interfeysga ega bo'lish juda qiyin. Ushbu ishlash o'zgaruvchanligi asosan mushak tolalari to'qnashuvi, terning terlashi va teri-elektrod interfeysidagi o'zgarishlar tufayli

yuzaga keladi. Bundan tashqari, hatto bir nechta seanslar davomida sensorni aniqlashdagi kichik farqlar ham tasniflash samaradorligini pasaytirishi mumkin.


Mushaklar etarli darajada qamrab olinishini ta'minlashning istiqbolli yechimi - bu zich joylashgan sensorlardan EMG signallarini olish va mushak yuzasining nozik tanasini olish. Odatda, passiv EMG sensorlar matritsasi moslashuvchan bosilgan elektron plataga qurilishi mumkin va teriga osongina joylashtirilib, yuqori zichlikdagi va kichik form-faktorli ko'p kanalli EMG olish imkoniyatini beradi. Barcha elektrodni bir vaqtning o'zida joylashtirish mumkin va bunday massivning moslashuvchan tabiati uni yaxshi signal sifatini ta'minlab, bilakning egriligiga moslashtirishga imkon beradi.

Bundan tashqari, ko'p miqdordagi shovqinli kirishlarni qayta ishlash va signal o'zgaruvchanligi ta'sirini yumshatish uchun ichki kuchli tasniflash algoritmi kerak. Neyron tarmoqqa asoslangan yuqori o'lchovli hisoblash barqaror qaror qabul qilish va tasniflash uchun past signal-shovqin nisbati va katta ma'lumot o'zgaruvchanligini engib o'tadigan istiqbolli yo'ldir. Yuqori o'lchovli hisoblash usuli ko'p qirrali, kengaytiriladigan va tezkor bir marotaba o'rganishni ta'minlaydi, bu EMG, elektroensefalografiya (EEG) va boshqalar kabi ko'p o'lchovli sensorlar ma'lumotlarini qayta ishlash uchun asosiy manba hisoblanadi.

Ushbu faraz ikkita asosiy yo'nalishni taqdim qiladi: (1) ixcham taqiladigan qurilmani o'z ichiga olgan uchini, yuqori zichlikdagi simsiz EMG imo-ishoralarini aniqlash tizimi; va (2) ko'p miqdordagi shovqinli sensorlardagi o'zgaruvchan ma'lumotlardan foydalangan holda, tasnifning mustahkamligini oshirish uchun neyron tarmoqli yuqori o'lchovli hisoblash - kompyuterlardan foydalanish. Taklif etilayotgan tizim 64 ta EMG kanallarini maxsus biopotensial o'qish moslamasiga ulangan moslashuvchan PCB sensorlar qatoridan oladi. Biz oldingi ishimizning to'rtta sensorga asoslangan elektrodlardan olingan EMG signallarini tasniflash uchun Yuqori o'lchovli hisoblashni namoyish qiluvchi rivojlangan versiyasini amalga oshirish mumkin. Biz yuqori o'lchovli algoritmini 64 kanal bilan osonlikcha ishlab chiqilishini, shovqinga toqat qilishini va har qanday imo-ishorani juda tez kalibrlash va onlayn o'rganishni qanday amalga oshirishni ko'rsatamiz.

Imo-ishorani aniqlash qurilmasi ikkita asosiy tarkibiy qismdan iborat: yuqori zichlikdagi egiluvchan elektrod qatori va simsiz signallarni qabul qiluvchi qurilma.

A). Moslashuvchan elektrod massivi yuqori zichlikdagi egiluvchan elektrod qatori teri va neyronni qayd qiluvchi elektron zanjiri o'rtasida interfeys bo'lib xizmat qiladi (1-rasm).



1-rasm. Bog'laydigan simsiz biosignal olish moslamasi (chapda) qo'lda (o'ngda) joylashgan egiluvchan elektrodlar qatori.

64 ta teng taqsimlangan elektrodlar 16×4 o'lchamdagi panjara ichida 200 mkm qalinlikdagi egiluvchan sensor, bilak atrofida ($29,3 \text{ sm} \times 8,2 \text{ sm}$) qoplash uchun etarli. Sensorning kattaligi va moslashuvchanligi turli xil imo-ishoralar uchun ishlatiladigan barcha mushaklarning to'liq, barqaror qoplanishini kafolatlaydi. Elektrodlar (diametri 4,3 mm) va misdan yasalgan. Teri bilan yaxshi aloqada bo'lishga yordam beradigan har bir elektrodga Super o'tkazuvchilar gidrojelt lentasi surtiladi. Moslashuvchan elektronika qattiq PCB (yozib olish moduli) bilan birlashtirish ko'pincha qiyin.

B). Simsiz neyronlarni ro'yxatga olish moduli 123, ixcham simsiz modul elektrod qatoriga ulanadi va interfeyslarni elektron EMG signallarini tayanch stantsiyaga yozib olish, raqamlashtirish va simsiz uzatish uchun beradi (2-rasm).



a)

b)

<u>Yozib olish kanallari soni</u>	128
<u>ADC namuna darajasi</u>	1 kS/s
<u>ADC qarori</u>	15 bits
<u>Kirish maydoni</u>	100 mVpp
<u>Shovqin qavati</u>	1.65 μ Vrms
<u>Simsiz uzatilgan kanallar soni</u>	96
<u>Simsiz ma'lumot uzatish tezligi</u>	2 Mbps
<u>RSV o'lchamlari</u>	3.3 sm x 3.56 sm
<u>Og'irligi (w/ battery)</u>	6.62g (17.18g)
<u>Zaryadlash muddati</u>	11 soat

2-rasm. a) Muhim bloklari izohlangan biosignal simsiz olish qurilmasi, b) Simsiz biosignal olish qurilmasining texnik xususiyatlari

Ikkita maxsus neyromodulyatsion IC (Cortera Neurotechnology, Inc tomonidan NMICs) 128 ta yozuvni kichik iz bilan ta'minlaydi va SoC FPGA 166 MGts chastotali ARM CortexM3 protsessoriga ega (SmartFusion2 M2S060T, Microsemi) asosiy modul yig'ish ma'lumotlari sifatida ishlaydi. Raqamli raqamlangan ma'lumotlar 2,4 gigagertsli kam energiyali radio orqali (nRF51822, Shimoliy yarimo'tkazgich) tayanch stantsiyaga uzatiladi. Ma'lumotlar, qurilmani sozlash, mavzuni o'rgatish, ma'lumotlarni vizualizatsiya qilish va saqlash va tasniflashni amalga oshirish uchun matnli GUI asosida ishlaydigan noutbukga ulangan simsiz tayanch stantsiyaga uzatiladi.

Imo-ishoralarni aniqlashning qat'iyiligi va ishonchligi EMG asosidagi IMA loyihalashda katta qiyinchiliklardan biri hisoblanadi. Shuning uchun EMG-ga asoslangan imo-ishoralarni tasniflash tizimini moslashuvchan yuqori zichlikdagi elektrod qatorini, maxsus biopotensial olish qurilmasini va Neyron tarmoq algoritmini birlashtirdik. Katta maydonni qamrab olish va zich sensorlar oralig'i aniq joylashishni talab qilmasdan, mushaklarning etarli darajada qoplanishini ta'minlaydi. Bundan tashqari, simsiz va ixcham signallarni olish qurilmasi qulaylik va foydalanish qulayligini ta'minlaydi. Va nihoyat, ko'p o'lchovli hisoblash algoritmi bir necha sessiyalar davomida sezilarli darajada buzilmasdan yuqori tasniflash aniqligiga erishadi va minimal ma'lumotlardan foydalangan holda o'qitilishi mumkin.

Adabiyotlar

1. S. Benatti, B. Milosevic, E. Farella, E. Gruppioni, and L. Benini, “A prosthetic hand body area controller based on efficient pattern recognition control strategies,” *Sensors*, vol. 17, no. 4, p. 869, 2017.

2. X. Zhang, X. Chen, W.-h. Wang, J.-h. Yang, V. Lantz, and K.-q. Wang, “Hand gesture recognition and virtual game control based on 3D accelerometer and EMG sensors,” in *Proceedings of the 14th international conference on Intelligent user interfaces*. ACM, 2009, pp. 401–406.

СРАВНЕНИЕ МОДЕЛЕЙ ОБЛАЧНЫХ УСЛУГ ПО РАЗНЫМ КРИТЕРИЯМ

Ш. А. Абатов.¹, Ж. Ж. Сатторов²

¹Ассистент Самаркандский филиал Ташкентского университета информационных технологий имени Мухаммада ал-Хоразмий

²Студент Самаркандский филиал Ташкентского университета информационных технологий имени Мухаммада ал-Хоразмий

Облачные вычисления нужны организациям вне зависимости от типа, размера и отрасли. Облако можно использовать для самых разных целей, включая резервное копирование данных, аварийное восстановление, разработку и тестирование ПО, анализ больших данных, для систем электронной почты, виртуальных рабочих столов, а также интернет-приложений, ориентированных на клиентов. Так, компании в сфере здравоохранения используют облако, чтобы сделать разработку планов лечения для пациентов более индивидуальной. Компании в сфере финансовых услуг применяют облако в качестве основы для систем обнаружения и предотвращения случаев мошенничества в режиме реального времени. Разработчикам видеоигр облако необходимо, чтобы иметь возможность предоставлять онлайн-игры пользователям по всему миру.

IT-услуги тоже могут оказываться по такой схеме. Когда клиент не несёт капитальных затрат, а платит только пока использует сервис. Например, писатель не устанавливает текстовый редактор на компьютер, а открывает его в браузере. Или компания не организует дата-центр, а арендует вычислительные мощности у облачного провайдера. В таком случае программа или инфраструктура предоставляются как сервис.

Для обозначения такой модели услуг принято определение XaaS или “всё как сервис” (Anything-as-a-service). Под него подпадают все услуги, которые оказываются через интернет и с применением облачных вычислений. “X” в этой аббревиатуре обозначает неизвестную переменную, как в уравнении. Если как сервис предоставляется инфраструктура, то вид услуг называется IaaS, если платформа для разработки – PaaS, если софт – SaaS.

IaaS, PaaS и SaaS – это основные модели предоставления облачных услуг.

- 1) в IaaS клиент получает только инфраструктуру,
- 2) в PaaS – инфраструктуру и подготовленное для разработки приложений ПО,
- 3) в SaaS – готовое работающее в облаке приложение.

Traditional On-Premises IT	Colocation	Hosting	IaaS	PaaS	SaaS
Данные	Данные	Данные	Данные	Данные	Данные
Приложения	Приложения	Приложения	Приложения	Приложения	Приложения
Базы данных	Базы данных	Базы данных	Базы данных	Базы данных	Базы данных
Операционная система	Операционная система	Операционная система	Операционная система	Операционная система	Операционная система
Виртуализация	Виртуализация	Виртуализация	Виртуализация	Виртуализация	Виртуализация
Физический сервер	Физический сервер	Физический сервер	Физический сервер	Физический сервер	Физический сервер
Сети и хранилища	Сети и хранилища	Сети и хранилища	Сети и хранилища	Сети и хранилища	Сети и хранилища
Дата-центр	Дата-центр	Дата-центр	Дата-центр	Дата-центр	Дата-центр

Организует провайдер
 Организуете вы

1-таблица. Разница между on-premise, IaaS, SaaS и PaaS по классификации

IaaS – инфраструктура как сервис

Для организации работы с информацией и доступа в сеть компании нужно обеспечить хранение и доступ к данным. Нужна инфраструктура – серверное и сетевое оборудование, помещение для его размещения (дата-центр или серверная комната), специалисты для настройки и обслуживания. Организовывать собственную инфраструктуру дорого и долго.

PaaS – платформа как сервис

Чтобы создать программное обеспечение, нужно другое программное обеспечение. Нужна платформа – среды разработки, средства для развертывания, базы данных, библиотеки машинного обучения. Готовые приложения надо где-то размещать. Организовывать всё это самому дорого и долго.

Чтобы сэкономить, можно воспользоваться облачной средой разработки (онлайн-IDE), а готовые программы разместить на хостинге приложений с поддержкой всех необходимых служб и сервисов. Такие услуги называются PaaS.

SaaS – софт как сервис

Софт – это знакомые всем программы. Для печати текста, отправки почты, создания иллюстраций. Но это еще и программы для работы внутри компании: CRM, ERP и другие системы.

Раньше пользователи покупали эти программы и устанавливали каждый на свой компьютер. Теперь достаточно открыть приложение в браузере. Это и есть SaaS.

Хороший пример технологии PaaS представляет сервис Microsoft Azure, с помощью которого бизнес может создавать собственные приложения на базе Windows и Linux.

О чём говорят эксперты

Глобальные общедоступные облачные службы, ежегодный рост и доля рынка. Исследование крупнейшего консалтингового предприятия Gartner позволило не только проанализировать текущее состояние дел, но и спрогнозировать развитие отрасли на ближайшие годы. В 2018 году общие затраты частных и корпоративных пользователей на облака достигли 196,7 млрд. долларов, а к 2021 по расчётам экспертов эта цифра будет вдвое выше.

Специалисты Gartner отмечают, что облачная сфера бизнес-процессов (BPaaS), менеджмента и безопасности достигла капитализации в 50 млрд. долларов, и тренд роста сохранится в ближайшие годы. Одним из самых крупных остаётся сегмент SaaS – к 2021 году на эти технологии во всём мире будет приходиться не менее 45% софтверных расходов всех компаний (табл. 2).

	2018	2019	2020	2021	2022
Cloud Business Process Services (BPaaS)	41.7	43.7	46.9	50.2	53.8
Cloud Application Infrastructure Services (PaaS)	26.4	32.2	39.7	48.3	58.0
Cloud Application Services (SaaS)	85.7	99.5	116.0	133.0	151.1
Cloud Management and Security Services	10.5	12.0	13.8	15.7	17.6
Cloud System Infrastructure Services (IaaS)	32.4	40.3	50.0	61.3	74.1
Общий доход	196.7	227.8	266.4	308.5	354.6

Таблица 2: Доход от услуг публичного облака по всему миру (в млрд. Долларах)

Литература

1. Исследование компании IDC [Электронный ресурс]. URL: <https://www.idc.com/getdoc.jsp?containerId=prUS44024618>

2. Соболев А.Ю. Современное состояние и перспективы развития облачных технологий [Электронный ресурс]. URL: <https://scientificmagazine.ru/images/PDF/2017/18/sovremennoe.pdf>

3. Исследование консалтингового предприятия Gartner [Электронный ресурс]. URL: <https://www.gartner.com/en/newsroom/press-releases/2019-11-13-gartner-forecasts-worldwide-public-cloud-revenue-to-grow-17-percent-in-2020>

4. Что такое облачные вычисления? [Электронный ресурс]. URL: <https://aws.amazon.com/ru/what-is-cloud-computing/>

TIBBIY XIZMATLARNI KO'RSATISH SOHASIDA AXBOROT TEKNOLOGIYALARINI QO'LLASH

B.M. Mirsaidov.¹, A.A. Toshev²

¹Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti
Samarqand filiali assistenti

²Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti
Samarqand filiali talabasi

Sog'liqni saqlash sohasida sifatli tibbiy xizmat ko'rsatishda samarali axborot kommunikatsiya texnologiyalari va zamonaviy innovatsion mexanizmlar lozim darajada qo'llanilishi kerakligi bugungi kunda muhim ahamiyatga egadir. Tibbiyot sohasida o'z yechimini kutayotgan dolzarb masalalardan biri – rivojlangan mamlakatlarda keng tarzda qo'llanilayotgan telemeditsina institutini joriy etish, shuningdek, aholiga, ayniqsa chekka qishloqlardagi fuqarolarga qulay sharoitlarni ta'minlashda “elektron poliklinika” tizimini keng joriy etish hisoblanadi.

Kundalik hayotda ishimiz tez-tez tushishi mumkin bo'lgan sohalar – poliklinika, bank va boshqa muassasalarga borganda uzoq navbat kutish odamlarni qiynayotgan muammolardan sanaladi.

Elektron navbat dasturi bemorlarni yagona elektron ro'yxatga olish va internet tarmog'i orqali shifokor qabuliga yozilishda ko'maklashadi. Hozirgi kunda fuqarolarning yagona tibbiy kartasi yaratilmoqda.

Tibbiyot muassasalarining kutish zalida o'rnatilgan monitorlar orqali har kim navbati kelganini kuzatib turish uchun qulay sharoitlar yaratilmoqda. va Shifokorlar xonalari zamonaviy kompyuter tizimlari bilan ta'minlanib, lokal-hisoblash tarmoqlariga ulanilmoqda. Endilikda qaysi ixtisoslikdagi shifokor nechanchi xonada qabul qilishi, ish vaqti va qabul kunlari bilan tanishish mumkin. SHifokor qabuli ham telefon orqali, ham uydan chiqmagan holda elektron tarzda amalga oshirilishi mumkin.

Yangi xizmat turi poliklinika hududida yashovchi aholiga ro'yxatdan o'tib, respublikamizning barcha tibbiyot muassasalarida o'zining kasallik varaqalaridan elektron tarzda foydalanish imkoniyatini beradi, Mazkur dastur asosida endilikda fuqarolar poliklinikada faoliyat yuritayotgan shifokorlar qabuliga onlayn tarzda navbat talonini olishlari mumkin. Yana bir qulaylik, bemor shifokor qabuliga oldindan navbat olmay kelgan bo'lsa, shu yerning o'zida elektron tarzda navbatda turadi. Buning uchun har bir tashrif buyuruvchi maxsus o'rnatilgan qurilma orqali o'z tartib raqamini olib, monitorda navbati qachon kelishini kuzatib boradi. Endi onlayn tizim orqali shifokor qabuliga yozilib, belgilangan vaqtda bemorlar ko'rikdan o'tishlari mumkin.

Bu aholiga shifokor qabuliga internet orqali yozilish imkoniyatini yaratdi. Shifokor qabuliga kelgan bemor uchun ham shu yerning o'zida elektron navbat olishi mumkin.


Demak, bemorning shifokor qabuliga kirish vaqti aniq. Endi u eshik oldida kutib o'tirishiga yoki navbat talashib asabini buzishiga hojat yo'q. U boshqa

ishlarini qilib yoki boshqa mutaxassislarga uchrab, qaytib kelib o'z vaqtida shifokor huzuriga kiradi.

Tizim qanday foydalanish to'g'risida ma'lumotlar navbat bandi orqali tanishishimiz mumkin. Bu jarayon orqali bemorlarlar o'zlarining zaruriy savollariga javob topishlari mumkin.


Bu tizim bilan ishlash juda oddiy bo'lib, har qanday foydalanuvchi o'ziga kerakli bo'lgan shifokor qabuliga online navbat uchun buyurtma berishi mumkin. Buning uchun quyidagi qadamlar amalga oshiriladi.

Foydalanuvchi F.I.Sh ma'lumotlari to'ldiriladi va kerakli bo'lgan shifokor tanlanadi.



1-rasm. Shifokor tanlash.

Tanlangan shifokorning qabul vaqti tanlanadi. Tizim ushbu shifokorning qabul kunlarini va qabul vaqtlarini online ravishda foydalanuvchiga ko'rsatadi.



2-rasm. Shifokor qabul kunini belgilash.

Yuqoridagi oynada foydalanuvchi tomonidan tanlangan shifokorning qabul kunlari yaratilgan tizim tomonidan avtomatik ravishda foydalanuvchiga ko'rsatilmoqda.

Shifokor tanlangandan so'ng foydalanuvchi yashash manzili va bog'lanish uchun uyali telefon raqamini kiritishi lozim.



3-rasm. Foydalanuvchi yashash manzili va telefon raqamini kiritish.

Eng so`ngida shifokorga ma`lumot uchun o`zingizni qiynayotgan ya`ni kasalligingiz va sizni bezovta qilayotgan masalalar to`grisida qisqacha murojaat matnini kiritasiz.



4-rasm. Kasallik to`g`risida ma`lumot.

Barcha qatorlar mosligi bo`yicha to`ldirilib yoborish bandi bosiladi.

Agar avvalgi ikki qadam muoffaqiyatli bajarilsa sizning nomingizga shifokor qabuliga navbat yoziladi va yaqin vaqt ichida operator siz bilan telefon orqali bog`lanadi.

Shifokor qabuliga yozilish

Hurmatli, Unarov Ulug bek siz Imomov Donobek Olimjonovich qabuliga 2019-05-29 sanaga yozildingiz. Sizing navbatingiz raqami 1

5-rasm tizimdan foydalanishda navbat olish jarayoni

Foydalanuvchilar o`zining qachon va nechanchi navbatda shifokor qabuliga yozilishi tizim tomonidan ko`rsatiladi.

Ko`rish bo`limi orqali murojaat qilgan foydalanuvchi ism, familyasi, telefon raqami, elektron pochta manzili, navbat buyurtma bergan vaqti, shifokor qabuliga yozilgan vaqti hamda murojaat haqida qisqacha mulohazalari bilan tanishish imkoniyati mavjud.

Foydalanuvchilar tomonidan bizning xizmatlarga onlayn buyurtma berilgan holatlarda admin paneli orqali ma`lumot olish imkoniyati mavjud

Adabiyotlar

1. Кузнецов М.В., Симдянов И.В. РНР. Практика создания Web-сайтов. -2-е изд. перераб. и доп. –СПб.: БХВ-Петербург, 2008. – 1264 с.
2. Муссиано Ч., Кеннеди Б. HTML и XHTML. Подробное руководство, 6-е издание. – Пер. с англ. – СПб: Символ-Плюс, 2008. – 752 с.
3. Глушаков С.В., Жакин И.А., Хачиров Т.С. "Программирование Web-страниц", Изд-во "Фолио", М.: 2003г.

ИНТЕЛЛЕТУАЛ МУЛОҚОТ ТИЗИМЛАРИ АСОСИДА СЎРОВНИ ШАКЛЛАНТИРИШ ЗАРУРИЯТИ

Б.Б. Мўминов¹, У.Б. Бекмуродов²

¹Мухаммад ал-Хоразмий номидаги Тошкент ахборот технологиялари университети техника фанлар доктори,

²Мухаммад ал-Хоразмий номидаги Тошкент ахборот технологиялари университети докторанти.

Бугунги кунда рақамли маълумотларнинг ўсиши кўплаб амалий ва техник масалаларни келтириб чиқармоқда. Шунингдек, рақамли технологиялар ва мажмуаларини жамиятларда кенг фойдаланиши “маълумотларга интел-лектуал ишлов бериш”нинг анъанавий, паралел ва тақсимланган усул ҳамда алгоритмларини амалиётга жорий қилиш масалаларига бўлган эҳтиёжи ортиб бормоқди. Маълумотларни йиғиш, сақлаш, ишлов бериш ва излаш масалалари учун модел, усул, алгоритм ва инструментал дастурий таъминот, кутубхоналарни яратиш ва жорий қилиш долзарб масалалардан ҳисобланмоқда.

Ахборотга бўлган эҳтиёжни қаноатлантириш, билимларни ўзлаштириш ва ўрганиш учун маълумотларни излаш масаласида бир қатор муаммолар мавжуд. Улар:

1. Катта ҳажмдаги маълумотлари базаларининг пайдо бўлиши. Масалан, Scopus (<https://scopus.com> , Голландия), Web of Science (<https://clarivate.com/>), Springer (Люксембург), илмий электрон кутубхоҳа (<http://elibrary.ru>, РФ), “Мактек” (<http://lib.uzedu.uz/>, Ўзбекистон).

2. Маълумот излаш тизимларининг конструктив ёпиқлиги.

3. Структуралашган ва структуралашмаган маълумотлар тузилмаларини жорий қилиш.

4. Маълумотларни излаш учун махсус курсларда ўқиш ва сўровларни яратиш тилини ўрганиш ва фойдаланиш.

5. Ахборотга бўлган эҳтиёжнинг турли туманлиги.

6. Ахборотга бўлган эҳтиёжнинг изоҳлаш ёки сўров шаклида баён қилиш.

7. Ўқувчиларнинг керакли манбаларни таҳлил қилиш тажрибасининг етишмовчилиги ва ҳ.к.

Республикада 10 мингдан ортиқ умумий ўрта таълим мактаблари мавжуд. Ҳалқ таълими тизимида “Ахборот коммуникацион технологияларни жорий қилиш” марказида “Мактаб электрон кутубхонаси” номли амалий лойиҳа жорий қилинди. Лойиҳанинг натижаси бўлган “Мактек” (<http://lib.uzedu.uz/>) тизимини жорий қилингандан сўнг, ўқувчиларнинг керакли электрон ресурсларни излаш учун сўровларни яратиш муаммосига дуч келинди. Яъни ўқувчиларнинг “Мактек” тизимидаги FSV технологиясига асосланган маълумотларни излаш тизимидан (МИТ) фойдаланишда ёрдамчи инструментга зарурият борлиги аниқланди. Бунинг асосий сабабларини қуйидагиларда кўриш мумкин:

1. Мактаб ўқувчиларининг билим даражаси
2. Ўқув ресурсларни мустақил ўрганиш учун содда баён қилинганлиги
3. Ўқув ресурсларни мустақил ўрганишлари учун илмий баён қилинганлиги.
4. Ахборотга бўлган эҳтиёжга маълумотларни таҳлилсиз танлаб олиш лозимлиги
5. Сўровларга мос аниқ ва қисқа ўқув материалларини тақдим қилиш
6. Сўровларни баён қилишдага камчиликлар (хато ёзиш, ҳарфларнинг ўрнини алмаштириш, керакли ресурсни тўлиқ ёки қисман тушунтура олмаслиги, ёки компьютердан фойдаланиш учун етарли даражада кўникманинг бўлмаслиги)

Бу муаммоларни ҳал қилиш учун ўқувчилар ва МИТ орасида интеллектуал мулоқот тизимларни жорий қилиш орқали сўровни шакллантириш масаласини тадқиқ қилиш лозим.

Бу масалани тадқиқ қилиш учун аввало интеллектуал мулоқот тизимлари (ИМТ) асосида сўровни шакллантириш учун масаланинг кўйилишини аниқлаб олиш зарур.

ИМТларини моделлари, усуллари, алгоримларини яратиш назарияси ва амалиёти бўйича тадқиқот ишлари бажариб келинмоқда, жумладан, дунёга машхур компания Yandex нинг “Алиса” номли инструменти, АҚШ ва Японияда эксперт тизимларида, масалан, химик ишлаб чиқариш тизимида Г. Стефанопулос ва Д.Ф.Девис тадқиқотларида, режалаштиришда, таржималарда, формал бўлмаган интеллектуал тизимларда инсон-машина муносабатларида, ИМТда фойдаланиб келинмоқда. ИМТларни қуриш масалаларини Г.В.Рыбиннинг ишларда фойдаланилган.

Умуман олганда интеллектуал тизимларнинг негизини қарор қабул қилиш ва/ёки кўмаклашиш (ҚҚҚ) жараёнлари, усуллари ташкил қилади.

Бу ҚҚҚ жараёнларини қуйидаги 5 гуруҳга бўлиш мумкин

1. Фақат эксперт томонидан амалга оширилади.
2. Экспертнинг вариантларга жавобни олиш орқали
3. Дастлаб эксперт, сўнг машина томонидан амалга оширилади.
4. Махсус эталон ва машина томонидан амалга оширилади.
5. Инсон-машина жуфтлиги томонидан амалга оширилади.

ҚҚҚ жараёнларидаги вазиятлар қуйидаги умумий элементларга эга:

1. Ўзгарувчилар тўплами (эксперт томонидан танланиладиган ва ҚҚҚ кўмаклашадиган). Ўзгарувчилар тўпламини кўп ҳолларда ечим вариантлари ёки вариантлар деб ҳам айтилади.

2. Ўзгарувчилар тўплами (мақсадга йўналтирилган ёки хоҳишга кўра ёки мажбурий ЭТТ) буни кўп ҳолларда шартли ўзгарувчилар (шартли функциялар) деб айтилади.

3. Хар бир шарт ўзгарувчи учун ечим вариантларини сифатини баҳолаш услибиёти (механизими).

Фараз қилайлик ечимлар варианты n ўлчамли ҳақиқий вектор $x = \langle x_1, x_2, \dots, x_n \rangle \in R^n$, шартли ўзгарувчилар ҳам вектор катталиклар каби белгилаб, $p = \langle p_1, p_2, \dots, p_m \rangle \in R^m$ кўринишда берилган бўлсин.

x вектор элементларини конструктив параметрлар, p вектор элементларини ички параметрлар бўлсин.

$\langle x, p \rangle$ - жуфтликни қарор қабул қилиш вазияти, яъни вазият деб белгилаймиз ва унинг маъноси вазиятда - p шартни қаноатлантирувчи x ечим варианты бўлади.

Ҳар бир ечим вариантлари ва шартли ўзгарувчилар учун чегараларни қуйидагича киритамиз:

1. ҳар бир ечим вариантлари учун $\tilde{x}_i \leq x_i \leq \hat{x}_i, i = 1 \dots n$

2. ҳар бир шартли ўзгарувчи учун $\tilde{p}_i \leq p_i \leq \hat{p}_i, i = 1 \dots m$

Бу ҳолда $R^n \times R^m$ фазода тўғри бурчакли ечимлар соҳага $B = X \times P$ эга бўламиз.

Юқоридагидек, ҳар бир вазият учун шартли ўзгарувчи учун шарт функциясини киритамиз $0 \leq g_i(x, p) \leq g^*, 1 \leq i \leq r$. Бундан эса B дан олинган вазиятлар учун қандайдир G соҳа мавжудлигини билдиради.

Конструктив параметр фазосида G соҳанинг проекциясини $G|X$ деб оламиз ва $G|X$ тўплам ечим вариантлари берилган тўплам.

$g_i(x, p)$ функция услуксиз бўлиши ва G соҳада аниқланган, ҳажми нольдан қаттиқ катта бўлиши керак.

Шунингдек, вазият сифатини баҳолаш учун ечим варианты ва шарт ўзгарувчисидан фойдаланиб, мақсад функцияси киритамиз $f_i(x, p), 1 \leq i \leq s$, бу мақсад функцияси B соҳага ва унинг қандайдир қисмига тегишли бўлиши лозим.

Кўп мезонли масалаларда базавий тушунчаси бу Парето оптималлик шартидир. Яъни $\langle x, p \rangle$ вазият Парето бўйича оптимал ҳисобланади. Агар шундай $\langle x^*, p^* \rangle$ вазият мавжуд бўлмаса ҳамда $f_i(x, p) \geq f_i(x^*, p^*)$ барча i лар учун мавжуд бўлмаса ҳам, камида битта мақсад функцияси учун бу қаттиқ ҳисобланади.

Юқорида келтирилган фикр мулоҳазалардан интеллектуал мулоқот тизимларидан сўровларни шакллантиришда энг асосий глобал масалани қуйидагича шакллантириб олинади

Масаланинг қўйилиши. Берилган G соҳада x ечим вариантларидан $f_i(x, p)$ мақсад функциялар тўплами билан қандайдир усул ва/ёки услуб билан мос келувчи сифатига эга бўлган вазият учун энг яхши x вектор, яъни ечим вариантини танлаш.

Хулоса қилиб айтганда, ИМТлари асосида ҚҚҚ орқали фойдаланувчининг сўровини инсон-машина мулоқоти асосида шакллантиришнинг зарурияти ва масаласини ишлаб чиқилди. Бу глобал масалани ечиш учун одатда автоном, интерактив усулларга асосланиб ҳал қилинади.

Адабиётлар

1. Мўминов Б.Б. Маълумотларни излаш тизими / Фан ва технология. –Т. 2016. -210 б.

2. Muminov B.B. FSV technology for information retrieval and presentation in corporated networks / Proceedings of the III Tashkent international innovation forum. Tashkent - 2017. –P. 128-133.

DASTURIY YECHIMLARNI AVTOMATIK TESTLOVCHI TIZIMLAR YORDAMIDA TESTLASH USULLARI

S.S. Abdukarimov.

О‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Ta’lim sifatini nazorat qilish davlat inspeksiyasi Nazorat materiallari bankini shakllantirish va sinovlarni tashkil etish bo‘limi bosh mutaxassisi, s.abdukarimov@tdi.uz

Kompyuterlashtirishning rivojlanishi va axborot kommunikatsion texnologiyalarining qo‘llanilishi O‘zbekiston uchun ustuvor yo‘nalishdir. Bugungi kunda axborotlashtirishning milliy tizimini shakllantirish, jamiyat iqtisodiyoti va hayotining barcha sohalarida zamonaviy axborot texnologiyalarini ommaviy ravishda qo‘llash, jahon axborot jamiyatiga kirish va jahon axborot resurslaridan foydalanish uchun shart-sharoitlarini yaratish zaruratga aylandi. Davlat rivojlanishida axborot kommunikatsion texnologiyalari ahamiyatini anglagan holda Respublika hukumati jamiyatning barcha sohalarida axborot texnologiyalarini keng qo‘llash va axborot jamiyatiga qarab rivojlanishni aktivlashtirish bo‘yicha tegishli qarorlar qabul qilinmoqda.

Joriy asr axborot texnologiyalar asrida dasturlash sohasi rivojlanishning eng yuqori pog‘onasiga yetdi desak mubolag‘a bo‘lmaydi. Kundan kunga dasturlashga qiziquvchilarning o‘rtacha yoshi kichiklashib bormoqda. Bundan ko‘rinib turibdiki bu sohaga bo‘lgan qiziqish kundand-kunga ortmoqda.

Dasturiy yechim to‘g‘riligini avtomatik testlovchi tizimlar ko‘p masalalar yechimlarini qisqa fursatda tahlil qilish imkoniyatini yaratadi. Har bir yechim berilgan masalaning hamma xususiyatlarini aks ettiruvchi testlar to‘plami yordamida tekshiriladi.

Dasturiy yechim to‘g‘riligini avtomatik testlovchi tizim qo‘yilgan dasturiy masalaga mos dasturiy yechimni tekshirishni bir necha usullari mavjud. Ular bilan quyida tanishib chiqamiz.

1. Testlar to‘plamidagi barcha testlarni tekshirish davomida xatolik uchragunga qadar tekshirish.

Bu tekshirish usulida foydalanuvchining dasturiy yechimi barcha holatlarga javob bersa qabul qilinadi aks holda yechim uchun hech qanday ball taqdim etilmaydi.

Ushbu usulda tizim tekshirish natijasida foydalanuvchiga quyidagi natijalardan birini qaytaradi.

qabul qilindi – dastur to‘g‘ri ishlaydi va barcha cheklovlarga muvofiq barcha kerakli sinovlardan o‘tdi. Umumiy holda tizimga yuklangan dasturiy yechim mos masalaning to‘liq yechimi bo‘la oladi;

noto‘g‘ri javob – yuklangan dasturiy yechim tanlangan masalaning to‘liq yechimi bo‘la olmaydi. Bunda kuzatilishi mumkin bo‘lgan xatoliklar, yechim boshqa masalaning yechimi bo‘lishi, qo‘yilgan masalaning ba‘zi holatlari uchun ishlashi yoki dasturiy yechim yordamida chiqarilgan ma‘lumotlarning formati masala shartiga mos kelmasligi;

vaqt limiti yuqori – tizimdagi barcha masalalar uchun dasturiy yechimning javob qaytarish vaqti ko‘rsatilgan bo‘lib, jo‘natilgan dasturiy yechim ushbu masalada ko‘rsatilgan vaqt chegarasidan ko‘proq vaqtda ishlashi yoki cheksizlik holatining aniqlanishi. Bu holatda asosan dasturda samarasiz yechim yoki algoritmik xato kuzatiladi;

taqdim etishdagi xatolik – berilgan masala uchun chiquvchi ma‘lumot ma‘lum bir shablonda ifodalanishi kerak bo‘lib yuklangan dasturiy yechim ushbu formatga mos bo‘lmagan holatda yechimni ifodalashi. Bu holatda kuzatilishi mumkin bo‘lgan xatoliklarning aksariyati foydalanuvchi fayldan foydalanilgan bo‘lsa chiqish fayli nomi noto‘g‘ri bo‘lishidir;

kompilyatsiyada xatolik – kompilyatsiya natijasida bajariladigan fayl yaratilmadi. Ushbu holatda mumkin bo‘lgan xatoliklar dasturda sintaksis xatolik mavjudligi, java dasturlash tilida “Main class”dan boshqa classdan foydalanilganligi yoki boshqa dasturlash tilini belgilagan holatda yechimni tizimga yuklanganligidir;

xotira limiti yuqori – tizimdagi barcha masalalar uchun dasturiy yechimning ishlash jarayonida xotiradan foydalanish chegarasi ko‘rsatilgan bo‘lib, jo‘natilgan dasturiy yechim ushbu masalada ko‘rsatilgan xotira chegarasidan ko‘proq xotiradan foydalangan holda ishlashining aniqlanishi. Bu holatda asosan dasturda samarasiz yechim yoki algoritmik xato kuzatiladi;

bajarish vaqtida xatolik – Tizim foydalanuvchiga bunday javobni quyidagi holatlardan birida taqdim etadi. Dasturda massivning mavjud bo‘lmagan elementiga murojaat qilish, nolga bo‘lish va h.k. C ++ dasturlash tilida "return 0" so‘zi bilan tugamaydi;

kompilyatsiya jarayoni – yechimni kompilyatsiya qilish jarayoni va bajariladigan faylni yaratish vaqti;

tekshirish jarayoni – yuklangan dasturiy yechimni testlar bazasida mavjud testlar uchun uni ishlatish orqali sinovdan o‘tkazish jarayoni ketmoqda. Bu holatda tekshirish jarayoni oxiriga yetmagan hisoblanadi;

navbat – dasturiy yechim testlanadigan dasturiy yechimlar navbatida yoki tekshirish tizimi vaqtinchalik ishlamaypti.

2. Testlar to‘plamidagi barcha testlarga tekshirish.

Ushbu usulni Informatika va axborot texnologiyalari fani bo‘yicha viloyat va shahar fan olimpiadalarida ishlatish maqsadga muvofiq sanaladi. Bunday usulda masalani tekshirish uchun tayyorlangan barcha testlarni tekshirib chiqiladi va

to‘g‘ri javoblar foiziga mos ball qo‘yiladi. Bu holatdagi tekshirish usulini to‘liqroq holatda tushunish uchun quyidagi misolni ko‘rib chiqamiz.

Qo‘yilgan masala uchun “A” ball, bu masalani tekshirish uchun tayyorlangan testlar to‘plami bazasidagi testlar soni “B” ta, foydalanuvchining dasturiy yechimi testlar bazasidagi barcha testlarning “C” tasiga to‘g‘ri javob qaytargan bo‘lsa ushbu foydalanuvchi to‘plagan ball quyidagi formula yordamida hisoblanadi.

$$S = A \cdot \frac{C}{B}, \text{ bu yerda } S - \text{ talabaga ushbu masala uchun qo' yilgan ball}$$

3. Masala shartiga muvofiq qiymatlar chegarasining o‘zgarishiga qarab qismlarga ajratish.

Bunday usulda tekshirish uchun masala qiymatlar chegarasi bo‘yicha bir necha guruhlarga bo‘linadi. Har bir qism masalaning qiyinlik darajasiga qarab har biri uchun alohida ball berib olinadi. Barcha ballar yig‘indisi umumiy masala uchun berilgan ball hisoblanadi. Har bir qism uchun testlar to‘plami alohida hosil qilinadi. Ushbu holatdagi masalalarni tekshirish va baholash uchun yuqorida ko‘rib chiqilgan ikki usuldan biri tanlanadi.

4. Ko‘p yechimli masalalarni tekshirish.

Ma‘lum turdagi masalalar mavjudki bu masalalar uchun javoblar yagona hisoblanmaydi, ya‘ni masala yechimi(javobi)ni qanoatlantiruvchi qiymatlar bir nechta bo‘ladi. Ushbu turdagi masalalarni tekshirish uchun dasturiy yechim to‘g‘riligini avtomatik testlovchi tizimda qo‘shimcha dastur mavjud bo‘lib ushbu dastur foydalanuvchi yechimi hosil qilgan javobni to‘g‘riligini tekshirishdan iborat. Bunday turdagi masalalarni baholash uchun yuqorida ko‘rib chiqilgan usullardan biri tanlanadi.

5. Interaktiv masalalarni tekshirish.

Bu turdagi masalalar birinchi navbatda juda qiziqarli masalalar turiga kiradi. Interaktiv masalalar bu holat o‘zgarishiga qarab dasturiy yechim o‘z holatini o‘zgartirishi kerak bo‘ladi. Bunday yechimlarni dasturiy yechim to‘g‘riligini avtomatik testlovchi tizim tekshirishi uchun testlar bazasi shakllantirilmaydi. Chunki dastur to‘g‘ri ekanligini qo‘shimcha tekshiruvchi dastur yordamida aniqlanadi. Boshqacha qilib aytganda bunday turdagi masalalarni tekshirishni dasturlar jangi sifatida qarash mumkin.

Adabiyotlar

1. S.S. Abdulkarimov, «Dasturiy yechim to‘g‘riligini avtomatik testlovchi tizimlar yordamida darslarni interfaol tashkil etish(C++ da dasturlash fani misolida)» Bitiruv malakaviy ishi, 2017.

2. «Школа программиста» [В Интернете]. Available: https://acmp.ru/article.asp?id_text=120.

3. de Boer, R. H., & de Campos, C. P. (2019). A retrospective overview of international collegiate programming contest data. Data in Brief, 25 doi:10.1016/j.dib.2019.104382

О КОМПЬЮТЕРНОЙ ЛИНГВИСТИКЕ

Ч.С. Хошимова.¹, И. Каримова.¹, К.А. Ибрагимова²

¹ Ташкентский Государственный технический университет.

² Ташкентский университет информационных технологий имени Мухаммада ал-Хоразмий старший преподаватель, k.ibragimova@mail.ru

Статья посвящена применению компьютерных технологий в преподавании иностранных языков (ИЯ) студентам вузов с целью формирования коммуникативной компетенции будущих специалистов. Описана интеграция новых информационных технологий (НИТ) и традиционных подходов при формировании у учащихся основных навыков речевой деятельности. Революционный переворот, который осуществили новые информационные технологии (НИТ), уже дал свои результаты. Не осталось практически ни одного крупного города, не использующего компьютеры, глобальные или локальные компьютерные сети для различных хозяйственных, экономических, финансовых и прочих административных нужд. Практически все учебные учреждения осознают, что будущее образования, развитие всех его составляющих тесно связано с НИТ. На сегодняшний день в преподавании учебных дисциплин складываются тенденции, соответствующие нынешнему уровню технического прогресса. Эффективность применения ИТ на занятиях по английскому языку уже не подлежит сомнению. Ученые отмечают, что, чем больше систем восприятия задействовано в обучении, тем лучше и прочнее усваивается материал. Активное же внедрение ИТ в учебный процесс приумножает дидактические возможности, обеспечивая наглядность, аудио- и видео поддержку и контроль, что в целом способствует повышению уровня преподавания.

В практике обучения ИТ называют все технологии, использующие специальные технические информационные средства (компьютер, аудио, кино, видео). Исследования ученых показывают, что в настоящий момент компьютер является приоритетным информационным средством, который позволяет осуществлять новые качественные изменения в системе образования, включая и обучение ИЯ. Сегодня, учитывая большую и серьезную увлеченность учащихся компьютерными технологиями, преподаватель может использовать эту возможность как средство развития интеллектуальных и творческих способностей на уроках ИЯ. Компьютерные технологии являются мощным инструментом мотивации, а при умелом использовании – эффективным инструментом развития личности студента, уровня его образованности, эрудиции, прикладных умений и навыков и т.д. Как показывает опыт, ИЯ представляет благодатное поле для формирования и развития личности человека. При обучении ИЯ (в частности, английскому) развивается интеллект, воображения, внимание, наблюдательность, речемыслительные способности и креативность. Современность предъявляет все более высокие требования к обучению практическому владению ИЯ в повседневном общении и профессиональной сфере. Объем информации

растет, и часто рутинные способы ее передачи, хранения и обработки являются неэффективными. Использование ИТ раскрывает огромные возможности компьютера как средства обучения. Компьютерные обучающие программы имеют много преимуществ перед традиционными методами обучения. Они позволяют тренировать различные виды речевой деятельности и сочетать их в разных комбинациях, помогают осознать языковые явления, сформировать лингвистические способности, а также создавать коммуникативные ситуации, автоматизировать языковые и речевые действия. В мультимедийных обучающих программах по английскому языку используются различные методические приемы, позволяющие проводить ознакомление, тренировку и контроль. Помимо использования мультимедийных обучающих программ компьютер является незаменимым помощником для подготовки и проведения тестирования, мониторинга учебного процесса, подготовки дидактических материалов, использования ресурсов и услуг Интернета для аудиторной и самостоятельной работы, а также проектной деятельности студентов. С использованием новейших разработок в области обучения ИЯ, основанным на использовании технологии мультимедиа, процесс обучения перешел на качественно новый уровень – теперь можно с уверенностью сказать, что даже в условиях искусственного общения можно смоделировать ситуации реальной коммуникации. Современный этап развития лингвистики характеризуется вниманием к разработке проблем, относящихся к прикладному языкознанию, в частности к той его области, которая называется компьютерной лингвистикой. Сфера исследований теоретической лингвистики актуально ориентирована и на использование компьютеров для решения разных научных и практических задач, связанных с изучением английского языка.

CNN – қатламларга асосланган нейрон тармоғи бўлиб, тармоқнинг иш бажариш самарадорлигини ортиши аниқлиги унинг ўзига хослигини ортишига тўғри пропорционал. Аммо, архитектурани ишлаб чиқишда қатламлар сони ёки улар орасидаги боғлиқликка алоқадор муайян назария ёки қатъий формула бўлмаганлиги учун талаб этилган натижани олиш учун турли хил қатламларнинг комбинацияларининг натижалари таҳлил қилинди.

Кардиомиопатия ҳолатида юрак деворлари ингичкалашганлиги ёки қаттиқлашганлиги, юракнинг электр сигналлари ва касаллик орасида тўғридан тўғри боғлиқликни топиш мушкул. Бундай муаммонинг ечими сифатида аксарият тадқиқотчилар 3 ўлчамли MRT ва ЭХО КГ тасвирларидан фойдаланган ҳамда Q ва T тўлқинларининг ўзгаришларини таҳлил қилган. Ўрганиш натижасида қатор касалликнинг аломатлари аниқланган, жумладан, чап қоринча гипертропиясидаги (75%-90%), LBVV (25%) ва МИ касалликларидаги белгиларга ўхшаш Q тўлқин, юқори вольт ва катта манфий

T тўлкини асосий белгилардан (14). Одатий ЭКГ тасвирлари ГKM борлигини аниқ кўрсатмада, баъзида (2%) касалликнинг илк босқичларида белгиларини аниқлаш мумкин.

Раҳман ва бошқалар 12 каналли ЭКГ тасвирларидан фойдаланиб ГKM касаллигини бошқа касалликлардан ажратиш бера оладиган алгоритм яратишди. Бунинг учун муаллифлар RF (random forest) ва SVM (support vector machine) усулларидан фойдаланган, ва бунинг учун улар 504та белгиларини ажратиш олган. Тажрибада олинган юқори натижалари SVM усулидан кўра RF усулида юқори бўлган: аниқлик кўрсаткичи 0.84, ўзига хослик даражаси 0.93 ва тестлаш аниқлигининг F-ўлчов даражаси 0.86га етган.

Мирела Оврейу ва бошқалар, 5-каналли ЭКГ тасвиридаги P тўлқинни таҳлил қилиш ва керакли белгиларни ажратиш олиш орқали кардиомиопатияга автоматик ташхис қўйиш алгоритминини ишлаб чиққан. Улар таклиф этиган усулда 55 та беморнинг узун вақтли маълумотларидан фойдаланган. Натижада таснифлашда аниқликнинг ўртача даражаси 62%га етган.

Рабия Бегум ва бошқалар кардиомиопатияни соғломдан ажратиш бериш алгоритминини ишлаб чиқишди. Таклиф этилган алгоритм SVM ва AAR усулларинини ишлаб чиқишда ва мос равишда 86% ва 95% натижага эришди. Улар PR, QRS, QT ва RR интерваллардаги сигналларни ташхис қўйиш учун асосий белги сифатида ажратиш олди. Тажрибада неччи каналли ЭКГ маълумотидан фойдаланилганлиги таъкидлаб ўтилмаган.

Юқорида таъкидланганидек, тажрибамизда маълумотлар базаси файллари CNN тармоғида ўқитилди. CNN – қатламларга асосланган нейрон тармоқ бўлиб, тармоқнинг иш бажариш самарадорлигини ошириш аниқлик ва ўзига хослик даражасининг ошишига тўғри пропорционалдир. Аммо, архитектурани ишлаб чиқишда қатламлар сони ёки улар орасидаги боғлиқликка алоқадор муайян назария ёки қатъий формула бўлмаганлиги учун талаб этилган натижалар олишда турли хил қатламларнинг комбинацияларининг натижалари таҳлил қилинди.

Тажриба давомида қатлам филтрларининг сонини қамайтириш билан ҳам юқори аниқликка эришилди. Таклиф этилаётган тармоқ архитектурасининг яна бир муҳим жиҳати MaxPooling қатлампидан фойдаланмади, сабаби дастлаб тажрибада MaxPooling қатлампидан фойдаланилган ҳолатда натижалар талабга мувофиқ бўлмади. Тармоқда ўқитиш учун кирувчи тасвирни ҳажми 656x875 ўлчамидан 75x224 ўлчамга ўзгартирганида тасвирнинг сифати пасайганлиги натижасида MaxPooling қатлампидан одатда зарур маълумотлар йўқолиши сабабли, бу қатлампдан фойдаланилмади ва натижа яхшиланди. Шунингдек, тасвир формати JPG форматда бўлганлиги ва ҳажми сиқилганда сифати пасайиши аниқланди. Fully-connected қатлампидан фойдаланилгани учун иш бажариш самарадорлиги кескин пасайиб кетганлиги сабабли архитектурада фақат 1та fully-connected қатлампидан фойдаланилди. Тажриба натижасида

самарадорлиги талабга мувофиқ бўлган архитектуранинг қатламлари ва параметрлари 1-жадвалда келтирилган.

Одатда тармоқда ўқитиш жараёни давомида керакли маълумотлар билан бирганликда шовкинлар ҳам ўрганилади. Ўраганиш жараёнида CNN тармоғи шовкинларни алоҳида белги сифатида таҳлил қилади, аммо тестлаш жараёнида тасвирдаги янги маълумотларни ажратиб олиш даражаси пасаяди. Натижада ўқитиш жараёнидаги аниқлик юқори натижани тақдим этсада, тестлаш жараёнидаги аниқлик пасайиб кетиши мумкин. Бунинг учун у Лосс функциясини ўзгартиради. Лосс функцияси ҳақиқий қиймат ва тармоқ томонидан тахмин қилинаётган қийматлари айирмасининг квадратлари йиғиндисидир.

1-жадвал

Архитектура параметрлари

№	Қатлам номи	Параметрлари
1	Кириш қатлами	75x224x1
2	Convolution 2D	Фильтр ўлчами (2:3), сони 256, қадам ўлчами (2:2)
3	Batch Normalization	
4	Relu	
5	Convolution 2D	Фильтр ўлчами (1:3), сони 8, қадам ўлчами (1:1)
6	Batch Normalization	
7	Relu	
8	Convolution 2D	Фильтр ўлчами (1:3), сони 2, қадам ўлчами (2:2)
9	Batch Normalization	
10	Relu	
11	Fully Connected	2
12	Softmax	
13	Output classification	

$$L(x, y) = \sum_{i=1}^n (y_i - f(x_i))^2$$

$$f(x_i) = h_{\theta}x = \theta_0 + \theta_1x_1 + \theta_2x_2^2 + \theta_3x_3^3 + \theta_4x_4^4$$

Аниқланиши керак бўлган белгиларни кўпайиши билан модел ҳам мураккаблашади ва барча маълумотли нуқталарни қамраб олишга ҳаракат қилади. Агар θ_3 ва θ_4 оғирликларни кичрайтириш ва нолга яқинлаштириш билан моделни янада соддалаштириш мумкин.

Максимум даврлар сони 10та қилиб белгиланди, сабаби тармоқни ўқитиш аниқлигини 100%га эришиши учун 10та давр етарли бўлди.

Фойдаланилган адабиётлар

1. U.R.Acharya ва бошқалар “Automated detection and localization of myocardial infarction using electrocardiogram”, 2016

2. Ulas Baran Baloglu va бошқалар “Classification of myocardial infarction with multi-lead ecg signals and deep CNN”, 2019.

МАСОФАВИЙ ТАЪЛИМНИНГ ХУСУСИЯТЛАРИ

Т.Ж. Оқназаров.

СамВХТХҚТМОҲМ ўқитувчиси,
tulqin_81@inbox.uz

Масофавий таълим соҳасидаги мутахассисларнинг нуқтаи назари хилма-хил эканига қарамасдан деярли барча тадқиқотчилар масофавий таълимнинг қуйидаги хусусиятларини алоҳида ажратиб кўрсатади:

- Мослашувчанлик - таълим жараёнининг вақт, жой ва таҳсил давомийлигидан мустақиллиги. Масофавий таълим тизимида таҳсил олувчилар кўпинча маърузалар ва семинарлар кўринишидаги доимий машғулотларга қатнамайди, ўзлари учун қулай вақтда, қулай шароитда ишлашади. Таҳсил олувчи билим олиши жараёнини зарур бўлган вақт зайлида ташкил қилиш имкониятига эга. Бу унга танланган курслар бўйича керакли синовларни олиш ва предметни ўзлаштириш учун асқотади.

- Модуллилиқ - масофавий ўқитиш мазмуни модулларда ифодаланади, бу эса ўқувчиларга ўзларининг таълим эҳтиёжларига мувофиқ индивидуал таълим траекториясини яратишга имкон беради.

- Рентабеллилиқ - иқтисодий самарадорлик масофадан ўқитишни амалга оширадиган (коммунал хизматлар ва майдонларни сақлашга харажатлар камайиши ва бошқаларни) таълим муассасаси ҳамда таҳсил олувчиларнинг (юриш-туриш, турар жой ва ҳоказо учун харажатларнинг йўқлиги) харажатлари камайиши эвазига намоён бўлади. Дунё таълим тизимларининг ўртача баҳоси кўрсатишича, масофавий таълимга анъанавий таълим турларига қараганда 50% камроқ маблағ сарфланади. Маҳаллий нодавлат масофавий таълим марказларининг тажрибаси шуни кўрсатадики, уларнинг бир мутахассисни тайёрлашга кетадиган харажатлари тўлиқ ҳажмдаги мутахассисларни тайёрлаш бўйича кетадиган харажатларнинг тахминан 60% ни ташкил этади. Таълимнинг нисбатан арзонлиги мазмунни кўпроқ тўпланган ҳолда тақдим этиш ва унификациялашни қўллаш, масофавий таълим технологияларининг кўплаб таҳсил олувчиларга йўналганлиги ҳисобига, шунингдек, мавжуд ўқув майдонлари ва техник воситалардан, масалан, дам олиш кунлари, самаралироқ фойдаланиш орқали таъминланади.

- Мобиллилиқ - ўқитувчи ва ўқувчилар ўртасида тезкор акс алоқанинг мавжудлиги.

- Кенг қамровлилиқ - кўплаб таълим олувчиларга бир вақтда таълим бериш.

- Технологияга асосланганлик - таълим жараёнида янги ахборот-коммуникацион технологияларидан фойдаланиш.

- Ижтимоий тенглик – таҳсил олувчиларнинг яшаш жойи, саломатлиги молиявий аҳволидан қатъи назар, таълим олиш учун тенг имкониятларга эга экани.

- Интернационаллик - таълим мақсадларига эришиш учун жаҳон ютуқларини экспорт ва импорт қилиш.

- Ўқитувчи ролини ўзгариши - унга билим эгаллаш жараёнини мувофиқлаштириш, ўтилаётган курсни тўғрилаш, индивидуал ўқув дастурини тузиш чоғида маслаҳат бериш, таълим лойиҳаларини бошқариш каби масалалар бўйича вазифалари юкланади. У ўзаро қўллаб-қувватлаш ўқув гуруҳларини бошқаради, касбий жиҳатдан ўз тақдирини белгилаб олишда таҳсил олувчиларга ёрдам беради. Масофавий таълим тизимида одатда таҳсил олувчилар ва ўқитувчининг асинхрон ўзаро ҳамкорлиги корреспондентларнинг манзилларига уларни ўзаро юбориш орқали хабар алмашишни ўз ичига олади. Бу келаётган ахборотни таҳлил қилиш ва мухбирларга қулай вақтда жавоб бериш имконини беради. Асинхрон ўзаро таъсир ўтказиш усуллари электрон почта ёки электрон компьютер тармоғи ҳисобланади.

- Таълим сифатини ихтисослаштирилган ҳолда назорат қилиш - масофали таълим тизимида назорат шакллари сифатида масофавий тарзда ташкил қилинадиган якуний назоратлар, суҳбатлар, амалий машғулотлар, лойиҳа ва дизайн ишлари, экстернат, компьютерли интеллектуал тест ўтказувчи тизимлар ишлатилади. Шунинг таъкидлаш керакки, масофавий таълим сифатини назорат қилиш, унинг таълим стандартларига мувофиқлиги муаммосини ҳал этиш бутун таълим тизимининг муваффақияти учун муҳим аҳамиятга эга.

Шундай қилиб, масофавий ўқитиш таълим жараёнининг асосини таҳсил олувчининг мақсадли йўналган ва назорат қилинувчи мустақил фаолияти ташкил этади. Бунда таҳсил олувчи ўзи учун қулай жойда, индивидуал жадвал бўйича, махсус ўқув қўлланмалар тўплам ва ўқитувчи билан аввалдан келишиб телефон, факс, электрон ёки оддий почта орқали, шунингдек, юзма-юз алоқага киришиш имконияти бўлган ҳолда билим олиши мумкин.

Ўқитувчиларнинг қўшимча касбий таълим тизимида масофадан ўқитишнинг афзалликлари орасида очиқлик, яъни ҳар бир кишига таълим олиш имкониятини таъминлаш; турли даражадаги ўқув дастурларидан фойдаланиш қобилияти; таҳсил олувчиларнинг эҳтиёжларини қондириш; интеллектуал ва маданий билим даражасини ошириш; индивидуал ва табақалаштирилган таълим муаммоларини ҳал қилиш; ўқувчиларнинг турмуш тарзида ўзгаришларга эҳтиёж йўқлиги; ўқитувчиларни тайёрлаш даражасини ошириш имконияти; педагог ходимларнинг етишмаслиги камайиши; ўқув курсининг муддатини қисқартириш.

Шубҳасиз, масофадан ўқитиш, бошқа ҳар қандай таълим шакли каби, бир нечта камчиликларга эга ва улар қуйидагилардан иборат:

• компьютер тармоқлари орқали ижтимоий ўзаро муносабатлар имкониятлари ўқув жараёнида қатнашувчиларнинг бевосита алоқалашуви чоғидаги каби мулоқот сифати даражасига етмайди;

- таълим муассасаларининг анонимлиги;
- таълим мазмунини стандартлаштиришнинг имконсизлиги;
- виртуал бажарилган ишларни баҳолаш мезонларининг етарли даражада ривожланмаганлиги;
- алоқа хизматлари учун қўшимча харажатлар;
- аҳолининг компьютер-телекоммуникация воситаларига пессимистик муносабати;
- таҳсил олувчилар ва ўқитувчининг техник малакасига талабнинг кучайиши.

Шу туфайли ҳам масофавий таълим биринчи навбатда таълим муассасаларида машғулотларга бориш имконига эга бўлмаган, аммо амалиёт, мотивацияси бор ва малака оширишга муҳтож бўлган катта ёшли кишиларга қаратилган.

Анъанавий қўшимча касб таълими тизимида таҳсил олувчилар амалиёт билан конкрет алоқага киришмай билимлар эгаллашади. Масофали ўқитиш катталар томонидан бундай билим ва кўникмаларга эга бўлишни назарда тутаяди, бу эса амалий фаолиятда мажбурий ва кечиктирмасдан қўлланади.

Ҳанузгача масофадан ўқитиш таълимни ташкил этишнинг шакли сифатида тан олинмаган, бу эса масофавий таълим жараёнини амалга оширишни сезиларли даражада қийинлаштиради. Масофавий таълим технология сифатида қуйидагича таърифланади: масофавий таълим технологиялари деганда таҳсил олувчи ва ўқитувчининг билвосита ёки қисман билвосита ўзаро ҳамкорлик қилиши чоғида асосан ахборот ва телекоммуникация технологияларини қўллаган ҳолда амалга оширилувчи таълим технологиялари тушунилади. Бу фикрга қўшилмаймиз, чунки масофавий таълим технология бўлиши мумкин эмас, чунки унинг ўқитиш тизимида ахборот, коммуникация технологияридан ҳам ва педагогик технологиялардан ҳам бирдек фойдаланилади. Шу билан бирга, "масофавий технологиялар" атамасини қўллаш ахборот, коммуникация ва педагогик технологияларни тенглаштиради, бу технологиялар эса ҳар қандай бошқа таълим шаклларида қўлланилиши мумкин". Масофали ўқитиш ахборот, коммуникация ва таълим технологияларини оптималлаштириш имконини беради. Ушбу технологияларнинг комбинацияси ўқувчилар кутган ўқув жараёнининг сифатини таъминлайди, чунки "ҳар қандай технологиянинг заифлиги туфайли ўқув жараёни таҳсил олувчиларнинг комплекс таълим эҳтиёжларини қондириш учун зарур бўлган кучни йўқотади.

Адабиётлар рўйхати

1. Роберт, И. В. Современные информационные технологии в образовании: дидактические проблемы; перспективы использования / И. В. Роберт. – М. : ИИО РАО, 2010. – 140 с.

2. Розина, И. Н. Педагогическая компьютерно-опосредованная коммуникация: теория и практика: монография / И. Н. Розина. – М.: Логос, 2005. – 460 с.

3. Толковый словарь терминов понятийного аппарата информатизации образования / Босова Л.Л., Данилюк С.Г., Касторнова В.А. и др. М. – ИИО РАО, 2006. – 40 с

O'QITUVCHILARNING MASOFAVIY TA'LIM TIZIMIDA KASBIY TEKNOLOGIK KOMPETENTLIGINI SHAKLLANISH DARAJALARI

J.T.Mannabov

Samarqand viloyat xalq ta'limi xodimlarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish hududiy markaz o'qituvchisi
mannabov@umail.uz

So'nggi yillarda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti hamda Vazirlar Mahkamasining qabul qilayotgan Farmon va Qarorlari, Oliy va O'rta maxsus ta'lim vazirligining buyruqlari doirasida masofaviy ta'lim shaklini rivojlantirish asosiy yo'nalishlardan biri hisoblanadi. Ko'rinib turibdiki, ta'lim tizimi xodimlarini malakasini oshirish doirasida ham masofaviy ta'limni tatbiq etish dolzarb ekanligi ikkilanishga o'rin qoldirmaydi.

Zamonaviy Internet texnologiyalaridan foydalangan holda masofadan turib o'qitishning mutlaqo yangi shakli bo'lgan "masofaviy ta'lim"da o'qitishning xususiyatlaridan kelib chiqan holda uning ikkita ajralmas sharti - o'qituvchi va ta'lim oluvchi o'rtasidagi yaqin o'zaro ta'limiy aloqa hamda aniq didaktik konsepsiyaning mavjudligidir.

Mualliflarning fikriga ko'ra, kunduzgi va sirtqi ta'lim o'rtasidagi o'rta pozisiyani egallagan masofadan turib o'qitish o'ziga xos xususiyatga ega, ammo qayd etilgan ikkala ta'limdan ham farqlanadi. Maxsus tuzilgan format tarkibiga o'quv dasturlari, test sinovlari, o'zini o'zi boshqarish, muvofiq tarzda individual ta'limni ta'minlovchi, zaruriy ma'lumotlar va barcha zaruriy vositalar kirishi lozim.

Shu bilan birga L.M. Berdshadskiy va I.G. Krayevskiy ushbu talqinlar bilan rozi emasliklarini bildiradilar, masofadan ta'lim metodi har qanday ta'lim shaklida - masofaviy, kunduzgi, sirtqi va klassik ta'lim olish maqsadiga ega bo'lmagan holda ham o'rinli va samarali ishlatilishi mumkin deb hisoblashadi.

Ushbu olimlarning fikriga ko'ra, axborot texnologiyalari (AT) (axborotni yaratish, saqlash, uzatish va boshqarish bilan bog'liq texnologiyalar) haqli ravishda zamonaviy ta'lim vositasidir, ulardan foydalanish esa – ta'lim oluvchilarga keng imkoniyatlarni taqdim etib, ta'lim samarasini oshiruvchi masofaviy ta'limning yangi metodidir.

Navbatdagi mantiqiy qadam, ularning fikricha, zamonaviy axborot infratuzilmasidan foydalanish va rivojlantirish bilan bog'liq bo'lgan masofaviy o'qitishning boshqa usullarini ishlab chiqish bo'ldi.

Masofaviy ta'limning maqsad va vazifalarini amalga oshirish jarayonini aniqlash uchun yuqorida qayd etilgan mualliflar tegishli shartlardan foydalanishni taxmin qiladilar:

- masofadan ta'limni yengillashtiradigan zamonaviy elektron vositalar, texnologiyalarning o'qituvchida mavjudligi va ta'lim oluvchi uchun o'quv infratuzilmasidan cheksiz foydalanish zaruriy ma'lumotni olish imkoniyatining mavjudligi;

- ta'lim oluvchi va o'qituvchilar o'rtasida yaqin o'zaro bog'lanishning mavjudligi;

- guruhlararo hamkorlikni tashkil etish, zarurat bo'lganda guruh ishlarini masofadan turib ta'minlash.

Shu bilan birga, o'zaro hamkorlik, kerakli ma'lumot almashish masofaviy aloqa vositalari orqali amalga oshiriladi - pochta aloqasidan tortib, o'qituvchi va ta'lim oluvchiga muloqot qilish, matn, nutq va videoni o'z ichiga olgan ma'lumotlardan samarali foydalanish va almashish imkoniyatini beruvchi real vaqt rejimida aloqa vositalarigacha bo'lishim mumkin.

Ko'rib turganingizdek, "masofaviy ta'lim" atamasi mutlaqo yangi ta'lim shakli sifatida ma'lumotlarni uzatish va qabul qilishda turli xil texnik vositalardan foydalanishda shakllantirilgan.

Ushbu tushunchalar va talqinlarning barchasi ma'lum bir masofadan turib ta'lim berishning turli tomonlarini yoritadi va amalda turli kontekst nuqtai nazaridan foydalanish uchun maqbuldir.

Bundan tashqari, mualliflik pozitsiyalaridan taqdim etilgan variantlar bilan bir qatorda, masofaviy ta'lim aholiga taqdim etiladigan ta'lim xizmatlari nuqtai nazaridan qarab chiqiladi va talqin qilinadi. Masofaviy ta'lim uzluksiz ta'lim shakllaridan biri bo'lib, u insonning ta'lim va axborot olish huquqlarini amalga oshirishga qaratilgan.

Ushbu mavzuda izlanishlar olib borgan mualliflarning tadqiqot ishlarini dolzarbligini pasaytirmasdan, ta'kidlashimiz joizki masofaviy ta'lim tushunchasining umumiy e'tirof etilgan aniq bir ta'rifi mavjud emasligini qanday izohlash mumkin. Mazkur tushunchani maqbul talqin qilish uchun izlanishlar va tadqiqotlar davom etmoqda, ammo A.A. Andreyev ta'kidlaganidek, ko'p hollarda mutaxassislar masofaviy ta'limni teran tushunmasdan va anglamasdan turib fikr yuritishadi.

Yuqorida berilgan "masofadan o'qitish" ta'rifiga rioya qilgan holda, fikrimizcha "masofaviy ta'lim" tushunchasini quyidagicha shakllantirish ham mumkin: masofaviy ta'lim – mos dasturiy o'quv-metodik majmua yordamida iste'molchiga masofadan turib, ma'lumot almashish orqali masofaviy o'qitishni amalga oshirishga imkon beradigan ta'lim xizmatlari yo'lga qo'yilgan majmuaviy tizimdir.

Masofaviy ta'lim ustida olib borilgan tadqiqotlar tahlili uning tavsifiy jihatlarini aniqlash va ifodalashda mualliflarning fikrlari bir-biriga yaqinligidan dalolat beradi, bunga quyidagilar tegishlidir:

- Manipulyasion moslashuvchanlik: masofadan turib o'qitish tizimida ta'lim

oluvchilar muntazam ravishda tashriflar va mashg'ulotlarga majburiy qatnashish bilan chegaralanmagan holda moslashuvchan shaxsiy grafik tartibida shug'ullanishadi.

- Modullilik: butun o'quv kursi alohida, mantiqiy tugallangan bloklar - modullarga bo'linadi. Ta'lim oluvchi o'z talablaridan kelib chiqib, o'zi uchun kerakli ta'lim kursini shakllantirish maqsadida bloklar to'plamini tanlaydi.

Iqtisodiy samaradorlik va maqsadga muvofiqlik: xalqaro ta'lim tizimlarining obyektiv moliyaviy baholashi, masofaviy va an'anaviy ta'lim xarajatlarini taqqoslash natijasida birinchisining ellik foiz arzonligini yaqqol namoyon etib turibdi.

Bularning barchasi ta'limning unifikatsiyaligi bilan shartlangan, mashg'ulotlar o'tkazish joylari, hududlar, o'qituvchilar, texnik va moddiy resurslarning intensiv ishlashga yo'naltirilganligi, talabalar sonining maksimal ruxsat etilganligi bilan va sarf xarajatlarning tezda qoplanishi bilan tavsiflanadi.

O'qituvchiga ajratilgan rolning yangiligi - muvofiqlashtirish-tuzatish tartibining majburiyatlari va vazifalari, bilish jarayoni, o'quv jarayoni va individual o'rganilayotgan kurs rejalari, o'zaro qo'llab-quvvatlash uchun o'quv guruhlarini boshqarish, masofaviy ta'lim tufayli yuzaga keladigan psixologik va pedagogik qiyinchiliklarni minimallashtirish va boshqalar.

- Ta'lim sifatini nazorat qilish: imtihonlar, viktorinalar, kurs va loyiha topshiriqlari, intervyu va testlar, test tizimlari to'plami kabi eng ko'p ishlatiladigan nazorat mezonlari orqali amalga oshiriladi. Ixtisoslashgan nazoratning ahamiyati yuqori ta'lim standartlarini, ta'lim sifatini ta'minlash zarurati bilan bog'liq bo'lib, bu masofadan turib o'qitish to'g'risida qulay jamoatchilik fikrini shakllantirish va masofaviy ta'lim tizimidan foydalanuvchi tomonidan ijtimoiy va psixologik qulaylik yaratish uchun sharoit yaratadi. Bundan tashqari, masofadan turib o'qitish tizimlari qurilgan turli xil dasturiy ta'minot tizimlari o'quvchilar faoliyatini doimiy va ko'p mezonli nazoratini hamda o'quv jarayoniga o'z vaqtida o'zgartirishlarni amalga oshirishga imkon beradi.

Ixtisoslashgan texnologiyalar va ta'lim vositalaridan foydalanish: masofaviy o'qitish texnologiyalari haqida gap ketganda, birinchi navbatda, zamonaviy Internet texnologiyalari bizga taqdim etadigan vositalarning barcha turlarini yodda tutish kerak bo'ladi. Bu ham onlayn muloqotda bo'lish, video konferensiyalar o'tkazish, turli sohalardagi keng bilim bazalarini yaratish va talabalarga o'zlarining Internet maydonlarini yaratish imkoniyatidir.

Masofaviy o'qitish va ta'limning sanab o'tilgan xususiyatlari, sifatlari masofadan turib o'qitish tizimiga uning qiziqishlarini oshirish, afzalliklarini namoyish etish uchun asos bo'lib xizmat qiladi.

Adabiyotlar :

1. Прозорова, Ю. А. Принципы функционирования информационно-коммуникационной предметной среды, реализованной на базе авторских сетевых информационных ресурсов / Ю. А. Прозорова // Ученые записки. Вып. 40. – М.: ИИО РАО, 2012. – С. 3-12.

2. Толковый словарь терминов понятийного аппарата информатизации образования / Босова Л.Л., Данилюк С.Г., Касторнова В.А. и др. М. – ИИО РАО, 2006. – 40 с

3. Хуторской, А.В. Дидактическая эвристика: Теория и технология креативного мышления. / А.В. Хуторской. - М.: ЗАО «МТО ХОЛДИНГ». - 2004. - 216 с.

Ezekoka G. K. Maximizing the Effects of Collaborative Learning through ICT / G. K. Ezekoka // Procedia - Social and Behavioral Sciences. – 2015. – (176). – P.

ЭКСПЕРТНЫЙ ПОДХОД ПО ВНЕДРЕНИЮ СРЕДСТВ ИНФОРМАЦИОННЫХ ТЕХНОЛОГИИ В ГОСУДАРСТВЕННУЮ НАЛОГОВУЮ СИСТЕМУ

С.С. Ачилов¹, И.И. Турсунов²

¹Самаркандский филиал Ташкентского университета информационных технологий имени Мухаммада ал-Хоразмий.

achilov.57@mail.ru

² Самаркандский государственный университет

turistsam@mail.ru,

Процесс эффективного и качественного управления экономикой любой страны связан с воздействием государства на различные сферы экономической жизни. Одним из основных инструментов и приоритетных направлений государственного регулирования экономики является налоговая политика. Государственная налоговая инспекция (ГНИ) Узбекистана создана в 1991 году 21 марта №-224. Цель данной работы является рассмотреть вопросы внедрения современной информационно-коммуникационной технологии (ИКТ) в налоговых системах, обработка данных специализированными программными продуктами, своевременного получения объективной информации о налоговых поступлениях, а также оптимизации принимаемых управленческих решений с налогоплательщиками, используя поэтапно метода экспертных оценок. Современные ИКТ в налоговой системе содержат в своем составе автоматизированные рабочие места администраторов офисных систем и службы информационной безопасности, которые связаны между собой коммуникационным оборудованием, с целью создания единой глобальной информационной среды. Однако, эффективное и качественное функционирование налоговой системы возможно только при условии использования передовых методов программ ИКТ, базирующихся на современные компьютерные технологии EVDO, 4G LTE .

Настоящее время в ГНИ создан веб сайт solig.uz и интерактивный портал my.solig.uz, предназначенные для автоматизации всех уровней налоговой системы по обеспечению сбора налогов и другие обязательные

платежи бюджет и внебюджетные фонды, а также проведение комплексного оперативного анализа расчетных данных по налогообложению, обеспечение соответствующих уровней налоговых систем достоверной и оперативной информацией. Важной задачей внедрения современной ИКТ в работах налоговой системе является не только обработка и хранение информации по начислению и уплате различных налогов, а также введение нормативно-правовой базы по налоговому законодательству, формирование отчетности по налоговым органам, автоматизированного интерфейса с банками, таможенными органами и другими структурами. Для качественного обслуживания налогоплательщиков, на веб-сайте ГНИ размещен и постоянно обновляется структурированный справочник налоговых льгот для юридических и физических лиц с возможностью поиска по различным параметрам, а также разработаны и успешно используется свыше 10-видов современных интерактивных услуг. Все интерактивные услуги размещены на ведомственном сайте www.solig.uz.

На основе спутниковой связи внедрена система передачи информации между всеми субъектами налоговых подразделений Республики. Регулярное увеличение объема налоговой информации способствовало внедрение корпоративной сети передачи данных на базе оптоволоконного канала BRAS. В результате чего, скорость передачи данных возросло 35 раз, обеспечивая устойчивую работу существующих программных продуктов, включая корпоративный веб-портал и интерактивные услуги.

Из выше сказанных объективных оценок, мы предлагаем оптимальный и эффективный подход “снизу-вверх”, на основе экспертных оценок для реализации принципов современной ИКТ в налоговую систему Республики. Суть метода заключается следующим: по утвержденному графику поэтапно внедряются современные методы, программы и технические средства связи ИКТ на структурах налоговой системы. В ходе внедрения, согласно положению ГНИ, необходимо провести государственную экспертизу. Далее, для окончательной оценки и анализа качества программ ИКТ в налоговую систему, должны быть привлечены компетентные специалисты – эксперты. Выборочный экспертный опрос проводится во всех этапах внедрения программного продукта ИКТ в налоговую систему. Эксперт является хранилищем большого объема объективной и рациональной информации, он может рассматриваться как качественный источник. При использовании экспертного метода формируют рабочую и экспертную группы. Рабочая группа организует процедуру опроса экспертов, собирает анкеты, отработывает и анализирует экспертные оценки. Далее определяется сумма баллов каждого фактора и общая итоговая сумма баллов, оценивается коэффициентами весомости каждого фактора.

Ниже приводится пример, где составлена анкета по опросу компетентных экспертов. В качестве экспертов были приглашены ведущие специалисты в области налогообложения и современной ИКТ частных и общественных фирм г. Самарканда. Анкета составлена из 5-ти вопросов, и

ответы экспертов (их более 15) фиксируется по 10-ти балльной шкале для всех участвующих в опросе экспертных членов (1-min балл, 10-max балл). В анкете включены следующие вопросы:

1. Как Вы оцениваете уровень внедрение современных методов и программ. ИКТ в государственную налоговую систему?

2. Как Вы относитесь к регулярному опросу экспертов о работах сотрудников налоговой системы, по вопросам эффективности и прозрачности законодательства по налогообложению?

3. Устраивает ли Вас работа официальный сайт solig.uz и портал my.solig.uz.

4. Необходимо ли постоянное дистанционное обучение налогоплательщика о налоговых законодательств, используя современные средства ИКТ?

5. Как Вы оцениваете уровень знания и компетентность сотрудников

налоговых служб в области налогообложения и использования ИКТ?

Табл.1. Экспертные балльные оценки факторов по внедрение ИКТ

Эксперты	1	2	3	4	5	6	7	8	9	10	11	12	13	14	15	Итого
Факторы																
1	8	8	7	8	8	7	7	8	7	7	9	9	8	9	9	119
2	9	8	9	9	9	8	8	8	8	8	7	7	7	8	7	120
3	8	8	8	8	8	9	9	9	9	9	7	7	7	8	7	121
4	7	8	7	7	8	8	8	8	8	8	9	9	9	9	9	122
5	9	9	9	9	9	8	7	7	8	8	8	8	8	8	8	123
Итого	41	41	40	41	42	40	39	40	40	40	40	40	39	42	40	605

Окончательная количественная оценка фактора определяется с помощью метода простой ранжировки, полученные данные приведены в Таблицу 1. Определяется средний ранг каждого фактора, среднее статистическое значение S_j -того фактора. $S_j = \frac{\sum_{i=1}^{15} a_{ij}}{m_j}$ где, S_j – среднее значение факторов, a_{ij} – оценка фактора экспертом. m_j - количество экспертов, оценивающих j -й фактор, i - номер эксперта, j - номер фактора. После обработки данные табл.1, среднее ранг факторов составили: $S_1=7,9$; $S_2=8,0$; $S_3=8,1$; $S_4=8,1$; $S_5=8,2$;

На основе результатов балльной оценки экспертов можно делать выводы, что мнение экспертов по качеству и эффективности внедрения современных ИКТ в налоговую систему находится выше среднего нормативного уровня.

В результате можно рекомендовать, что в Узбекистане должны быть обновлены стандарты и нормы внедрения современной ИКТ на основе зарубежных аналогов, а также предлагаем следующие рекомендаций:

-внедрение современных технических средств и программ ИКТ должен производиться на основе рекомендации компетентных специалистов;

-оптимизация информационных потоков, ускорение обмена информацией, централизованное хранение информации о налогообложении и повышение безопасности информационных систем;

-оказание налогоплательщикам широкого спектра интерактивных услуг, предоставление им доступа к информации начисленной и уплаченной сумм налогов в режиме реального времени.

Таким образом, комплексный подход “снизу-вверх” на основе методов экспертных оценок является определяющим критерием эффективности проектов внедрения ИКТ в области налоговой системы.

Список литературы

1. Постановление Кабинет Министров РУ от 2 мая 2011 года №-125 “О дополнительных мерах по дальнейшему совершенствованию информационного обслуживания налогоплательщиков органами ГНИ”.

2. Мишин В.М. Управление качеством, Учебное пособие, 2-е изд. перераб и доп.-М.:ЮНИТИ,2005г.-463 с.

МАСОФАВИЙ ТАЪЛИМНИ ТАШКИЛ ЭТИШ УЧУН ПЕДАГОГ ХОДИМЛАР ТАРКИБИНИ ОПТИМАЛЛАШТИРИШ МАСАЛАЛАРИ

Бойназаров И.М.

Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti
Samarqand filiali

ilhomboy1974@gmail.com

Масофавий таълим Европа давлатларида амалиётга татбиқ этилган ва маълум бир даражада ўзини оқлаб келаётган тизим сифатида баҳоланади. Таълимнинг бу шакли Ўзбекистон учун янги бўлиб, сўнги йилларда мамлакатимизда таълим соҳасида олиб борилаётган ислохотлар масофавий таълим шаклини амалиётга татбиқ этиш, уни самарали ривожлантиришга, ушбу соҳада илмий-татқиқот ишларини олиб боришга катта имкониятлар яратмоқда. Чунки, Ўзбекистон Республикаси олий таълим тизимида ишлаб чиқаришда ажралмаган ҳолда сиртки ва кечки таълим шаклларида ўқитиш имкониятлари пайдо бўлди. Шунингдек, мамлакатимиз ҳудудида узлуксиз Интернет хизматлари билан таъминлаш соҳаси ҳам жадал суратлар билан ривожланмоқда.

Масофавий таълим тизимини ишлаб чиқишда ва ўқитиш сифатини баҳолашда таҳлил қилинадиган манбаларни тўрт тоифага ажратилади. Булар моддий ресурслар, молиявий ресурслар, инсон омили (кадрлар салоҳияти) ва ахборот ресурслари [1]. Ресурсларнинг барча тоифалари таълимда алоҳида аҳамият касб этади, лекин инсон омили асосий бўлиши керак, чунки у дидактик фаолияти орқали бевосита таълим самарадорлигига таъсир кўрсатади. Одатда олий таълим муассасаларида турли хил дидактик тадбирлар учун инсон ресурси бир неча даражаларга тақсимланади.

Ресурсларнинг ҳар бир тоифаси бошқалари каби муҳим ва улар ўзаро бир-бирини тўлдириб туради, яъни ресурсларнинг бирортаси етарли таъминланмаган бўлса, масофавий ўқитиш жараёнининг сифати ҳақида гапира олмаймиз. Шу билан биргаликда инсон ресурсларининг ўрни алоҳида, чунки масофавий таълим дастурларини амалга оширишда ҳам анаъанавий таълимдаги каби инсонларнинг ўзаро муносабатлари муҳим ўрин эгаллайди.

Юқорида айтиб ўтилганидек, масофавий таълим дастурлари доирасида қўлланиладиган дидатик тадбирларнинг сифати ресурслардан фойдаланишни оптималлаштиришга боғлиқ. Таълим жараёни ҳақида гап кетганда, педагогик ходимлар томонидан тақдим этиладиган таълим ресурслари жуда муҳимдир. Ресурсларни оптималлаштириш масаласи билан бир қатор фанлар шуғулланади, улардан бири менежмент фанидир [2]. Бу фан аслида илмий методологияларга асосланган қарорларни қабул қилишда бошқарув жараёнига оқилона ёндошувни мақсад қилиб олган фанлараро фан ҳисобланади [2,3]. Ушбу фан доирасида маълум техник ва сонли усуллар ишлаб чиқилган.

Масофадан ўқитиш дастурлари учун ўқитувчилар таркибини оптималлаштиришга имкон берадиган, бошқарув масаласини шакллантиришда қўлланиладиган мақсад функцияси бир ёки бир нечта ўзгарувчиларга боғлиқ бўлган ва муаёян чекловларни ҳисобга олиб чизикли дастурлаш масаласи ишлаб чиқилади. Ҳар қандай чизикли дастурлаш масаласи математик моделга асосланган ҳодисанинг сонли ифодасидир. Математик модел қуйидаги учта компонентдан иборат [3]:

1) дидатик фаолият мақсадини ифодаловчи мақсад функцияси:

$$f = \sum c_i \cdot x_i \rightarrow \max(\min) \quad (1)$$

Бу ерда x_i – мақсад функциясининг ўзгарувчилари ва c_i мақсад функцияси ўзгарувчиларнинг коэффициентлари.

2) Мақсад функциясининг ўзгариш оралиғини таъминлайдиган ва муайян шартларни ифодаловчи чекловлар. Одатда чекловлар (2) кўринишдаги тенгламалар ёки тенгсизликлар системаси ёрдамида ифодаланади.

$$\begin{cases} a_{11}x_1 + a_{12}x_2 + \dots + a_{1n}x_n \leq b_1; \\ a_{21}x_1 + a_{22}x_2 + \dots + a_{2n}x_n \leq b_2; \\ \dots \\ a_{j1}x_1 + a_{j2}x_2 + \dots + a_{jn}x_n \leq b_j; \\ \dots \\ a_{m1}x_1 + a_{m2}x_2 + \dots + a_{mn}x_n \leq b_m. \end{cases} \quad (2)$$

3) Мақсад функцияси ҳамда чекловлардаги ўзгарувчиларнинг манфиймаслик шarti:

$$x_i \geq 0, \quad i = 1..n \quad (3)$$

Таълим жараёни мақсадига эришиш учун қуйидаги асосий шартларни келтириб ўтиш мумкин:

-таълим (сифат) стандартларининг тўлиқ бажарилганлиги;

-аниқ иқтисодий кўрсаткичларни ҳисобга олган ҳолда иш ҳақини ҳисоблаш тизимига боғлиқ бўлган барча техник шартлар;

Масофавий ўқитиш дастурларини жорий этиш учун педагоглар таркибини оптималлаштиришда чизикли дастурлашга асосланган математик модел юқорида санаб ўтилган учта компонентани ҳисобга олган ҳолда ишлаб чиқилади.

Мақсад функциясини шакллантириш. Бунинг учун қуйидагича белгилашларни киритамиз: $S_P^h, S_C^h, S_L^h, S_A^h$ - рўйхат бўйича мос равишда профессорлар, доцентлар, ўқитувчилар ва ассистентларнинг бир соатлик иш ҳақи миқдори, $n_{dh}^P, n_{dh}^C, n_{dh}^L, n_{dh}^A$ -лар мос равишда профессор-ўқитувчилар томонидан бажариладиган ўқув юкларидики соатлар сони. Демак, мақсад функциясини қуйидагича ифодалаш мумкин:

$$f = (n_{dh}^P \cdot S_P^h + n_{dh}^C \cdot S_C^h + n_{dh}^L \cdot S_L^h + n_{dh}^A \cdot S_A^h) \rightarrow \min. \quad (4)$$

Чекловлар. Математик моделнинг чекловлари таълим стандартларига боғлиқ:

- ўқув машғулоти (АТ), мустақил таълим топшириқлари (ТС) ва ёрдамчи материаллар (АА)лар муносабатига боғлиқ чекловлар. Қуйидагича белгилашлар киритамиз: N_P –профессорлар; N_C -доцентлар; N_L -ўқитувчилар; N_A -ассистентлар сони; n_{d1} -дарс машғулоти ва мустақил иш топшириқлари мавжуд бўлган фанлар; n_{d2} -ёрдамчи материалларга эга бўлган фанлар сони. **ТС**-ҳар бир фан бўйича мустақил иш топшириқларининг ўртача сони (бундай топшириқларни ўқитувчи ва ассистентлар тайёрлайди).

$$N_P + N_C \leq n_{d1} \quad (5)$$

$$N_L + N_A \leq \frac{0.4 \cdot n_{d1} + (AT + TC) + 0.04 \cdot n_{d2} \cdot AA \cdot N_s}{H_L \cdot k_1 \cdot n_{sem}^{yil} \cdot N \cdot n_{hafta}^{sem}} \quad (6)$$

- профессор-ўқитувчиларнинг илмий салоҳияти билан боғлиқ бўлган ҳуқуқий нормалар бўйича чекловлар. Бу чекловларни қуйидагича ифодалаш мумкин:

$$\frac{1}{H_P} \cdot n_{dh}^P + \frac{1}{H_C} \cdot n_{dh}^C \leq K \cdot k_1 \cdot n_{dh} \quad (7)$$

$$n_{dh}^L + n_{dh}^A \leq 0.4 \cdot n_{d1} \cdot (AT + TC) + 0.04 \cdot n_{d2} \cdot AA \cdot N_s \quad (8)$$

- битта профессор ўқитувчига руҳсат этилган максимал фанлар сони бўйича чекловлар. Ўқув дастуридаги фанларнинг умумий сони n_s ни ҳисобга олиб, ушбу чекловларни қуйидагича ифодалаш мумкин:

$$\frac{1}{H_P} \cdot n_{dh}^P + \frac{1}{H_C} \cdot n_{dh}^C + \frac{1}{H_L} \cdot n_{dh}^L + \frac{1}{H_A} \cdot n_{dh}^A \leq K \cdot k_1 \cdot n_s \quad (9)$$

$$\frac{1}{H_P} \cdot n_{dh}^P + \frac{1}{H_C} \cdot n_{dh}^C + \frac{1}{H_L} \cdot n_{dh}^L + \frac{1}{H_A} \cdot n_{dh}^A \geq \frac{1}{3} \cdot n_s \cdot K \cdot k_1 \quad (10)$$

- илмий салоҳиятни ҳисобга олган ҳолда дидактик материалларни жойлаштириш бўйича чекловлар қуйидагича ифодаланади, профессор ва доцентлар учун:

$$n_{dh}^P + n_{dh}^C \geq AT \cdot n_{s1} \quad (11)$$

Демак, (4) мақсад функцияси ва (7), (8), (9) - (11) чекловларни ўз ичига олган тенглама ва тенгсизликлар системаси чизиқли дастурлаш масаласининг математик модели ҳисобланади. Бу математик моделда оптималлаштирилиши зарур бўлган ўзгарувчилар $n_{dh}^P, n_{dh}^C, n_{dh}^L, n_{dh}^A$ лар ҳисобланади.

Ҳосил чизиқли дастурлаш масаласининг оптимал ечими Симплекс алгоритмдан фойдаланиб олинади. Бунинг учун бошланғич қийматлар сифатида, профессор-ўқитувчиларга ажратиладиган ўқув юкламаси (умумий ва ҳафталик), фанлар сони, мустақил топшириқ ва ёрдамчи ўқув материалларига эга бўлган фанлар сони каби қийматларни таълим муассасасига қабул қилинган талабалар сонига боғлиқ ҳолда аниқлаб олишимиз зарур бўлади.

Санаб ўтилган қийматлар асосида чизиқли дастурлаш масаласининг оптимал ечимини аниқловчи алгоритм ва дастурий таъминот ишлаб чиқилди ва амалиётга татбиқ этиш учун тайёрланди.

Adabiyotlar

1. B. Rander, R. Stair, M. Hanna, Quantitative Analysis for Management, (Global Edition, Pearson, 2014).
2. W.L. Winston, C.S. Albright, Practical Management Science, (Cengage Learning, 2015).
3. D. Lixandroiou, Decision Modelling in Economics (Economica Publishing House, 2014).
4. C. Ratiu-Suciu, Modelling and Simulation of Economic Processes (Economica Publishing House, 2009).

DUNYONI O'ZGARTIRA OLGAN "APPLE INC" KOMPANIYASINING BIZ BILGAN VA BILMAGAN YUKSALISH SIRLARI

Ashurov A.E.

Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti Samarqand filiali, 401-guruh talabasi.

Apple asoschisi Stiv Jobsning olamga yangilik olib kelishdan avval ushbu so'zlarni qayta-qayta aytishi bejiz emas. "Telbalarga, yolg'izlarga, isyonkorlarga, ajoyib hayolparastlarga, kimdur bog'dan kelsa-tog'dan keluvchi odamlarga, dunyoni o'zgacha ko'ra oladigan insonlarga tassano. Ular qoidaga rioya etmaydi. Qonuniyatlarni pisand qilmaydi. Ularning gaplaridan iqtibos keltirish, ular bilan bahslashish ularni maqtash yoki qoralash mumkin. Ammo ularni inkor qilish mumkin emas. Axir ular yangi davrni yaratadi. Ular insoniyatni olg'a undaydi. Kimdur ularni telba desa ham mayli biz esa daholar deymiz. Axir faqat telbagina dunyoni o'zgartirishga kuchim yetadi deb ishonadi. Shuning uchun o'zgartiradi ham shu dunyoni. Bu sehrli so'zlar haqiqatdan ham o'z tasdig'ini topdi va insonlar qalbida muhrlandi ham. Applega reklama kerak emas boshqalar kabi mahsulotni ommaga bo'rtirib tanishtirib o'tmadi, shunchaki insonlarga taqdim etdi. Tanlov esa

bizning qo'limizda qoldi va ko'rib turganingizday o'z aksini topdi. Yuqori o'rin, yuqori marralar.

Men shu yuqori o'ringa erishgan va uni hech kimga bermayotgan apple inc kompaniyasi haqida va uning hodimlar bilan ishlash prinsipini ushbu maqolamda yoritib bermoqchiman.

Kompaniyaning joylashgan yagona manzili bu AQSH ning Kaliforniya shtati hisoblanadi. Ushbu suratda kompaniyaning ko'rinishi va brend yani logotipini ko'rishimiz mumkin. Va albatta kompaniya ichidagi qiziqarli faktlar bilan tanishishingiz mumkin.

Qani olg'a.....!



APPLE INC.

Apple kompaniyasi ish jarayoni haqida qiziqarli faktlar

Apple kompaniyasida qonuniy ishlaydigan, har xil soha vakillari mavjud: sport fotograflari, xujjatli kino rejissyorlari, muzikant, medsesstra, ssenariy mualliflari, fizik-teorik va boshqalar;

Apple ishchilari uchun yagona bepul yegulik olma hisoblanadi.

Apple kompaniyasida ish jarayoni qat'iy belgilanmagan va rasmiy ko'rinishga ega emas, bu degani har xil rasmiy majlislar kamdan kam o'tkaziladi deganidir;

Kompaniya ishchilari uchun statistika katta ahamiyatga ega, u yerda katta oq doska mavjud bo'lib, statistik ma'lumotlar doimiy ravishda o'zgarib turadi.

Apple kompaniyasida birinchi ish kunini boshlagan ishchilar, kompaniya tomonidan berilgan Apple logotipiga ega futbolka kiyib yurishlari shart. Bu albatta barchadan ajralib turish uchun.

Ko'p yangi ishchilar asosan o'ylab topilgan, kerak bo'lmagan loyihalar ustida ishlashadi. Bu haqida ular vazifani topshirish davomida bilib qolishadi. Bu orqali ish beruvchi, yangi ishchilarni dunyoqarashi, fikrlashi va albatta sabrini sinab olishar ekan.

Applega ishga kirish suhbatini unchalik murakkab emas. Apple'ning sobiq ishchisi Apple, Yahoo, Akamai, Amazon kompaniyalariga ishga kirishdagi suhbatni solishtirib, aytishicha, oxirgi uchun kompaniyaga ishga kirish birmuncha qiyin ekan.

Applega kirish emas, ishlash qiyin ekan. U yerda grafik vaqt yo'q, tushlik paytida ham, dam olish vaqtlarida ham, hattoki tunda ham ishlashga to'g'ri kelib qolar ekan.

Tushlik uchun kompaniya pizza, gamburger hattoki pivo ham olib berar ekan, bu degani kechasi bilan ish bor deganidir .

Kompaniyadagi bunday yengiliklar hodimlar ish salohiyatiga yanada zavq va dadilik bag'ishlaydi. Va albatta buning xosilasi o'laroq apple mo'jizalari jahonda porlayveradi. Maqolam so'ngida apple asoschisi Stiv Jobsning omma oldida kuchli talqin qilingan so'zlari bilan yakunlamoqchiman.

“Ishlasang yo katta pulga, yoki tekinga ishla.

Lekin hech qachon arzonga ishlama.”

Steven Paul Jobs (1955-2011)

Adabiyotlar

1. Apple inc
2. https://www.google.com/search?tbm=isch&sa=1&ei=u_AKXZTNA8qakwWHxr-oDQ&q=apple+foxconn&oq=apple+fox&gs_l=img.3.2.0i19110.18051.20891..24577...0.0..0.293.1912.0j7j3.....0....1..gws-wiz-img.....35i39j0i30.SMir7JJxux0#imgsrc=777W-Iljh1E2dM:

**III-Шўъба Теллекоммуникация
тизимлари ва тармоқларини
бошқариш тамойлари**

ОСНОВНЫЕ ДАСТОИНСТВА И НЕДОСТАТКИ ПРИМЕНЕНИЯ СОВРЕМЕННЫХ ТЕХНОЛОГИЙ В СЕТЯХ ТЕЛЕКОММУНИКАЦИИ

Х. Нигматов¹, А. Мухаммадиев

¹Узбекистанская международная исламская академия г.Ташкент.

Рассматриваются вопросы применения сети нового поколения на базе технологии NGN, позволяющее повисать эффективность использования и повышения качества предоставления мультимедийных услуг существующей сети телекоммуникации. Приведены основные преимущества и недостатки сети нового поколения.

Технология, поколения, мультимедиа, телекоммуникация, программный коммутатор, качество услуг, компьютерная сеть.

Как известно, современный рынок связи находится на таком этапе, когда операторы имеют благоприятную возможность обойти все трудности конвергенции, присущие сетям прошлых лет, и перейти напрямую к сетям следующего поколения на базе технологии, которая получила рабочее название NGN - «Next Generation Network». Для того чтобы совершить этот прорыв и присоединиться к числу высокотехнологичных операторов, необходимы новые решения в области создания и предоставления высокопроизводительных услуг. NGN - технология построения сети - предназначена для предоставления услуг передачи данных и голосовых сервисов. Она снимает целый ряд ограничений и барьеров, существующих сейчас, и в этом заключается ее экономическая продуктивность.

NGN является интегрированной и открытой сетью. Она позволяет интегрировать все виды сетей, устройств доступа и терминалов. Функционально, сеть можно разделить на 4 уровня: уровень управления услугами, уровень сетевого управления, корневой коммутационный.

Сети нового поколения, или Next Generation Network (NGN), вызывают сегодня повышенный интерес, как со стороны телекоммуникационных операторов, так и их заказчиков. Такой интерес обусловлен увеличением влияния современных инфокоммуникационных технологий на повседневную жизнь человека и бизнес.

Как всем известно, сети нового поколения (NGN), базируются на технологии программного коммутатора, т.е. NGN - это прогрессивный этап в развитии телекоммуникационных технологий, ознаменованный появлением телекоммуникационной сети нового поколения [1]. По сути дела, NGN - это шаг от традиционной PSTN с коммутацией каналов к пакетной IP сети. NGN передает все услуги PSTN, разгружает сеть PSTN, передавая большую часть данных по IP сети, поддерживает новые типы услуг и улучшает качество предоставления традиционных услуг за счет использования всех возможностей IP-технологии. В этом смысле, NGN представляет собой

интеграцию сети передачи речи на базе традиционной TDM (мультиплексная передача с временным разделением каналов) и сети пакетной передачи на базе IP/ATM (асинхронный режим передачи). Использование данных технологий позволяет осуществлять передачу мультимедийных данных как речи, видео, данных и другие услуги по сети следующего поколения.

NGN является наиболее перспективным стандартом, являющимся базовой платформой для эволюции будущих технологий интеллектуальных сетей, необходимых для предоставления всего спектра телекоммуникационных услуг.

Сеть NGN должна обеспечивать абонентам возможность беспрепятственного получения услуг различных провайдеров и поддерживать «мобильность» абонента, обеспечивая ему постоянный доступ к услугам вне зависимости от его местонахождения.

Можно заметить, что определение NGN достаточно общее, никак не регламентирующее конкретные технологии.

Во-первых, NGN в противовес традиционным сетям с коммутацией линий, характеризуется коммутацией пакетов. В принципе, может использоваться любой вариант с пакетной передачей – ATM, Frame Relay и т.д., и до недавнего времени еще велись дискуссии по поводу протокола, на базе которого будут развиваться будущие сети с пакетной коммутацией. Сегодня этот вопрос уже не обсуждается – все вновь строящиеся сети используют IP-пакетирование. Плюсы и минусы перехода к пакетной коммутации хорошо известны.

Плюсы – гибкость маршрутизации и построения сетей, возможность более эффективного использования транспортных структур, удобство передачи разнородного трафика по общему каналу.

Минусы – сложность обеспечения качества обслуживания и безопасности доставки.

Во-вторых, в сетях NGN должно быть реализовано четкое разграничение уровней приложений, управления сетью, транспорта и доступа. Эти уровни должны взаимодействовать между собой и с внешними сетями через открытые интерфейсы. Использование унифицированных интерфейсов создает условия для бесшовного соединения транспортного ядра с различными сетями доступа. Первоочередное внимание уделяется интеграции сетей фиксированного и мобильного доступа, на основе которой должна быть обеспечена мобильность абонента.

На уровне управления такая сеть будет обеспечивать возможность легкой интеграции услуг различных провайдеров. Сегодняшние разные решения уровня управления несовместимы, и это создает серьезные проблемы при конвергенции разных сетей. Предполагается, что в перспективе абоненты NGN сети будут иметь сквозную идентификацию во

всех сегментах доступа и при получении любой услуги в любой точке сети пользоваться единым абонентским профилем. Для этого потребуется интегрированная система учета и биллинга.

При внедрении в сети новых услуг оператору не надо будет адаптировать их к возможностям транспортной структуры – ее узлы и каналы должны гарантировать пропускную способность, покрывающую потребности любых приложений. Одновременно сеть должна обеспечивать сквозное качество обслуживания для широкого спектра услуг, включая потоковые мультимедийные. Пока требования QoS остаются основным препятствием для доставки голоса и видео по IP сетям.

Сначала строиться базовая транспортная сеть, соответствующей надежности, гибкости и масштабируемости, затем поверх этой сети строиться комплекс услуг.

Таким образом, оборудование программной коммутации в NGN играет роль универсального программно-аппаратного комплекса, конвертера сигнализации, который преобразует протоколы сигнализации как в сети с коммутацией каналов: OKC-7, DSS1, V5, CAS, так и в сети пакетной коммутации - протоколы IP-телефонии: H 323, SIP, MGCP, MEGACO/ H.248.

Программный коммутатор - это программно-аппаратный комплекс, «мозг» новой сети, предназначенный для управления обработкой телефонных вызовов, происходящих в различных сетях, в том числе в сетях с коммутацией пакетов, он аккумулирует весь интеллект сети, а остальные элементы, расположенные на периферии, лишены интеллекта и полностью подконтрольны программному коммутатору, что в целом способствует лучшей управляемости и масштабируемости сети.

Открытая архитектура: NGN можно разделить на несколько функциональных уровней в соответствии с сетями, которые участвуют в межсетевом обмене, и выполняемыми ими функциям. Данные уровни не только могут развиваться отдельно, но и выступать в качестве отдельного независимого объекта связи. Кроме того, подобная открытая архитектура позволяет операторам выбирать лучшее телекоммуникационное оборудование, имеющееся на рынке, согласно своим требованиям, не беспокоясь об организации меж сетевого обмена между различными устройствами.

Высокая эффективность: Поскольку в NGN услуги отделены от функций управления вызовом, это обеспечивает хорошие условия для настоящей независимости услуг от сети и позволяет максимально уменьшить время ввода новой услуги.

Низкая стоимость: По сравнению с PSTN, применение довольно таки дешевых сетей как сеть IP в качестве базовой сети передачи значительно

снижает стоимость связи сети NGN. Данное преимущество особенно очевидно при междугородних и международных вызовах.

Разнообразный доступ: NGN интегрирует в себе преимущества сетей PSTN, PLMN и IP, что делает возможным связь между аналоговыми абонентами, цифровыми абонентами, мобильными абонентами, пользователями ADSL (асимметричная цифровая абонентская линия), пользователями ISDN (цифровая сеть с интегрированным обслуживанием), пользователями узкополосной сети IP, пользователями широкополосной сети IP и даже пользователями, получающими доступ через спутник.

Мультимедиа: Передача в режиме реального времени речи, голоса и других мультимедийных потоков является еще одним преимуществом NGN. Кроме того:

- Совместимость с международными стандартами;
- Масштабируемость;
- Реальная мульти протокольная поддержка;
- Управление качеством обслуживания (QoS) классификация видов трафика (CoS);
- Предоставление современных высокоскоростных услуг (VoIP, VPN, VOD, Internet и др.);
- Управление трафиком (Traffic Engineering) - обеспечение возможности адаптации к пульсациям трафика, определенного уровня надежности и производительности;
- Резервирование полосы пропускания по желанию клиента для гарантирования характеристик;
- Поддержка традиционных сетевых технологий.

В настоящее время вновь появляющиеся как проводные, так и мобильные сотовые операторы и сервис-провайдеры, предлагающие совершенно новые услуги и низкие цены, пытаются переманить клиентов. В этой ситуации единственно верный путь удержать существующих и завоевать новых клиентов удовлетворять их потребности в предоставлении новых услуг и качестве обслуживания лучше, чем конкуренты. Решением является переход от существующих сетей связи к сети следующего поколения, основные идеи которой были изложены в данной статье.

Насколько плавным будет этот переход, зависит от тех инвестиций, которые были сделаны в существующую сеть, и от политики развития сети каждого отдельного оператора, Естественно, если оператор связи хочет не просто выжить, но и успешно конкурировать в современных условиях, он должен уже сегодня обратить серьезное внимание на технологии, позволяющие создать сеть связи с низкими производственными расходами, возможностью быстро вводить требуемые услуги, а также быть независимым от конкретного поставщика оборудования или приложения. Наша основная

задача – это дать обоснованный ответ с конкретными расчетами всех качественных характеристик телекоммуникационной сети при передаче данных.

Литература

1. Х. Нигматов «Компьютерные сети и системы в IP телефонии» Учебное пособие. Изд. "ЖЕБЕ". Казахстан. Чимкент. 2015. 238 стр.

BOSMA MATN ASOSIDA NUTQ SIGNALLARINI SINTEZLASHNING GIBRID TEXNOLOGIYASI

B.U. Akmuradov¹, F.B. Elmirzayev², I.S. Jo'raboyev³

¹Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti

²Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti talabasi

³Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti Samarqand filiali, talabasi

Bugungi kunda insoniyat shiddat bilan rivojlanayotgan axborot kommunikatsiya texnologiyalaridan samarali foydalanish va uning imkoniyatlarini yanada oshirish borasida bir qator izlanishlar olib bormoqda. Bunday texnologiyalarning tez ommalashishining asosiy sabablaridan biri foydalanishning qulay va soddaligidadir. Foydalanishni soddalashtirish uchun esa odam mashina interfeysini mukammallashtirish zarur. Odam mashina interfeysi sifatida mexanik qurilmalarda dastaklar, texnik qurilmalarda boshqaruv tugmalari va elektron tizimlarda sensor va tovush signallari qo'llanilmoqda. Tovush signallari yordamida elektron tizimlarni boshqarish yuzasidan ham qator izlanishlar olib borilgan. Bu izlanishlarning aksariyati matn ma'lumotlaridan tovush signallarini sintezlashga qaratilgan.

Matnni nutqqa sintez qilish bu oldindan aniq bo'lmagan ixtiyoriy matn belgilari ketma-ketligini audio signal namunalarning tegishli ketma-ketligiga avtomatik ravishda tarjima qilishdir. Matndan nutqqa avtomatik sintezni tashkil etishga bir nechta yondashuvlar mavjud. Ularning asosiylari formant sintez, artikulyatsion sintez, statistik modellar asosida sintezlardir[1].


Hozirgi vaqtda eng keng tarqalgan yondashuvlar birlikni tanlash (Unit Selection - US) algoritmiga va Markovning yashirin modellariga (скрытый Марковский модел - CMM) asoslangan. Birinchisi, turli darajalarda to'g'ri ajratilgan katta hajmdagi etallon nutq ma'lumotlar bazasi yordamida sintezlangan nutq tovushining maksimal tabiiyligiga erishishga imkon beradi. Shu bilan birga, sintez qilingan nutqning tabiiy talaffuzga yaqinligini buzuvchi akustik xatoliklarni (robot effekti) kamaytiradi, shuningdek, statistik yondashuv quyidagi afzalliklarga ega:

- Dinamik modellarni moslashtirish yoki interpolatsiya qilish orqali ovoz xususiyatlarini osongina o'zgartirishga imkon beradi, US algoritmi esa talaffuz uslubi nutq bazasi uslubidan farq qilmaydigan nutqni qabul qilish imkonini beradi;

- SMM texnologiyasi asosida olingan nutq tovushi tabiiy talaffuzga yaqinroq hisoblanadi, lekin odatda konkatevativ sintezga xos bo'lgan chastota va energiyaning keskin, kontekst bo'lmagan farqlarini o'z ichiga olmaydi. Bundan tashqari, US algoritmidan foydalanganda, agar tegishli ovoz elementi ma'lumotlar bazasida bo'lmasa, sintez natijasi sezilarli darajada yomonlashishi mumkin.

- Oz vaqt ichida yangi ovozni ishlab chiqishga imkon beradi va nutq bazasini saqlash uchun sezilarli darajada kam xotirani talab qiladi.

Taklif etilayotgan gibridd tizim ikkala yondashuvdan foydalanadi: tovush elementlarining maqbul ketma-ketligi klassik US algoritmiga binoan ma'ruzachining nutq korpusidan tanlanadi, ammo xuddi shu asosda o'qitilgan statistik intonatsiya modelidan foydalanib, US yoki SMM texnologiyasi asosida sintezlangan nutq tovushining tabiiyligini oshirishga imkon beradi.



1-rasm. Nutq signallarini sintezlashning gibridd modeli

Funksional va tarkibiy jihatdan tizim ovoz bazasini (tayyorgarlik bosqichi) va nutq sintezini tayyorlash uchun quyi tizimlarga bo'linishi mumkin (1-rasm).

Ovoz ma'lumotlar bazasi nutq korpusi asosida qurilgan, ularning har biri bitta jumlaning yozib olgan va jumladan keltirilgan tovush birliklari to'g'risida zarur ma'lumotlarni o'z ichiga olgan tegishli fayllar to'plamidan iborat ovozli fayllar to'plamidan iborat. Indeks bazasi belgilash fayllaridan qurilgan bo'lib, ular allofonning nomi, chap va o'ngdagi allofonlarning nomlari, allofon chegaralarida MFCC koeffitsientlari (Mel-Frequency Cepstral Coefficients), chegaralardagi intonatsiya va ohang chastotasi shuningdek allofonning davomiyligi kabi maqsadli xususiyatlar bo'yicha tezkor qidiruvni ta'minlaydi.

Ovoz parametrlarini modellashtirish jarayoni barcha ovozli fayllar uchun xarakteristikalar to'plamini hisoblashdan boshlanadi [2]. Har bir bunday to'plam 25 ms davomiylikdagi signalning qisqa qismini tavsiflaydi. Xarakteristikalar sifatida quyidagi parametrlardan foydalaniladi.

- MFCC koeffitsientlarining $\{c_1, \dots, c_k\}$ vektorlari ketma-ketligi [3], har bir vektor 25 koeffitsientdan iborat va kadrda signalning spektral konvertini tavsiflaydi; K - bu freymlarning umumiy soni.

- $\{F0_1, \dots, F0_k\}$ ketma-ketligi asosiy ohangning chastota qiymatlarini ifodalaydi.

Keyingi bosqichda, markirovka fayllari asosida har bir allofon uchun 7 ta allofonik (joriy, undan oldingi 2 ta ketma-ket allofonning, keyingi va undan keyingi allofonlarning nomlari; bo'g'inning boshidan va oxiridan joy), 13 bo'g'inli, 8 so'zli va 3 sintagmatik xususiyatlarni o'z ichiga olgan lingvistik va prosodik xususiyatlar to'plami hisoblanadi.

Keyinchalik, har bir allofon uchun SMM modellarining prototiplari yaratiladi. Har bir model N holatiga ega, o'ziga yoki keyingi holatiga o'tish mumkin.

Ovozli modelni yaratish jarayoni SMM modellarining holatini klasterlash bilan yakunlanadi. Ushbu bosqichda elementlarning o'quv nutq bazasida mavjud bo'lmagan parametrlar yaratiladi, bu o'z navbatida o'zgina miqdorda etalon material bilan ham aniq nutqning sintezini ta'minlaydi.

Sintez tizimi kirishiga oldindan ishlov berilmagan matn keladi. Har bir jumla uchun matnli ma'lumotlarga asoslanib, allofonlarning maqsadli ketma-ketligi shakllantiriladi va ularning har biri uchun lingvistik va prosodik xususiyatlar hisoblab chiqiladi. Umumiy prinsip haqida gapiradigan bo'lsak kiruvchi matn ma'lumotlari grammatik va prosodik jihatdan tarkibiy qismlarga ajratiladi. Avvaldan shakllantirib qo'yilgan tovush fragmentlari orasidan mos elementlarni tizimli tarzda jamlab, moslashtirish orqali nutq sintezlanadi.

Ko'rib chiqilgan gibrid modelning avzallik tomonlari shundan iboratki, notanish matnning sintezlashda uchragan noaniqliklarni qisqa vaqt ichida qo'shimcha tovush fragmentlari hosil qilish yo'li bilan bartaraf etish mumkin. Lingvistik va prosodik tahlillar natijasida kiritilgan tuzatishlar sintez qilingan nutq signallari xususiyatlarining tabiiy talaffuzga yaqinlashishi imkonini beradi.

Adabiyotlar

1. Donovan R. E., Ittycheriah A., Franz M., Ramabhadran B., Eide E., Viswanathan M., Bakis R., Hamza W. Current Status of the IBM Trainable Speech Synthesis System // Proc. 4th ESCA Tutorial and Research Workshop on Speech Synthesis. Scotland, UK. 2010.

2. Чистиков П.Г. Моделирование параметров русской речи в системе синтеза // Сб. тез. докл. Конгресса молодых ученых. Вып. 2. СПб: НИУ ИТМО. 2012. С. 227–228.

CONCATENATION OF SYLLABLES BY ANCHOR FRAME TO IMPROVE NATURALNESS IN SPEECH SYNTHESIS FOR UZBEK LANGUAGE

M.N.Mukhiddinov, B.U. Akmuradov, O. N. Djuraev

Lecturer, Tashkent University of Information Technologies named after Muhammad al-Khwarizmi

To deal with the former problem, we focus on two factors: (1) an algorithm for segmentation of speech into syllable as per the linguistic rule and (2) Concatenation of syllable. In this paper, a novel method for improving the quality of syllable for Uzbek language, is proposed. This method is used to generate a combination of two speech units like syllables for generation better synthetic sound in terms of naturalness and intelligibility [1].




Figure 1. Propose basic block diagram of system for concatenation of syllable

In the last few years however, the use of text-to-speech conversion technology has grown far beyond the disabled community to become a major

adjunct to the rapidly growing use of digital voice storage for voice mail and voice response system [2]. The system block diagram is shown in Figure 1. The process of converting the sentence into syllable is called segmentation. This segmentation is performed according to the linguistic rule of Uzbek language. The system implements two major algorithms.

1. Segmentation algorithm
2. Syllable concatenation algorithm

The system has two inputs like speech signal and text. These two inputs combine according to an algorithm and consideration of parameters. The accepted speech signal and text is processed further for storing in the data corpus. Mapping of text with the sound unit stored in the pre-processing is carried out. Figure 1 shows the complete system development work in three stages, in the first stage it accepts the speech sentence in Uzbek Language on the same stage from the other side it accepts the Uzbek text. In the last stage speech is generated. The outcome of the whole algorithm is to generate the syllable and concatenation of the syllable with signal processing. Details of experimentation of these algorithms are covered in the following section.

Algorithm Concatenation of two syllable using Anchor Frame

For generation of the word the syllable is the unit used for concatenation. Further the syllable is divided into frames of 10 to 15 msec. The two syllables from the database consist of many frames. Out of the many frames consider the last frame of the first syllable and the first frame of the second syllable [3]. Store the values of maximum two pitches of the two frames and do the interpolation. The new frame generated from two frames is called as an anchor frame.




Figure 2. Second algorithm for concatenation of two syllable using anchor frame

Step 1: Take the two syllable from database (Lets Consider S1: first Syllable, S2: second Syllable)

Step 2: Convert the syllable into the Frames

Step 3: Take the Frame containing highest last two Pitch of first syllable

Step 4: Take the Frame containing highest first two Pitch of second syllable

Step 5: Interpolation of both the syllable (S1 and S2)

Step 6: Stored the values of syllable (S1 and S2) into Matrix (Consider the values of M1 First Matrix and M2 Second Matrix)

Step 7: Check the size of the Matrix & normalize the size Matrix

Step 8: Take the average of the two matrix

Step 9: Generate the new frame form the average of Matrix called Anchor Frame

Step 10: Insert the anchor frame between the two syllable (S1 and S2) for Smoothing

The objective of this research smooth concatenation of the syllable to generate the quality synthesized speech. Concatenation of two syllable using smoothing and filtering after experimentation has been carried out. It is suggested that take the last hundred (100) point from first syllable and first hundred (100) point from second syllable. Take the mean of these sample and insert the mean values in between the two syllable which is selected from the database. The concatenation syllable anchor algorithm is used to join to syllable. In this method anchor frame is generated form the two syllable joint. The last segment of first syllable containing the highest two pitch and first segment of last second syllable containing the two pitch . All the values stored in the matrix and create the new frame that is called as the anchor frame. This new frame is used to join the syllable smoothly.

The paper explains the algorithm for concatenation of the syllable. We propose the algorithm that syllable is divided into number of frame of 12 msec there are two syllable is needed for combining. Take these two syllable from database .Take the last frame of first segment and first frame of second syllable. Using the point from two frame create new anchor frame.

References

[1] Hemant A Patil , Tanvina B Patel and Nirmesh J Shah A Syllable-Based Framework for Unit Selection Synthesis in 13 Indian Languages” IEEE Xplore 13 January 2014, Gurgaon, India.

[2] Khamdamov U., Mukhiddinov M. Developing intonation pattern for Uzbek text to speech synthesis system. // Материалы XXIII Международной научно-технической конференции «Современные средства связи». 18-19 октябрь 2018. Минск, Беларусь. –с. 131-133.

[3] Akmuradov B., Mukhiddinov M., Samatkhonov M. Text to speech conversion using different speech synthesis technologies. // “Высшая школа”. Научно-практический журнал. №18/ 2018. г.Уфа. Россия. –с. 54-56

IMS TEXNOLOGIYASI

M.A. Bolbekov¹, Sh.A. Absamatov²

¹Muxammad al-Xorazmiy nomidagi TATU Samarqand filiali assistenti

²Muxammad al-Xorazmiy nomidagi TATU Samarqand filiali talabasi

Muloqot inson jamiyatining ustunlaridan biri bo'lib kelgan. Turli xil texnologiyalar va turli jamiyatlarning rivojlanishini boshqarib kelmoqda. Ayniqsa, so'nggi bir yarim asr mobaynida aloqa muhim bosqichlarga yetdi. Softswitch texnologiyasiga keyingi avlod tarmoqlari (NGN) ning istiqbolli vakili sifatida o'tishidir. Aloqa sohasidagi hozirgi tendensiyalar operatorlarning diqqat markazini multimediya kontenti va xizmatlariga asosiy xizmatlarini taqdim etishdan asosiy masalalari bo'lib qolmoqda. Mijozlarning talablarini qondirish uchun ularga ko'proq xizmatlarni taqdim eta olish kerak. Telekommunikatsiya bozorida va ularning ilovalarida kuzatilganidek, mijozlar o'z qurilmalarining turli xususiyatlaridan foydalanishga va agar ular imkoni bo'lsa turli xizmatlardan foydalanmoqdalar, ya'ni operatorlar o'rtacha narxlarga talab qilingan funktsiyalarni taqdim qilsalar va mijozlar ushbu xizmatlarga qulay kirishlari mumkin bo'lsa bundan foydalanish ko'rsatgichi oshmoqda. Ushbu masalalarni yechishda provayderlar hozirgi vaqtda IP Multimedia Subsystem (IMS) kelgusida NGN va multimediya xizmatlari bilan aloqa tarmoqlarida foydalanishni ta'minlash ularning yagona hamda eng to'g'ri yo'li va imkoniyatdir. IMS IP protokoli asosida multimediya xizmatlari uchun talablarni qondirishga yo'naltirilgan NGN texnologiyasidir [1]. IMS seanslarni tashkil qilish, o'zgartirish va tugatish uchun seanslarni boshlash protokoli (SIP) ga asoslanadi. Bu telekommunikatsiya tarmoqlari evolyutsiyasining navbatdagi bosqichi bo'lib, ayni paytda ushbu sohadagi yagona muqobil hisoblanadi. IMS - turli xil so'nggi qurilmalarga ovozli, video va boshqa multimedia xizmatlarini taqdim etish imkonini beruvchi rivojlanayotgan arxitekturadir, masalan. mobil va statsionar telefonlar, kompyuterlar va boshqalar [2]. Uchinchi avlod hamkorligi loyihasi (3GPP) tomonidan ishlab chiqilgan va hozirgacha 3rd ta avlod mobil tarmoqlarini rivojlantirishga qaratilgan va IMS ni tanlagan asosiy funktsiya sifatida ishlab chiqilgan. IMSning boshqa muhim organlari 3GPP²⁸ va ETSI ishchi guruhi TISPAN⁹ ni o'z ichiga oladi. Dastlab UMTS tarmoqlarini uyali aloqa operatorlariga Internet protokoli multimediyasini yetkazib berish uchun ishlab chiqilgan IMS 3G, kabel televideniya va yangi avlod telekommunikatsiya tarmoqlari ichida asosiy komponent bo'lib qoldi. IMS spetsifikatsiyasi 3GPP

Release 5 [1] da elektron almashinuvdan paketli kammutatsiyaga o'tishga hamda asosiy tarmoqlar evolyutsiyasi qismi sifatida boshlangan va hali ham ishlab chiqilmoqda (Release 11). GPRS orqali Internet xizmatlarini taqdim etuvchi Release 5, shuningdek, boshqa kirish texnologiyalaridan (jumladan, simsiz LAN, WCDMA, CDMA2000, Wimax v.b.) foydalanish orqali xizmatlarni taqdim etish uchun ishlab chiqildi. Hozirgi vaqtda ishlab chiqilgan Release 11 gacha bo'lgan 6, 7, 8, 9 va 10-chi versiyalarni mavjud. IMS standartlari operatorlarga turli tarmoq sotuvchilardan tarkibiy qismlarni o'z tarmoqlarini yaratish imkoniyatini beradi, chunki IMS butun tizim sifatida standartlashtirilgan. IMS butun insoniyat jamiyati rivojlanishiga ta'sir qiluvchi aloqa tarmoqlarida ikkita juda muvaffaqiyatli va muhim paradigmalarni birlashtiradi – yirik mobil aloqa tarmoqlarini qamrab oladi. Geografik joylar va Internetga keng miqyosdagi kirish tarmoqlari ma'lumotlar va xizmatlarga kirib borish imkonini beradigan tarmoq xizmatlari mavjud. Bunday kombinatsiyaning maqsadi Internet va paketli tarmoqlarga dunyoning istalgan joyidan kirish imkonini beradi. Limit omillari – uyali aloqa tarmog'ining qamrovi va foydalaniladigan kirish texnologiyasining ma'lumotlarni uzatilishidir. Yuqorida keltirilgan kombinatsiyani NGN orqali ham qisman taqdim mumkin. Biroq, IMS ning yangilanishi o'zining standartlashtirish boshlanishidan boshlab paketli-texnologik yo'naltirilganligi bilan bog'liq. IMSning eng katta afzalligi, uning boy innovatsion xizmatlarni tezkor rivojlantirish va joylashtirishga xizmat qiladigan xizmatlarga yo'naltirilganligi hisoblanadi.

IMS xizmatlariga yo'naltirilganligi gorizontallik bilan tasdiqlangan bo'lib, xizmatlarni standartlashtirilgan, yaxshi tuzilgan usulda taqdim etish imkonini beradi. Bu ochiq-oydin standartlarga asoslangan holda xizmatlarni yaratish va ularni tayyorlashni tezlashtiradi. IMS yadrosi tomonidan ilovalarga taqdim etilgan quyi qatlamlar vazifalariga e'tibor berish kerak. Bundan tashqari, ular bir nechta ilovalar uchun turli xil xizmat ko'rsatish imkoniyatlarini kengaytiruvchi va keng tarqalgan funksiyalarni qayta ishlatishlari mumkin (ya'ni, zaryadlash, mavjudlik, guruh va ro'yxatni boshqarish, marshrutlash va boshqalar).

Ishlab chiquvchilar qimmatbaho va murakkab an'anaviy tarmoq tuzilishini bartaraf etadigan application funksiyalariga e'tibor berish uchun vertikal yangi xizmatlaridan foydalanishi mumkin [3]. Mavjud ovoqli va ma'lumotlar uzatish tarmoqlari bilan integratsiya qilish va IT dunyosining asosiy afzalliklarini qabul qilish IMSni mobil uyg'unlik uchun asosiy arxitekturaga aylantiradi. IMS turli tadqiqot sohalarida ham mashhur bo'lgan texnologiyadir. Telekommunikatsiya operatorlari xizmat ko'rsatish sohasidagi yangi bilimlarni va ularning evolutsiyasini, tarqatishni sinov va ishlashni baholashni ta'minlaydigan tadqiqot ishlarini qo'llab-quvvatlaydi. Natijalar har bir operatorning asosiy maqsadlari bo'lgan xarajatlarni kamaytirish, daromad va mijozlar ehtiyojini qondirish imkonini beradi.

Adabiyotlar


1. Camarillo, G., García-Martín, M. A.: The 3G IP multimedia subsystem (IMS): Merging the Internet and the cellular worlds, 3rd edition. John Wiley & Sons Ltd. ISBN: 9780470516621. 2008.
2. Turner, R. B.: NMS FMC SIP. Available at: White Paper. IMS - IP Multimedia Subsystem The value of using the IMS architecture.
3. Xun, Z., Liao, J., Zhu, X.: On Performance of 3GPP Service Triggering Mechanism in IMS Network. In: 34th Euromicro Conference Software Engineering and Advanced Applications. pp. 150-155. 2008.

IMS ARXITEKTURASI

M.A.Bolbekov

Muxammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti Samarqand filiali assistenti

IP-multimediya subsystem, operator tomonidan taqdim etilgan SIPga asoslangan xizmatlardan foydalanishni qo'llab-quvvatlash maqsadida asosiy tarmoq funksional ob'ektlarining majmui sifatida tavsiflanadi. Bu funktsiyani uchta mantiqiy qatlamga ajratishimiz mumkin [1] (1-rasm qarang)



1 – rasm IMS arxitekturasi

- transport qatlami
- boshqaruv qatlami
- application/xizmatlar qatlami

Transport qatlami – tarmoqning yadrosidan kirish tarmog'i texnologiyalarini ajratadi. Asosan, u yadrodagi turli xil kirish texnologiyalari tarmoqlari va sof IP-tarmoq o'rtasida chegara. IP-manzilni ajratish va standart tarmoq ma'lumotlarini IMS terminaliga yetkazish uchun DHCP protokolidan foydalaniladi.

IMS boshqaruv qatlami – autentifikatsiya qilish va avtorizatsiya qilish funksiyalarini, transport va xizmatlar qatlami o'rtasidagi SIP trafigini yo'naltirish va tarqatish uchun javobgardir. Ushbu qatlamdagi trafik ko'pincha SIPga asoslangan. Ushbu qatlamning asosiy rollaridan biri turli funksiyalar va ilovalar bilan aloqa o'rnatish imkonini beradi. Ushbu qatlamning asosiy komponenti - SIP trafikni boshqarish va autentifikatsiya qilish uchun mas'ul bo'lgan qo'ng'iroqlar ketma-ketligini boshqarish funksiyasi (Call Sequence Control Function CSCF). Boshqarishning yana bir muhim vazifasi - foydalanuvchi va xizmatlar bilan bog'liq ma'lumotlarni saqlaydigan uy abonentlar serveri (Home Subscriber Server HSS).

Service/Application layer xizmatlarni bajarish uchun mas'ul vazifalarni o'z ichiga oladi. Ular mijozlarga turli xizmatlarni taqdim etuvchi application serverlari (masalan, ovozli pochta xizmati, interfaol ovozli javob, ma'lumot va boshqa qo'shimcha xizmatlar).

IMS ning avvalgi avlodlari bilan taqqoslaganda, IMS ning eng muhim afzalliklaridan biri - ilovalar va xizmatlarning past darajadagi funksiyalarini qayta ishlatishga imkon beruvchi juda ko'p bosqichli arxitekturasidir. Foydalanuvchilar va xizmat ma'lumotlari, SIP xabarlarini marshrutli, seanslarni boshqarish va turli xil tarmoqlarga ulanadigan shlyuzlar yangi xizmatlarni ishlab chiqish va joriy etishni soddalashtiradi. Avvalgi telekommunikatsiya tizimlarining avlodlari aloqa va axborot vositalarini yaratish, o'zgartirish va tugatish uchun zarur bo'lgan alohida signalizatsiya tushunchasini ishlatishdi. Ushbu kontseptsiya foydali bo'ladi, chunki signalizatsiya axborotlari va media oqimlari multimediasseansdagi ishtirokchilar o'rtasida turli yo'llardan o'tishi mumkin. Signallarni uzatish bir necha asosiy tarmoq elementlaridan o'tishi kerak bo'lsada, vosita oqimi ulanish o'rnatilgandan so'ng, o'z maqsadiga eng qisqa yo'lni berishi mumkin. Ushbu yondashuv IMS da qabul qilingan va uning funksiyalari ikkita guruhga bo'linishi mumkin: signalni qayta ishlash (masalan, CSCF, HSS, IBFC va boshqalar) va atrof muhit bilan bog'liq bo'lgan funksiyalar (MGCF, MRFC, MRFP va boshqalar).

IMS komponentlari o'zlarining maqsadlariga ko'ra, yetti kategoriya bo'yicha bo'linishi mumkin: [2]

- xizmatlar server - AS, OSA-SCS, IM-SSF
- Chegara shlyuzi elementlari - A-BGF, T-MGF, SGF, IWF, IBGF
- chaqiriq/seans boshqaruvchilari - S-CSCF, I-CSCF, P-CSCF
- Serverlarni zaryadlash - CTF, CDF, CGF, OCF
- Shlyuz tekshirgich, agent chaqiruvi - BGCF, MGCF, IBCF
- Media serverlar - MRF, MRFP
- Abonent ma'lumotlar bazalari - HSS, SLF

Yuqorida ta'kidlab o'tilganidek, IMS uchta darajada joylashgan maxsus vazifalar bilan bir qator funktsiyalardan iborat. Vazifalar vazifalariga xos bo'lgan nazorat nuqtalari orqali bir-biriga bog'langan. Bu ish uchun quyidagi muhim funktsiyalar S-CSCF, I-CSCF, P-CSCF, HSS va SIP AS hisoblanadi. Boshqa IMS funktsiyalarining tavsifi (masalan, MRF, MRFP, SSF, IMS-ALG, MGW, MGCF, BGCF va boshqalar).

Chaqiruvni boshqarish funktsiyasi vazifalari Chaqiruvni boshqarish funktsiyasi (CSCF) IMS domenining asosiy funktsiyasidir. Uning topshiriqlariga signalizatsiya xabarlarini va avtorizatsiya va autentifikatsiya qilish funktsiyalarini qayta ishlash va yo'naltirish kiradi. CSCF uch sub vazifaga bo'lingan - Proksi-CSCF, Serving-CSCF va Interrogating-CSCF. Ularning har birining maqsadi bor.

Xizmatlar-CSCF (S-CSCF) CSCF seans holatini boshqaradi va IMS tizimidagi seansni nazorat qiladi. Bir IMS domenida bir nechta S-CSCF mavjud bo'lishi mumkin, shuning uchun har bir maqsad uchun turli xil S-CSCF (registrator, proksi va hk) foydalanish mumkin. Foydalanuvchiga IMS domeniga ro'yxatdan o'tgan vaqtda S-CSCF-lardan biri tayinlanadi. S-CSCF foydalanuvchi tomonidan talab qilinadigan axborotga va S-CSCF qobiliyatiga muvofiq I-CSCF tomonidan tayinlanadi. Mavjud S-CSCFslarning imkoniyatlari XSSda saqlanadi, ular talab qilingan vaqtda I-CSCF-ga ega. I-CSCF olingan talablarga va HSS javobiga foydalanuvchi uchun S-CSCF belgilaydi. Foydalanuvchilarni ro'yxatga olish uchun S-CSCF ro'yxatdan o'tish talablarini qabul qilib, ko'rib chiqadigan SIP Registrator-server sifatida ishlaydi. U HSS ma'lumotlar bazasida ro'yxatdan o'tkazish maqomini va foydalanuvchining manzilini (IP-manzil) ro'yxatga oladi.

Proksi-CSCF (P-CSCF) Proksi-CSCF IMS domeniga ulanish vaqtida User Equipment (UE) - IMS oxirgi foydalanuvchisi qurilmasining birinchi aloqa nuqtasidir. P-CSCF uyda yoki tashrif buyurilgan tarmoqda joylashgan bo'lishi mumkin. DHCP yoki PDP (Paketli ma'lumotlar protokoli) kontekst mexanizmlari yordamida UE tomonidan aniqlanadi va ro'yxatga olish davomiyligi davomida UEda qoladi. P-CSCF xavfsizlik va autentifikatsiya qilish mexanizmlarini amalga oshiradi (boshqa IMS funktsiyalari UE transportidan foydalanishga ruxsat bergandan so'ng va UE-ni autentifikatsiya qilmasdan keyin IP-CSCF-ga ulanadi), UE bilan IPsec xavfsizlik assotsiatsiyasini o'rnatadi va SIP xabarlarining yaxlitligini tekshiradi bundan tashqari UE dan yuborilgan xabarlar va ularning SDP (Seansni tavsiflash protokoli) tarkibi aniqlaydi. SDP-da belgilangan sens parametrlari foydalanuvchi profiliga mos kelmasa (masalan, UE noma'lum audio/video kodekni talab qilsa yoki yuqori tarmoqli kengligi zaxiralashni xohlasa), P-CSCF bunday seansni o'rnatishga ruxsat bermaydi. P-CSCF shuningdek, axborot resurslarini avtorlash uchun mas'ul bo'lgan Policy Decision Function PDF (Siyosiy qarorlar funktsiyasi) o'z ichiga olishi mumkin, siyosat nazorati, tarmoqli kengligi boshqaruvi va boshqalar. P-CSCF SIP proksi-serverini SIP so'rovlarini qabul qilib, ularga xizmat ko'rsatishi yoki tegishli funktsiyaga

(asosan S-CSCF) yo'naltiriladi. P-CSCF shuningdek, SIP-user vositasi sifatida o'zini tutishi mumkin, ya'ni u anormal sharoitlarda SIP operatsiyalarini to'xtatishi va mustaqil ravishda ishlab chiqarishi mumkin [3].

Adabiyotlar

1. Salchow, K.: Introduction to the IP Multimedia Subsystem (IMS): IMS Basic Concepts and Terminology. Available at: <http://www.f5.com/pdf/white-papers/ims-introduction-wp.pdf>. (11.9.2010)

2. Hart, Ch.: Ensuring a Quality IMS Experience: A Practical Guide to Testing and Monitoring IP Multimedia Subsystem and Services. Von Publishing LLC, 2007.

3. 3rd Generation Partnership Project: 3GPP TS 23.228 V11.1.0 (2011-06) Technical Specification. Technical Specification Group Services and System Aspects; IP Multimedia Subsystem (IMS); Stage 2 (Release 11).


MULTIMEDIA TIZIMIDA VIDEO MA'LUMOTLARNI UZATISH

J.X.Nurmurodov¹, B.E.Sariboyev²

¹Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti assistenti

²Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti talabasi

Multimedia tizimi yuqori tezlikda signallarni o'tkazish qobiliyatiga ega bo'lgan aloqa tarmog'ida ishlaydi va xabarlar paketlarini yetkazib berish vaqtiga juda sezgirdir. Oddiy aloqa tarmoqlarda esa uzatilayotgan paketlarning uz vaqtida yetkazilishiga emas, balki ularni yaxlit uzatilishiga katta ahamiyat beriladi. Shu sababli multimedia aloqasi ma'lumotlarni uzatish va qayta ishlashning alohida texnologiyasi va bayonnomalarini ishlab chiqishni talab qiladi[1].




1-rasm. Videoma'lumotlarni uzatish

Bu yagona aloqa tizimining asosiy tadbiiq yunalishlari quyidagilar;

- Kompyuterli telefonlar;
- Videokonferensiyalar;
- Video ma'lumotlarni uzatish;
- Audio ma'lumotlarni uzatish;
- Yuqori ajrata olishlikka ega (aniklikka) grafikani uzatish.
- Multimedia ma'lumotlarni uzatish (multimedia communication)


-turli xildagi ma'lumotlarni yaxlitlashtirib, umumiy raqamli yuklamaga kurinishga olib kelishni talab etadi[2].



2-rasm. Multimediyada ma'lumotlarni uzatish

Umuman raqamli signallarning kechikish vaqtiga tarmoqda kup omillar ta'sir etadi. Ulardan birinchisi-maxalliy tarmoqqa axborotlarni uzatish uchun qo'llanilgan chiqa olish usulidir. Bunda tarmoqdagi paketlar to'qnashuvi o'zgaruvchan va katta kechikish vaqtiga sababchi bo'ladi.

Tarmoq orqali ma'lumotlarni uzatish tezligi kompyuterlarni o'zaro bevosita ulashdagi tezligidan ancha past bo'ladi[3].




3-rasm. Multimediy tarmog'ida videoma'lumotlarni qayta ishlash.

Tarmoq – marshrutlovchilari orqali paketlar o'tayotganda esa dasturiy ta'minot marshrutlashtirish jadvallari orqali qidiruv olib boradi va bunda marshrutlovchi orqali ma'lumotlarni o'tkazish tezligi kommutatordan utish tezligiga qaraganda ancha past bo'ladi. Shuningdek kechikish vaqti tarmoqdan uzatilayotgan axborotlar tuzilmasiga ham bog'liq[4].

Xalqaro elektroaloqa ittifoqining telekommunikasiyani standartlashtirish bo'limi quyidagi multimedia tizimlari tasnifini tasdiqladi. Terminallar tuzilmasi aloqa tarmog'ining turi va imkoniyatiga qarab xil bo'ladi.

Bu terminal ikkita qismdan iborat-telefon apparata va multimedia tizimidan tashkil topgan shaxsiy kompyuter kurinishiga ega: Nutqiy kodek St723.1 - ovozni 6,3kbit/s tezligida uzatish sifat darajasinn telefondagi nutq uzatishga yaqin olib boradi [5].



4-rasm. Multimedia terminallarining sinflanishi, asosiy tarkibiy qismlari va ularning tuzilmasi.

Multimedia axborotlari quyidagi turlarda bo'lishi mumkin:

- video-xarakatchan rangli tasvirlarning uzluksiz ketma-ketligi;
- audio-nutqiy axborot;
- ma'lumotlar – real vaqt manbaida ketma-ket uzatishni talab etmaydigan raqamdi axborotlar, masalan, xarakatsiz tasvirlar, faks xabarlar, xujjatlar, kompyuter fayllari, kompyuterda qo'llanuvchi ma'lumotlar;
- komandalar – tarqoq, tizim qismlari va terminallarini boshqaruv va xolatini tasvirlash axborotlari [6].

Turli xildagi multimedia terminallari uzaro axborotlar almashinish uchun aloqani maxalliy xisoblash tarmog'i (LAN) orqali N.ZZZ maxsus shlyuzlar yordamida o'rnatishlari mumkin.

Adabiyotlar

1. Baklanov I.G. ISDN i IP-telefoniya / Vestnik svyazi, 1999, №4.

2. Goldshteyn B.S. Signalizatsiya v setyax svyazi. Tom 1. M.: Radio i svyaz, 1998.
3. Goldshteyn B.S. Protokolı seti dostupa. Tom 2. M.: Radio i svyaz, 1999.
4. Nikolayev V. O'zA: Navbat – raqamli televideniye. 13.11.2008. <http://uza.uz/uz/tech/5604/>
5. ETSI YeN 300 744:2009 «Digital Video Broadcasting (DVB), Framing structure, channel coding and modulation for digital terrestrial television.
6. O'z DSt EN 300 744:2010 Raqamli televizion eshittirish (DVB). Raqamli yer usti televideniyesi uchun siklli sinxronizatsiyalash strukturasi, kanalli kodlash va modulyatsiya.

ISDN NI TELEKOMMUNIKATSIYA TARMOG'IGA QO'LLASH


J.X. Nurmurodov¹, B.E.Sariboyev², O.E. Bulboyev²

¹Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti assistenti

²Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti talabalari

Integral raqamli aloqa tarmog'i (IRAT) kommutatsiya maydonlari kanallarning vaqt bo'yicha bo'linish printsipli bo'yicha tuzilgan kommutatsiya uzellaridan (KU); IKM o'zgartiruvchi apparatura bilan jihozlangan bog'lovchi liniyalardan tashkil topgan aloqa tarmog'iga tushuniladi. Kommutatsiya uskunasi boshqarish EBM yordamida amalga oshiriladi[1].

IRAT tashkil etilishda konsentrator (K), tayanch stantsiyalar (TS) va tranzit uzellar (TU) dan foydalanish ko'zda tutiladi (1- rasm).



1-rasm. Konsentrator, tayanch stantsiyalar va tranzit uzellarning ulanish sxemasi

Konsentratorlar (K) podstantsiyalar funksiyasini bajaradi va ularga ulangan axborot manbalaridan keluvchi telefon yuklanmasini konsentratsiyalash (zichlashtirish) uchun mo'ljallangan. Kanallarni vaqti taqsimlash (KVT)–AIM turidagi EATS konsentrator vazifasini bajaradi. Aynan shu erda tovushli axborotni analog-raqamli va raqamli-analogli o'zgartirishlar yordamida raqamli (analog)li signalga aylantirish amalga oshiriladi. Odatda konsentratorlar o'zlarining tayanch stantsiyalaridan sezilarli darajada olis masofaga joylashtirilgan bo'ladi va ularga IKM apparaturasi bilan jihozlangan uzatish tizimining bog'lovchi liniyalari (UTBL) yorda-mida ulanadi. Ayrim hollarda, agar bu maqsadga muvofiq bo'lsa, konsentratorlar tayanch stantsiyada ham joylashishi mumkin[2].

Tayanch stantsiyalar (raqamli EATS) IRAT o'rta zvenosining KU si bo'lib xizmat qiladi va tuman ATS lari hisoblanadi. Har bir TS unga ulangan konsentratorlar guruhi o'rtasida o'zaro aloqani ta'minlaydi. Uzellar tashkil etilmagan telefon tarmoqlarida TS lar o'rtasida ulanish "har biri har biri bilan" printsipli asosida UTBL lar bo'yicha amalga oshiriladi. Yirik telefon tarmoqlarida TS dan tashqari uzellar stantsiyalarini o'rnatish maqsadga muvofiqdir, ularning funksiyalarini IRAT da tranzit uzellar (TU) bajaradi, ular IRAT yuqori zvenosining KU sidir. TU lar TS lar o'rtasi-dagi yuklamani bir biriga ulab beradi[3].


TS va TU lar o'rtasidagi printsiplida farq yo'q. Ular faqat KM blok soni bilan farqlanishi mumkin. Ular UTBL lar soni va EBM ning ishlash dasturi bilan farq qiladi. Agar TS va TU da bir xil turga mansub EBM ishlatilsa, IRAT ning bunday tuzilmaviy tuzilishida bitta konsentrator-dan ikkinchisiga UTBL dan axborot uzatish va TS va TU larda kommutatsiya raqamli shaklda amalga oshiriladi.

Ko'rilayotgan IRAT tuzilmasining ahamiyatli tomoni shundaki, unda uncha katta bo'lmagan qiyinchiliklarsiz raqamli TS va TU lar shahar avtomat telefon stantsiyasi (SHATS) larining vazifalarini bajarish uchun moslashtirilishi mumkin.

Konsentrator va tayanch EATSning umumlashtirilgan tuzilmaviy sxema-si 2, 3 va 4- rasmlarda ko'rsatilgan.

2- rasmda keltirilgan soddalashtirilgan raqamli ATSDa quyidagi funktsional tizimchalarni ajratish mumkin:

- Abonent liniyalarining moduli;
- Kommutatsiya maydoni;
- Bog'lovchi liniyalarning moduli;
- Boshqaruv tizimi.




2- rasm. Raqamli ATS ning soddalashtirilgan sxemasi

Kontsentrator KVT -AIM turidagi EATS, tayanch stantsiya esa raqamli EATS bo'lib, IKM signallarning kommutatsiyasini ta'minlaydi . Kontsen-trator va tayanch stantsiyalarning barcha uskunalarini uchta asosiy guruhga bo'lish mumkin:

1. Kommutatsion uskunasi (KU);
2. Oraliq uskunasi (OU);
3. Boshqaruv uskunasi (BU).

Kontsentratorning asosiy uskunasi IKM o'zgartiruvchi apparaturasini (O'A) kiritish lozim. Kontsentratorning kommutatsion uskunasi KU, kommutatsion maydon KM va unga ulangan abonent komplektlari AK dan iborat. Impuls - vaqtli turidagi kommutatsion maydon 30 ta impulsli kanallarni kommutatsiya qilishga mo'ljallangan, ularning har biri kontsentratorning ixtiyoriy abonentga ulanish o'rnatish vaqtiga va so'zlashuvga berilishi mumkin. Kommutatsiya to'rtsimlik sxema bo'yicha amalga oshiriladi. Ikki simlik abonent liniyasidan to'rt simlik kommutatsion maydonga o'tishni AKda joylashgan standart differensial tizim ta'minlaydi[4].



3- rasm. Kontsentratorning tuzilmaviy sxemasi

Kontsentratorni tayanch stantsiya bilan bog'lovchi liniya o'zgartirish apparaturasi O'A orqali kontsentratorning KM ga ulanadi. Uzatish yo'nalishida ARO' va RAO' qabul kilish yo'nalishida IKM-30 apparaturasi bilan jihozlangan bog'lovchi liniya bo'yicha bir vaqtning uzida 30 ta so'zlashuvni amalga oshirish mumkin.

Aloqa ishonchliligini yuksaltirish uchun kontsentratorni ikkita UTBL yordamida tayanch stantsiyasiga ulash kerak, shu bilan kontsentratorning KM da barcha abonentlar uchun 60 ta (30 x 2) impulsli kanallarni to'la imkonli ulash sxemasi ta'minlanadi. Bu holda kanalning o'rtacha ishlatilishi 0,7 ga teng bo'lganda ikkita UTBL ning o'tkazish qobiliyati $u=42$ Erl. bo'ladi. Har bir abonent liniyasidagi yuklama $a=0.08$ Erl ga teng bo'lganda kontsentratorning maksimal sig'imi 525 liniyani tashkil etadi. Bitta UTBL ishdan chiqqan holda butun yuklanishni o'ziga boshqa UTBL oladi. Bunda xizmat ko'rsatish sifati yomonlashadi, biroq kontsentratorning tayanch stantsiya bilan aloqasi saqlanib qoladi[5].

Adabiyotlar

1. XEI-T I.410 Tavsiya "ISDN "foydalanuvchi-tarmoq" interfeyslari bo'yicha tegishli tavsiyalarning umumiy jihatlari va printsiplari".
2. XEI-T I.411 Tavsiya "ISDN "foydalanuvchi-tarmoq" interfeysi-Bazis konfiguratsiyalari".
3. XEI-T I.412 Tavsiya " ISDN "foydalanuvchi-tarmoq" interfeyslari – Interfeys tuzilmasi va foydalanishning real resurslari".
4. Рекомендация МСТИ 430 Основной интерфейс “пользовател - сет”
5. ETSI TBR 003 Attachment requirements for terminal equipment to connect to an ISDN using ISDN basic access.

BIR MODDALI OPTIK KABELLAR VA ULARNING HUSUSIYATLARI

J.X. Nurmurodov¹, S.Yazdanov

¹Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti assistenti


²Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti talabasi

To'lqin uzunligiga nisbatan o'zak diametriga bog'liq ravishda optik tolalar bir modali va ko'p modaliga bo'linadi. Bir modali optik tolalarda ko'pincha o'zak diametri 7-10 mkm (1.1.a-rasm), ko'p modali optik tolalarda esa 50-62,5 mkm (1.1.b-rasm) bo'ladi. Ikkala turda qobiq diametri 125 mkm ni tashkil etadi. Amaliyotda ko'p modali va bir modali optik tola diametrlarining boshqa qiymatlari ham mavjud. Bir modali optik toladan faqat bir moda (yorug'lik tashuvchi) uzatiladi.


Ko'p modali optik toladan esa apertura burchagi doirasida tolaga turli burchaklar ostida kiritiladigan bir necha yuzlab ruxsat etilgan modalarni bir vaqtda uzatish mumkin. Barcha ruxsat etilgan modalar turli tarqalish yo'li va vaqtiga ega.

Ko'p modali optik tolalar sindirish ko'rsatkichi n bo'yicha pog'onali (1.2.a-rasm) va gradiyent (1.2 -rasm) tolalarga bo'linadi [1].

Pog'onali sindirish ko'rsatkichli ko'p modali optik tolalar ikki muhit chegarasida sindirish ko'rsatkichlarining keskin (pog'ona ko'rinishida) o'zgarishi (n_1 dan n_2 ga) bilan xarakterlanadi. Pog'onali sindirish ko'rsatkichli optik tolalar o'tkazish polosasini chegaralaydi, lekin gradiyent sindirish ko'rsatkichli optik tolalarga nisbatan arzon hisoblanadi [2].



1.1-rasm. Bir modali (a) va ko'p modali (b) optik tolalarning ko'ndalang kesimi



1.2-rasm. Pog'onali (a) va gradiyent (b) ko'p modali optik tolalarning tuzilishi va sindirish ko'rsatkichi ko'rinishlari.

Gradiyent sindirish ko'rsatkichli ko'p modali optik tolalar pog'onali sindirish ko'rsatkichli tolalarga qaraganda ravon sindirish ko'rsatkichiga va modalararo dispersiyaning kamayishi bo'yicha yuqori texnik ko'rsatkichlarga ega. Chunki gradiyent sindirish ko'rsatkichli optik tolada modalarning tarqalish tezligi (dispersiyasi) bir-biridan juda ham katta farq qilmaydi. Dispersiya impulslarning kengayib ketishiga, uzatilayotgan signallarning buzilishiga olib keladi. Shuning uchun hozirda gradiyent sindirish ko'rsatkichli ko'p modali optik tolalar keng tarqalgan. Gradiyent sindirish ko'rsatkichli ko'p modali optik tolalarning eng asosiy kamchiligi ularning qimmatligi va ishlab chiqarishni murakkabligidir [3].

Ko'p modali optik tolalarda modalararo dispersiya o'tkazish polosasi va aloqa masofasini chegaralaydi.

Bir modali optik tolalardan magistral aloqa tarmoqlarida foydalaniladi. Chunki bir modali optik tolalarda signallar ko'p modali rejimga qaraganda kam buzilish bilan uzatiladi. Turli tolalar bo'ylab optik signallarning tarqalishi 1.4-rasmda tasvirlangan [4].

Bir modali tola. Pog'onasimon bir modali tolada (SF) nur o'tkazuvchi tola o'zak diametri 8–10mkm ni tashkil etadi bu esa tola bo'yicha uzatilaётgan nur to'lqin uzunligiga yaqinroqdir. Bunday tola bo'yicha katta to'lqin uzunlikda ya'ni faqatgina bitta to'lqin xarakatlanadi shuning uchun bu rejim bir modali rejim deb yuritiladi. Bunday tolalardagi bir modali rejimida 1310 va 1550nm to'lqin uzunliklari qo'llanadi. Bu to'lqin uzunliklarida tola bo'ylab faqatgina bir dona to'lqin xarakatlanadi va u modalararo dispersiyani yo'qotadi hamda katta o'tkazish qobiliyatini yaratib beradi. Dispersiya nuqtai nazardan oladigan bo'lsak eng yaxshi rejim 1310nm to'lqin uzunligida bo'lib, unda faqatgina xromatik dispersiya hosil bo'ladi. Tolaning so'nish tomonidan oladigan bo'lsak bunday to'lqin uzunlikda 0.3–0.4dB/km so'nish sodir etsa, 0.2–0.25dB/km so'nish 1550nm to'lqin uzunlikda erishiladi [5].

Dispersiyasi siljirilgan bir modali tolada (DSF), ya'ni natijaviy dispersiya nol bo'lgan xolda nolli dispersiyaning to'lqin uzunligi 1550nm. Bunday siljitish asosan optik tola o'zagining sindirish ko'rsatgichi maxsus 112 profil ko'rinishiga keltiriladi (12.2 g rasm). SHunday qilib tola o'zagining dispersiyasini siljirilishi tola xarakteristikasini ya'ni dispersiya va so'nishni minimumga keltiradi. Ushbu keltirilgan tolalardan tayèrlangan kabellar qo'llansa regeneratorlar orasidagi masofa 100 kilometrgacha bo'lgan magistral tarmoqlarini qurish mumkin, bunday hollarda to'lqin uzunlik 1550nm bo'ladi. Dispersiyasi siljilib nol bo'lmagan bir modali NZDSF turdagi tola DSF turdagi tolaga nisbatan bir muncha optimizatsiyalashtirilgan bo'lib unda bitta to'lqin uzunliklar ishlatilmay bir nechta to'lqin uzunliklar (multipleksirlashtirilgan to'lqin signallari) uzatish uchun qo'llanadi. Bunday tolali optik kabellar —to'liq optik tarmoq lardan iborat bo'lgan tarmoqlarda va katta magistralarda qo'llaniladi [6].

Adabiyotlar

1. Grodnev I.I. Volokonno–opticheskiye liniya svyazi. – M.: «Radio i svyaz», 1990–224s.
2. Slepov N.N. Sinxronniye sifroviye seti SDH.–M.:EKO–TRENDZ,1997.–148s.
3. Slepov N.N. Arxitektura i funktsionalnyye moduli setey SDH. «Seti i sistemi svyazi». №1,1996, – 9s.
4. Volokonno–opticheskiye linii mejstansonnoy svyazi. Spravochnoye posobiye, Vasilyev V.N., Semeykin V.D., T: TEIS,1997.
5. Volokonno–opticheskiye liniya svyazi. Uchebnoye posobiye, Vasilev V.N., Smorzhnevskiy V.S. T: TEIS,1997.
6. Grodnev I.I., Vernik S.M., Kochanovskiy L.N., Liniya svyazi. M: «Radio i svyaz», 2005

WAN TARMOQLARINING XUSUSIYATLARI VA XIZMATLARI

J.X. Nurmurodov¹, S.Yazdanov², D.Qobilov²

¹Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti assistenti

²Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti talabalari

WAN (Wide Area Networks) global tarmoqlari,shuningdek xududiy kompyuter tarmoqlari deb xam ataladi, katta xudud bo‘ylab – mintaq, region, mamlakat, qit’a yoki butun er shari miqyosida yoyilgan katta miqdordagi oxir abonentlarga o‘z xizmatlarini taqdim etish uchun xizmat qiladi. Global kompyuter tarmog‘ining tipik abonentlari – bu turli shaxar va mamlakatlarda joylashgan va bir-biri bilan axborot almashinishi kerak bo‘lgan tashkilotlarning lokal tarmoqlaridir. SHuningdek, global tarmoq xizmatlaridan aloxida kompyuterlar xam foydalanadi. Meynfreymlar toifasiga oid yirik kompyuterlar odatda korporativ ma’lumotlardan foydalanish imkonini ta’minlab beradilar, shaxsiy kompyuterlar esa korporativ ma’lumotlar va Internetning ommaviy ma’lumotlardan foydalanish uchun ishlatiladi[1].

Lokal va global xisoblovchi tarmoqlar asosida bitta metod – paketlar kommutatsiyasi metodi yotishiga qaramay, global tarmoqlar lokal tarmoqlardan ko‘p jixatdan farqlanadi. Bu farqlanishlar xam xizmat tamoyillariga (m-n, marshrutizasiya tamoyillari TCP/IP tarmoqlaridan tashqari qolgan xamma global tarmoq turlarida avvaldan virtual kanal yaratishga asoslangan), xam terminoloiyaga bog‘liq.

Xozirgi vaqtda xududiy kompyuter tarmoqlarining ko'pchiligi faqatgina kompyuter ma'lumotlarini uzatishni ta'minlab bermoqda, ammo qolgan turdagi ma'lumotlarni uzata oluvchi tarmoqlar soni doimiy ravishda oshib bermoqda.


Oxir foydalanuvchilarga global tarmoq tomonidan taqdim etiladigan xizmatlarning ko'rib chiqilgan ro'yxatidan ko'rinib turibdiki, undan asosan *OSI* modelining eng pastki uchta darajasidagi xizmatlarni taqdim etish uchun tranzit transport texnologiyasi sifatida foydalaniladi. Xaqiqatda, korporativ tarmoq qurilishida ma'lumotlar ushbu tashkilot local tarmoqlariga tegishli kompyuterlarda saqlanadi va ishlab chiqariladi, global tarmoq esa bu ma'lumotlarni bir local tarmoqdan boshqasiga o'tkazadi. SHuning uchun local tarmoqlarda *OSI* modelining barcha ettita darajasi, shu jumladan ma'lumotlardan foydalanish xuquqini beruvchi, ular shaklini o'zgartiruvchi, axborotni noqonuniy foydalanishdan ximoya qilishni tashkillashtirishni taqdim etuvchi amaliy daraja xam ishlaydi[2].

Biroq oxirgi vaqtda protokollar stekining yuqori darajasiga taalluqli global tarmoq vazifalari xisoblovchi tarmoqlarda sezilarli rol o'ynay boshladi. Bu birinchi navbatda *Internet* tarmog'ida ommaviy taqdim etilayotgan ma'lumotlarning mashxurlashib ketiganligi bilan bog'liq. Internet tomonidan taqdim etilayotgan yuqori daraja xizmatlarining ro'yxati etarli darajada keng. Aloxida kompyuterlardan emas, balki xaqiqatda xam butun global tarmoqdan ma'lumot manbai sifatida foydalanib, katta miqdordagi kesishgan ssylkalarga ega Web-tugunlardagi gipermatnli ma'lumotlardan foydalanishdan tashqari, bu erda ovozli yozuvlarni tarqatishda radio orqali efirga uzatishga raqobat tashkil qilayotgan keng efirga uzatish, interfaol "suxbat" – *chat*larni tashkillashtirish, qiziqishlar doirasida konferensiyalarni tashkillashtirish (*News* xizmati), yakka tartibdagi buyurtmalarga binoan ma'lumotlarni izlash va etkazib berish va shunga o'xshash boshqa ko'pgina xizmatlarni qayd etib o'tish kerak.

Ushbu axborot (transport emas) xizmatlar faqatgina uy sharoitida foydalanuvchilarga emas, balki tashkilot xodimlari ishiga xam o'z ta'sirini o'tkazadi. Chunki xodimlar Internetda boshqa tashkilotlar tomonidan nashr etiladigan axborotlardan foyadlanadilar, xamkasblari bilan konferensiya va chat orqali muloqot qiladilar, va shu yo'l bilan etarli darajada tez yechimi topilmagan muammolarni xal qiladilar[3].

Global kompyuter tarmog'ining tipik tuzilmasi 1-rasmda keltirilgan. Bu erda quyidagi belgilardan foydalaniladi: S (Switch) – kommutatorlar, K – kompyuterlar, R (Router) – marshrutizatorlar, MUX (Multiplexor) – mul'tipleksor, UNI (User-Network Interface) – foydalanuvchi-tarmoq interfeysi va NNI (Network-Network Interface) – tarmoq-tarmoq interfeysi. Bundan tashqari, idora *ASi PBX* abbreviaturasi bilan, kichkina qora to'rtburchaklar bilan esa *DCE* qurilmalari belgilangan, ular xaqida quyida aytib o'tamiz.

1- rasmda keltirilgan global xisoblovchi tarmoq kompyuter trafigi uchun eng qulay bo‘lgan rejim – paketlar kommutatsiyasi rejimida ishlaydi. Faqatgina jamlanma trafik ma’lumotlarigina emas, balki bunday xududiy tarmoq xizmatlarining narxi xam bu rejimning local tarmoqlar aloqasi uchun eng maqbul ekanligini isbotlaydi. Odatda taqdim etilayotgan foydalanish tezligining tengligida kanallar kommutatsiyasiga ega tarmoq, ya’ni jamoat telefon tarmog‘iga qaraganda, paketlar kommutatsiyasiga ega tarmoq 2-3 baravar arzonroq bo‘ladi[4].



1.

1- rasm . Global tarmoq tuzilmasiga misol

Qanday tarkibiy qismlar ijaraga olinayotganligiga qarab, korporativ tarmoqlarni farqlash qabul qilingan. Ularni qurishda quyidagilarga qarab farqlash mumkin:

- Ajratilgankanallar;
- Kanallarkommutatsiyasi;
- Paketlarkommutatsiyasi.

Paketlar kommutatsiyasiga ega tarmoq barcha geografik nuqtalarda mavjud bo‘lib, ularni bitta korporativ tarmoqqa birlashtirish kerak bo‘lganda paketlar kommutatsiyasi yordamida qurilgan tarmoq eng maqsadga muvofiq.

Adabiyotlar

1. S.Clavenna, “Metro Optical ethernet,” Light reading (www.lightreading.com), November 2000.

2. FTTx: Gde optimalnoe mesto dlya «x» // Jurnal «Seti i sistemi svyazi» № 9, sentyabr 2008

3. Djon Gauyer “Opticheskiy sistemi svyazi”. (Per.Sangi.) M. Radno , 1989

4. Vasilev V.N. Volokonno–opticheskiye svetovodi: uchebnoye rosobiye, TUIT, Tashkent,2002.

5. Volokonno–opticheskiye linii mejstansonnay svyazi. Spravochnoye posobiye, Vasilev V.N., Semeykin V.D., T: TYeIS,1997.


KOMMUTATSIYA TUGUNI VA RAQAMLI KOMMUTATSIYA TIZIMLARIDA SIGNALIZATSIYA VA SINXRONIZATSIYA TAHLILI

A.B.Alimov, Z. X. Azamov, O.A.Usarov, D. J. Qobilov

Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti Samarqand filiali 3-kurs talabalari

Abonent kurilmalarini bir-birlari bilan ulash jarayoni kommutatsiya tugunlarida (KT) amalga oshiriladi. Kommutatsiya tuguni ma'lumotlarni kabul qilish, kayta ishlash va taksimlash vazifasini bajaruvchi kurilmadan iborat. Uz vazifasini bajarish uchun kommutatsiya tuguni uch kismdan – kommutatsiya maydoni (KM), boshkarish kurilmasi (BK) va komplektlardan tuzilgan (1-rasm).

Kommutatsiya maydoni ma'lumotlarni uzatish vaktida kirish liniyalarni chikish liniyalari bilan ulash vazifasini bajaradi. Boshkarish kurilmasi kommutatsiya maydoni orkali aloka urnatilishini xamda liniya xizmat komplektlarini boshkarishni taminlaydi. Liniya va xizmat komplektlarini abonent va turli stansiyalar bilan aloka urnatish jarayonida liniya, boshkarish va boshka xizmat signallarni uzatish va kabul qilish vazifalarini bajaradi[1].



1-rasm. Kommutatsiya tuguni tuzilishi

Kommutatsiya tugunlari quyidagi belgilar buyicha farqlanadi:

- aloka urnatish usuli buyicha (kulda , yarim avtomat va avtomat)
- aloka tarmogida urnatilgan joyiga nisbatan (tuman, markaziy tugun, oxirgi, oralik, tandem stansiyalari, xamda kirish va chikish alokalari tugunlari);
- aloka tarmogi turiga nisbatan (shaxar, kishlok, tashkilot, shaxarlararo va xalkaro); - kommutatsiya va boshkarish kurilmalari turiga nisbatan (mexanik,

Paketni yetkazib berish kechikishining qiymati tasodifiy bo'lib, ehtimollik taqsimoti va uning parametrlari bilan tavsiflanadi. Y.1541 tavsiyalarida IPTD o'rtacha qiymatning yuqori chegarasi sifatida belgilangan [3]. Bunday ta'rifni matematik kutishni baholash uchun ishonch oralig'ining yuqori chegarasi sifatida talqin qilish mumkin. Paket yetkazib berish jitter yoki jitter (IPDV) tarqalishi xizmat ko'rsatish sifatining ikkinchi muhim xususiyati hisoblanadi. VoIP singari bir qator xizmatlarda, masalan VoIP, haddan tashqari kechikish tarqalishi suhbatdoshning reaksiyasining sezilarli darajada kechikishi yoki so'zlar va iboralar qismlarining "yo'qolishi" tufayli xizmat ko'rsatish sifatining pasayishiga olib keladi. Shuning uchun, ushbu qiymat ushbu xizmat ko'rsatish klassi uchun belgilangan muayyan standartga mos kelishi kerak.

Adabiyotlar ruyxati.

1. А.Е. Кучерявый, А.Л. Цуриков. Сети связи следующего поколения. Центральный научно-исследовательский институт связи (ЦНИИС), Москва, 2006.

2. Д.В. Андреев, Д.В.Тарасов, А.Е.Кучерявый. Модельные сети для тестирования технических средств сетей связи следующего поколения. Рекомендация Q.3900. Электросвязь, №12, 2007

3. Б.С. Гольдштейн, Н.А. Соколов, Г.Г. Яновский. Сети связи. Учебник для ВУЗов // СПб.: БХВ-Петербург, 2011.

РАҚАМЛИ СИГНАЛ КОЭФФИЦИЕНТЛАРИНИ ҲИСОБЛАШ

Ғ. Юлдошев¹, М.О.Шамиев²

¹Ўзбекистон Республикаси Мудофа Вазирлиги

²Тошкент ахборот технологиялари университети Самарқанд филиали.

Одатда Фурье қатори рақамли сигналларни таҳлил қилишда қўлланилади. Ушбу ҳолда Фурье қатори қийматлари даврийлик шартларидан фойдаланилган ҳолда автоматик равишда амалга оширилади. Шу билан бирга Фурье коэффициентларини ҳисоблаш интерполяция билан чамбарчас боғлиқ. Бундан ташқари Фурье коэффициентларини ҳисоблашда аниқлилик паст кўрсаткичда бўлиб келган.


Фурье қаторининг назарий асослари

$f(x)$ сигнални $(0, \ell)$ оралиқда доимий функция деб қабул қиламиз[1]. У ҳолда функцияни қуйидагича ёзамиз

$$\|f(x)\| = \left(\frac{1}{\ell} \int_0^{\ell} (f(x))^2 dx \right)^2 \quad (1)$$

У ҳолда қуйидаги шартлар бажарилсин:

$$f(0)=0, f(\ell)=0 \quad (2)$$



1-расм. $f(x)$ функцияни оралиқларга ажратиш.

Шу билан бирга $f(x)$ функцияни $(-\ell, \ell)$ оралиқда тоқ функция деб қабул қиламиз. Бундай ҳолда $f(x)$ функцияни қуйидагича Фурье қаторига ёямиз (1-расм).

$$f(x) = \sum_{k=1}^{\infty} b_k \cdot \sin(k \cdot \frac{\pi}{\ell} x) \quad (3)$$

бу ерда

$$b_k = \frac{2}{\ell} \int_0^{\ell} f(x) \cdot \sin(k \cdot \frac{\pi}{\ell} x) dx, k=1, \dots, \infty \quad (4)$$

Фурье қаторининг ишончлилигини ҳисоблаш

$f(x)$ функцияни юқоридаги шартларни қўллаган ҳолда қараб чиқамиз.

Бунинг учун қуйидаги ифодаларни эътиборга олиш лозим.

$$f_n = f(x_n), x_n = n \cdot h, n=0, \dots, N$$

бу ерда $h = \ell / N$

у ҳолда қуйидаги интерполяция ўринли ҳисобланади [2]

$f(x) \cdot \sin(k \cdot \frac{\pi}{\ell} x)$, бу ерда k -бутун сон

$$f(x) \cdot \sin(k \cdot \frac{\pi}{\ell} x) \approx f_n \cdot \sin(k \cdot \frac{\pi}{\ell} x_n), x \in [x_n, x_{n+1}), n=0, \dots, (N-1) \quad (5)$$

(5) ифодага мувофиқ (4) ифодани қуйидагича ёзамиз.

$$b_k \approx b_{h,k} = \frac{2}{N} \left(\sum_{n=0}^{N-1} f_n \cdot \sin(k \cdot \frac{\pi}{N} \cdot n) \right), k=1, \dots, (N-1) \quad (6)$$

Қуйидаги тенгликни ҳисобга олиб, (6) ифодани қуйидагича ёзамиз.

$$\{(x_n^*, f(x_n^*))\}_{n=0}^{(N/\lambda)} = \{(x_{\lambda \cdot n}, f_{\lambda \cdot n})\}_{n=0}^{N/\lambda}$$

$$b_{\lambda \cdot n, k} = \frac{2 \cdot \lambda}{N} \left(\sum_{n=0}^{N/\lambda - 1} f_{\lambda \cdot n} \cdot \sin(k \cdot \frac{\pi}{N} \cdot (n \cdot \lambda)) \right), k=1, \dots, (N/\lambda - 1) \quad (7)$$

Юқоридаги ифодалардан қуйидаги тенглик келиб чиқади

$b_k \approx b_{2h,k}$ буни нисбий хатолик билан боғлаб қуйидаги ифодага эга бўламиз

$$|b_{h,k} - b_{2h,k}| < \eta \cdot |b_{2h,k}|, k=1, \dots, (N/2) \quad (8)$$

Фурье коэффициентларини ҳисоблашдаги натижалар.

1-жадвал

k	$b_k = (-1)^{k-1} \frac{2}{\pi \cdot k}$	$b_{2h,k}$	$b_{h,k}$	$\eta = \frac{ b_{h,k} - b_{2h,k} }{ b_{2h,k} }$
1	0.63662	0.637	0.637	2.5e-06
2	-0.31831	-0.318	-0.318	9.9e-06
3	0.212207	0.212	0.212	2.2e-05
...
43	0.01481	0.01417	0.01478	0.00461
44	-0.01446	-0.01438	-0.01445	0.00483
45	0.01415	0.01405	0.01412	0.00505
...

Юқоридаги ифодадан Симпсон ифодасини келтириб чиқарамиз

$$b_k \approx b_{\lambda \cdot h, k}^{Simpson} = \frac{2 \cdot \lambda}{3 \cdot N} \sum_{n=1}^{N/(2\lambda)} \left\{ 4 \cdot f_{\lambda(2n-1)} \cdot \sin \left(k \cdot \frac{\pi}{N} \cdot \lambda \cdot (2n-1) \right) + 2 \cdot f_{\lambda 2n} \sin \left(k \cdot \frac{\pi}{N} \cdot \lambda \cdot 2n \right) \right\} \quad (10)$$

Биз юқорида, рақамли сигналлар коэффициентларини ҳисобладик ва жадвалда уларнинг қийматларини солиштириш имкониятига эга бўлдик. Бундан ташқари дискрет қийматлар кетма-кетлиги учун (7) ва (10) формулалар бир хил самарага эга эканлигини кўриш мумкин [3].

Адабиётлар

1. Холиқов А.А., Умаров Ф.Ф. Радиотехник тизимлар назарияси асослари. Тошкент. “Ўзбекистон”. 2004 й.
2. Бари Н.К. Тригонометрические ряды. - Москва: Физматлит, 1961, 936 с.
3. Федосов, В. П. Цифровая обработка сигналов в LabVIEW [Текст] / В. П. Федосов, А. К. Нестеренко. М.: ДМК Пресс, 2007.

КЕЙИНГИ АВЛОД ТАРМОҚЛАРИ АРХИТЕКТУРАСИНИ ТАХЛИЛ КИЛИШ

Ж.Р.Киличов¹, А.Х.Абдураимов², Н.А.Жабборов³

¹Мухаммад Ал-хоразимий номидаги ТАТУ Самарканд филиали
ассистенти +998942992324

^{2,3}Мухаммад Ал-хоразимий номидаги ТАТУ Самарканд филиали
талабалари

Кейинги авлод тармоғи ёки НГН ҳозирги кунда телекоммуникация операторлари томонидан бўлгани каби уларнинг буюртмачиларида ҳам катта қизиқиш уйғотди. Бундай қизиқиш инсон ва бизнеснинг ҳар кунги ҳаётида замонавий ахборот-коммуникация технологияларнинг таъсири ошиши билан асосланган. Бугунги кунда ишлаб турган телефон тармоқлари ўтказиш полосасига қўйиладиган юқори талаблари ва ҳамма жойда бўладиган тарқалиши билан янги иловалар учун мўлжалланмаган эди. Интернет ушбу иловаларни қабул қила олади, лекин қабул қилинадиган ундаги максимал куч (БестЕфорт) принципи хизмат кўрсатиш ва химоя босқичининг зарур классларини таъминлай олмайди. Кўп йиллик эволюцион ривожланганлигига қарамаздан, интернет жавобининг талаб этувчи барқарор юқори тезликли

иловининг ишлаши учун бўлган каби нутқ ва видеотасвирларни юқори сифатли узатиш учун мос келадиган муҳит бўлмади[1].

Замонавий тармоқларнинг камчиликларидан бири уларнинг тор махсус мақсад учун белгиланиши ҳисобланади. Алоқанинг ҳар бир тури учун ҳеч бўлмаганда битта мустақил тармоқ керак бўлади. Натижаси ишлаб чиқиш, ишлаб чиқариш ва техник хизмати кўрсатишининг ўз босқичини талаб этадиган ажратилган тармоқларнинг ҳар бири ушбу тармоқларнинг энг кўп сонининг мавжудлиги ҳисобланади. Бунда бир тармоқнинг ресурслари, одатда, бошқасидан фойдаланмаслиги мумкин. Ахборот ресурслари билан тармоқлар ва хизматларнинг номенклатураларини функционалликни бир вақтда кенгайтириш билан ахборот ресурсларини самарали бошқаришда эҳтиёж юзага келади. Ушбу масалани амалга ошириш учун тўлиқ функционал мультисервис тармоқ талаб этилади. Уларни яратиш кейинги авлод алоқа тармоқларининг асоси бўлади.


Янги авлод тармоғи – бу телекоммуникациянинг юз йиллик эволюцион ривожланиш меваси ҳисобланади, унда умумий фойдаланишдаги телефон тармоғининг масштаблилиқ ва ишончлилиқ Интернет тармоғининг кўлами ва мослашуви билан мос келади. Кейинги авлод тармоғи алоқанинг ва маълумотлар узатилишининг барча эҳтиёжларини таъминланган асосланган универсал телекоммуникация инфратузилмаси бўлади. У ўзаро Интернетни оддий телефон ва сисиз тармоқни боғлайди. Бундан ташқари, фойдаланувчиларда ўзларининг эҳтиёжларига мувофиқ коммуникация серверларни “конструкциялаш” имконияти юзага келади.

НГН умумий фойдаланишдаги телефон тармоғи (УфТТ) учун характерли бўлган ишончлилиқ даражасига эга ва интернет бўйича маълумотларни узатиш баҳоси яқинлашган ахборот ҳажмининг бирлиги ҳисобида узатишнинг куйи баҳосини таъминлайди. НГН пакетли телефониядан (VoIP) интерактив телевидения ва WEB хизматгача – универсал транспорт муҳити устида қўйилган сервислар тузилиши имкониятларининг массасини очади.

Уй ва корпоротив фойдаланувчилар ИП-телефония. Интернетга тез кира олиш, оқимли видео ва аудио, узоқдаги иш, виртуал ажратилган тармоқ (ВПН), электрон бизнес, кўнгилочар хизматлар, масофодан ўқитиш ва бошқалар. Талаб алоқа тармоқларига қўйиладиган техник талаблар акс этиши тадқиқ этилиши зарур бўлган хизматлар қандай бўлишини белгилайди.

Ҳозирги кунда Ўзбекистон телекоммуникация инфратузилмасини ривожлантириш қонун ҳужжатлари ва норматив ҳуқуқий базасини такомиллаштириш Давлат бошқарув органлари, иқтисодиёт, ўқитиш,

соғлиқни сақлаш, маданиятга АКТни юритиш, шунингдек Дунё ахборот ҳамжамиятида уларни интеграция қилиш учун йўналтирилган фаол сиёсат асосида олиб борилмоқда[2].



1.1-расм. НГН тармоғининг поғонали архитектураси.

Янги ахборот технологиялар бозорида босқичма-босқич ривожлантириш ва реконструкция қилиш НГН гача тармоқни текис модернизация қилиш ва тақдим этиладиган хизматлар рўйхатини кенгайтириш имконини беради. Кейинги авлод тармоғи иккита телекоммуникация ва ахборот, бошқача айтганда, телефон ва компьютер соҳасининг бирикиш жараёнида акс этади. Шу сабабли телефониянинг классик хизматларидан бошлаб, маълумотларини турли узатиш хизматлари ёки уларнинг комбинацияларигача хизматларнинг кенг тўпламини таъминлайди.

Адабиётлар рўйхати

1. Ўзбекистон Республикаси Радио частота спектри тўғрисидаги қонун 25.12.1998-йил №725-1.
2. Гольдштейн А.Б., Гольдштейн Б.С. Технология и протоколы МПЛС. С-Пб.: БХВ-Санкт-Петербург, 2005.

4G ТЕХНОЛОГИЯСИНИНГ РИВОЖЛАНИШИДАГИ ХАВСИЗЛИК МУОММОЛАРИНИ БАРТАРАФ ҚИЛИШ.

С.А.Мухаммадиев¹, О.А.Ўсаров²

¹ТАТУ Самарқанд филиали М101-19 гуруҳ магистранти.

²ТАТУ Самарқанд филиали 3-курс таълабаси

4G технологияларининг шиддатли ривожланишига қарамай, экспертлар уларни ишга туширишда бир қатор тўсиқлар бўлиши мумкинлигини таъкидлашмоқда.

Биринчидан, кўплаб операторлар учун янги частоталар спектрини лицензиялаш керак бўлади, чунки 3G технологияларида сигнални узатиш ва қабул қилиш учун 5MGs полосалар етарли бўлса, LTE ва WiMAX технологияларидаги тезлик афзалликларига эришиш учун камида икки марта кенг полосалар талаб қилинади.

Иккинчидан, шу нарса кўзда тутилмоқдаки, тўртинчи авлод тармоқларини ишга туширишда капитал харажатлар 2G тармоқларидаги ёки 3G тармоқларидаги харажатларга нисбатан анча катта бўлади[1].

Бу асосан ҳозирги кунда фойдаланилаётган транзит (магистрал) каналлар чекланган ўтказиш қобилиятига (1,5 – 2 Mbit/sek) эгаллиги билан тушунтирилади, яъни қўшимча равишда бу каналларни модернизациялаш ҳам талаб қилинади.

Яна бир муаммо шундаки, кўплаб сармоядорлар эҳтиёткорлик қилишмоқда: улар ўз вақтида кўпчилик 3G тармоқларининг имкониятларини ортиқча баҳоланишидан “куйиб қолиб”, бугунги кунда 4G лойиҳаларидан керакли иқтисодий даромад қайтишига ишончлари йўқ. Бундан ташқари, бозорда ҳанузгача 4G абонент ускуналари бўйича етарли таклифлар йўқ. Бундай терминаллар жуда катта энергия истеъмол қилади ва замонавий аккумуляторларда узоқ ишлай олмайди (ҳозир бу каби муаммолар ҳатто 3G терминалларида ҳам мавжуд), яъни янги сифатли аккумуляторлар яратилиши керак бўлади. Шунингдек, Интернетга тезкор уланиш ва ҳар хил видеохизматлар ҳозирги терминаллардагига нисбатан

ўлчам бўйича катта ва сифатлироқ дисплейларни талаб қилади[2].

Бундан ташқари, мутахассислар 4G хизматлари яқин йилларда абонентлар орасида оммавий бўлишига ишонмай турибдилар. Мисол учун, Европада, ҳозир 3G биринчи тармоқлари ишга туширилганига 6-7 йилдан ошган бўлса-да, бу хизматлар ўз имкониятларининг ярми даражасида ишлатилмоқда. (Таҳлилчилар буни учинчи авлод алоқа хизматларига ўрнатилган юқори тарифлар билан боғламоқдалар). Демак, 4Gнинг муваффақиятида ҳам операторларнинг нарх сиёсати муҳим ўрин тутди. Ҳақиқатан ҳам, фойдаланувчиларнинг ҳаммаси ҳам юқори тезликка эга эмас.

Интернетга мобил уланиш ва шу билан боғлиқ хизматлардан манфаатдор

эмас - кўпчиликка оддий товушли алоқа керак, холос. Шу боис, бир қатор

экспертлар тахмин қилганидек, 3G муаммоларини ҳисобга олган ҳолда, тўртинчи авлод технологияларининг телекоммуникация хизматлари бозорига таъсири фақат 2015-2020 йилларга келиб, сезиларли аҳамият касб этади, дейиш мумкин.

Баъзи операторлар учинчи авлод тармоқларини жорий этишдан воз кечмаяптилар, фақат “бир авлоддан сакраб ўтиш”га тайёрланиш учун уларнинг қўлланиш миқёсини биров чегараламоқдалар. Айрим ишлаб чиқарувчилар эса турли шароитларда фойдаланувчининг ўзи танлай оладиган уланиш усули имкониятини берадиган 4G доирасидаги мобил ва кенг полосали симсиз тармоқларнинг “чатишмаси” ни яратишни таклиф қилмоқдалар[3].

Мобил ва кенг полосали технологиялар янги авлодининг ривожланишида таъкидлаб ўтилган муаммоларнинг таъсири қанчалик бўлишини яқин орада биринчи LTE тармоқлари ишлатиб кўрилгач, уларнинг барча кучли ва кучсиз томонлари аниқланганида кўриш мумкин бўлади. Шунингдек, LTE имкониятларини WiMAX ва бошқа технологиялар тавсифлари билан таққослаш ҳам мумкин бўлади.

АДАБИЁТЛАР

1. Evolution to LTE report. GSA материаллари. May 11, 2011.
http://www.gsacom.com/gsm_3g/info_papers.php4.
2. CDMA Statistics. CDG материаллари. April 21, 2011.
http://www.cdg.org/resources/cdma_stats.asp
3. Л.М. Невдяев. Мобильная связь 3-го поколения. – М: Связь и бизнес, 2000. С.18-19, 33.

ХАВСИЗЛИК КОМПЛЕКС ТИЗИМЛАРИНИНГ ТУЗИЛМАСИ

Ш.Ю. Джаббаров¹, Н.Р. Сабурова²

¹ТАТУ МУТ ва Т кафедраси, Shuhrat_djabbarov@mail.ru, 90-949-22-59

²ТАТУ, МУТ ва Т кафедраси, 94-535-47-33

Объектнинг криминалдан ҳимояланишни таъминлаш вазифаси ўз функцияларини алоҳида бажарувчи хавфсизликни таъминлаш техник воситаларнинг қуйидаги тўртта асосий ажралмас нимтизимлар томонидан амалга оширилади:

- кўриқлаш ва огоҳлантириш сигнализация тизимлари;
- ёнғин сигнализацияси тизимлари;
- фойдаланишни назорат қилиш ва бошқариш тизимлари;

- теле-видеокузатув ва назорат тизимлари.

Комплексни кўшимча қурилмалар тўлдиради, мисол учун, электр таъминот, қўриқлаш ёритиши, таҳдидлар ҳақида хабар бериш, уларни олдини олиш ва бартараф қилиш ҳамда хавфсизлик таъминоти техник воситалар асосий нимтизимларининг ишончли ишлашини таъминловчи бошқа тизимлар [1].

Хавфсизлик таъминоти техник воситаларнинг асосий нимтизимларининг ҳар бири таҳдидларнинг комплексига ишлов бериш ҳамда қўриқлашнинг техник воситалар йиғиндисини ўз ичига олувчи хавфсизлик комплекс тизими сифатида қаралиши мумкин.

Қўриқлашнинг техник воситаси – бу қўриқлаш, огоҳлантириш сигнализацияси, фойдаланишни назорат қилиш ва бошқариш, қўриқлаш камераси, ёритиш, хабар бериш ва объектни қўриқлаш учун мўлжалланган. Хавфсизлик комплекс тизимининг техник воситалар ва нимтизимлар таркибини белгиловчи умумлаштирилган тузилмавий схемаси 1-расмда келтирилган.



1- расм. Хавфсизлик комплекс тизимининг умумлаштирилган тузилмавий схемаси

Аниқлаш воситалари – бу қурилманинг сезувчанлик соҳасини (бошқача қилиб айтганда аниқлаш соҳаси) объект томонидан бузилиш ва енгиб ўтиш сабабли белгиланган параметрлар билан сигнални (SOS сигнали, бошқача қилиб айтганда хабар бериш сигнали) автоматик тарзда шакллантириш учун мўлжалланган қурилма.

Бошқарув, ахборотни йиғиш ва ишлов бериш тизими (БАЙИБТ). ТАВдан ахборот бошқарув, ахборотни йиғиш ва ишлов бериш тизимига келиб тушади. Ушбу тизим томонидан бажариладиган вазифалар мураккаблигига қараб унинг амалга оширилиши турлича бўлиши мумкин. Энг оддий ҳолатда БАЙИБТ ТАВ сигналларидан ишга тушириладиган реле шаклида бажарилган ҳамда хабар беришнинг товушли ёки ёруғлик воситаларини (мисол учун, сиренани ёки строб-милтиллашни) бошқаради.

Хабарларни узатиш тизимлари (ХУТ). Объектда кўзда тутилмаган ҳолат юзага келганда зарур визуал ва акустик ахборот алоқа каналлари бўйича авариявий хизматларга, марказлашган қўриқлаш пунктига, объект эгалари ва бошқаларга алоқа каналлари бўйича узатилади. Хавфсизлик комплекс тизимларида хизмат ва/ёки SOS хабарларни узатиш каналлар ва воситалар сифатида махсус ётқизилган симли линиялар, ажратилган ва ўзгарувчан телефон линиялари, объектнинг ички телефон станциялари, радио ва видео каналлар, радиотрансляцион тармоқлар, электр таъминот тармоқлари, оптик-толали ва лазерли техника қўлланилади.

Умумий ҳолатда ХУТ канали – бу биргаликда ишлайдиган алоқа техник воситалари ва қурилмаларининг йиғиндиси бўлиб, қуйидаги кетма-кет занжир бўйича ахборот узатишни таъминлайди: хабарлар узатиш тизимининг сўнгги қурилмаси – алоқа канали – ретранслятор – алоқа канали – марказлашган кузатув пульти[3].

ХУТ хавфсизлик комплекс тизимлари таркиби қуйидаги масалаларни ечиш учун хизмат қилади:

- қўриқланаётган объект ҳолати ҳақида ахборотни узатиш;
- қўриқланаётган объектларга руҳсатсиз кириш ёки уларда ёнғин бошланиши ҳақида ахборотни узатиш;
- хизмат ва назорат-диагностика хабарларини узатиш;
- тесқари алоқа канали мавжудлигида масофавий назорат қилиш ва бошқариш (телебошқариш) буйруқларини узатиш ва қабул қилиш.

Умуман хавфсизлик комплекс тизимини қуриш тузилмаси таҳдидларни аниқлаш воситалари, марказий бошқарув, ахборотни йиғиш ва ишлов бериш, хабарларни узатиш тизими каби тузилмавий схема элементларини назорат қилишда ишлатилади.

Адабиётлар рўйхати

1. Р.Х. Джураев, Ш.Ю. Джаббаров, Б.М. Умирзаков “Сетевая безопасность”. Учебник. – Т.: “Алоқачи”, 2019, 308 с

2. Конахович Г.Ф., Климчук В.П. Паук С.М., Патапов В.Г. Защита информации в телекоммуникационных системах. К.: МК – Пресс. 2005.

3. Новиков А.А. Уязвимость и информационная безопасность телекоммуникационных технологий: учеб. пособие для студ./ Под ред. Г.Н. Устинова. – М.: Радио и связь, 2003. - 296 с

АТМ ВА MPLS ТЕХНОЛОГИЯЛАРИДА АХБОРОТЛАРНИ МУҲОФАЗА ҚИЛИШНИНГ НИСБИЙ ТАҲЛИЛИ

Ш.Ю. Джаббаров¹, Х.Темирова²

¹ТАТУ, МУТ ва Т кафедраси, Shuhrat_djabbarov@mail.ru, 90-949-22-59

²ДТАТУ МУТ ва Т кафедраси, 99-816-79-86

Маълумотларни узатиш технологиялари ва тармоқларининг жадал ривожланиши ҳар бири маълум сифат даражасини, ахборотларни узатиш тезлигини ва табиийки, ишончилигини кўзда тутадиган турли технологияларни яратилишини шарт қилиб қўяди. Шу сабабли узатишнинг асинхрон режими (АТМ - Asynchronous Transfer Mode) ва белги бўйича кўп протоколли коммутация (MPLS - Multi-Protocol Label Switching) технологиялари ҳозирги вақтда энг кўп тарқалган узатиш тизимлари ҳисобланади.

Кўплаб мутахассислар келажакда АТМ эмас, балки MPLS технологиялари умумий фойдаланишдаги тармоқлар бўлади деб ҳисоблашади. Лекин АТМ технологияси кўплаб манфаатдор шахслар учун фойдали ҳисобланади, чунки охириги бир неча йилларда телекоммуникация операторларининг қурилмаларга сарфлари фоизларга қисқаради. Бу ҳолда энг яхши ечим АТМ ва MPLS орасида ўзаро таъсир этишни ташкил этиш ҳисобланади.

АТМ ва MPLS технологияларини турлича мезонлар ва характеристикалар бўйича таққослаш мумкин. Бу ҳолда бу технологияларда ахборотларни муҳофаза қилишни, уни таъминлаш учун воситалар ва усулларни баҳолаш ва нисбий таҳлил қилиш кам аҳамиятга эга эмас.

Маълумки, технологиянинг ахборот хавфсизлиги тармоқларнинг заифлиги, уларнинг хавфсизлигига таҳдидлар, ахборотларни муҳофаза қилиш усуллари ва воситаларини таъминлаш нуқтаи назаридан баҳоланади ва технологияни муҳофазаланганлиги билан ҳарактерланади. Ўз навбатида муҳофазаланганликни ўзи *конфиденциаллик, яхлитлик ва фойдалана олишлик* параметрлари билан ҳарактерланади. Айнан, юқорида санаб ўтилган мезонлар бўйича АТМ ва MPLS технологияларида ахборотларни муҳофаза қилишнинг нисбий таҳлилинини амалга ошириш мумкин.

АТМ технологиларидаги каби, MPLS технологияларидаги хавфсизликка таҳдидлар абонент ва телекоммуникациялар даражаларида мавжуд. Телекоммуникациялар оператори даражасидаги бузғунчининг

хужуми ҳар иккала технологияларда абонент даражасидаги хужумдан хавфлироқ ҳисобланади. Агар тармоқ оператори даражасида хужумлардан технологияларни муҳофазаланганлигини, яъни, “ичкаридан” хужумлардан муҳофазаланганлиги таққосланса, у ҳолда бунда MPLS ATM га ютқизишини айтиш мумкин, чунки MPLS технологиясида бу таъсирлардан етарлича ишончли муҳофаза қилиш воситалари мавжуд эмас.

Аввал кўрсатилганидек, MPLS технологияси бугунги кунда ATM технологиясидан фарқли равишда етарлича ишлаб чиқилган ўрнатилган муҳофаза қилиш воситаларига эга эмас. ATM технологиясида аутентификация қилиш, фойдалана олишни назорат қилиш, конфиденциаллик ва яхлитликни таъминлаш ўрнатилган воситалари кўзда тутилади. Шунга қарамасдан, MPLS технологиясида узатиладиган маълумотларни муҳофаза қилинишига йўналтирилган турли протоколлар ёрдамида муҳофаза қилишни ташкил этиш мумкин.

ATM технологияси учун ўтган асрнинг 90-йилларида техник талаблар ишлаб чиқилди, MPLS технологияси учун эса алоҳида спецификациялар мавжуд эмас. Хавфсизликка техник талабларга мувофиқ ATM технологиясида хавфсизлик хизматларини таъминлаш ATM архитектураси даражалари бўйича тақсимланади. 1-жадвалда ATM технологияси даражаси бўйича хавфсизлик хизматларини тақсимланиши келтирилган.

1- жадвал.

ATM технологиясида архитектураси даражасида хавфсизлик хизматларининг тақсимланиши

Хизматлар номи	Физик даража	ATM даражаси	Мослашиш даражаси
Аутентификация	-	+	+
Фойдалана олишни назорат қилиш	-	+	+
Конфиденциаллик	-	+	-
Яхлитлик	-	-	+

Шуни таъкидлаш керакки, ATM технологияда хавфсизлик хизматларининг ишлатилиши виртуал канал базасида, яъни боғланиш ўрнатилганда амалга оширилади, MPLS технологиясида эса муҳофаза қилиш боғланиш ўрнатилмасдан амалга оширилади. ATM да аутентификация қилиш ATM даражада ва ATM адаптациялаш даражаси (AAL -ATM Adaptation Layer) мослаштириш даражасида боғланиш ўрнатилганда ташкил қилинади. Конфиденциалликни ATM даражада, яхлитликни эса ахборотлар ягона бутун бўлган AAL даражада ишлатиш афзалроқ.

Юқорида айтилганидек, MPLS технология ATM хавфсизлигига техник талаблар аналогига эга эмас. Бироқ, MPLS технологияда маълум даражада хавфсизлик хизматларини таъминлашга имкон берадиган туннеллаштириш режими ишлатилади. Туннель MPLS технологияда маълумотларни узатишни ташкил этишнинг асосига қўйилган. MPLS технологиядаги белги йўли бўйича коммутация (LSP - Label Switched Path) кўпинча бутун MPLS тармоғи орқали туннель сифатида қаралади.

ATM ва MPLS технологияларида конфиденциалликни таъминлаш соҳасида сезиларли фарқларидан бири шу далил ҳисобланадики, MPLSда туннеллаштириш бўлганида мўлжалланиши бўйича тармоқ пакетларни узатиш қобилияти бузилишсиз IP - сарлавҳаларни қўшганда барча маълумотларни шифрлаш имкониятини беради, чунки бу ҳолда пакетлар таркибини таҳлил қилиш учун ички маршрутизатор белгиси бўйича коммутациялаш (LSR- Label Switch Router)лар керак бўлмайди. Шу билан бир вақтда ATM технологияларидаги каби ATM ячейка сарлавҳаси шифрланмаслиги керак, акс ҳолда оралиқ коммутация тугунлари орқали шифрланган сарлавҳали ячейка қайта узатилганда нотўғри интерпретацияланади (талқин қилинади). Бу сўзсиз ATM олдида MPLS технологиянинг афзаллиги ҳисобланади.

2 - жадвалда MPLS даражалари бўйича хавфсизлик хизматларини тақсимланиши қандай амалга оширилишини кўриш мумкин.

2-жадвал.

MPLS технологияси даражалари бўйича хавфсизлик хизматларининг тақсимланиши

Хизматлар номи	Физик даража	Каналли даража	Тармоқ даражаси
Аутентификация	-	+	+
Фойдалана олишни назорат қилиш	-	+	+
Конфиденциаллик	+	+	-
Яхлитлик	-	-	+

Шундай қилиб, MPLS технологиясида даражалар бўйича хавфсизлик хизматларининг тақсимланиши ATM технология хизматларининг тақсимланиш фарқи шундан иборатки, MPLS технологиянинг физик даражасида шифрлаш имкониятидир, чунки бу ерда муҳофаза қилиш боғланиш ўрнатилишсиз амалга оширилади. ATM технологияда эса физик даражада шифрлашни фақат ягона ҳолда қўшни ATM коммутаторлари орасида ишлатиш мумкин.

Шундай қилиб, ATM ва MPLS технологияларида ахборотларни муҳофаза қилишнинг нисбий таҳлили натижасида қўйидаги хулосаларни чиқариш мумкин:

а) MPLS технологияси физик даражада маълумотларни шифрланишига имкон беради, чунки АТМ технологиядан фарқли, бу ерда шифрлаш боғланиш ўрнатилишисиз амалга оширилади;

б) АТМ технологияси MPLS технологияга қараганда мукамал ишлаб чиқилган муҳофаза қилиш механизмлари ва воситаларига эга, бу ҳақда АТМ Форуми хавфсизликка техник талаблари гувоҳлик беради;

г) ҳар иккала АТМ ва MPLS технологияларга хавфсизликнинг базавий хизматларини қўллаб-қувватлайдиган IPsec муҳофаза қилиш протоколларидан фойдаланишни қўллаш мумкин.

Адабиётлар рўйхати:

1. Р.Х. Джураев, Ш.Ю. Джаббаров, Б.М. Умирзаков “Сетевая безопасность”. Учебник. – Т.: “Алоқачи”, 2019, 308 с.

2. А. Б. Гольдштейн, Б. С. Гольдштейн. Технология и протоколы MPLS. СПб.: БХВ-Петербург, 2014. – 304 с.

3. Ахборот хавфсизлигига оид терминларнинг русча-ўзбекча изохли луғати. Тошкент “ФАН” нашриёти. 2009.

ЗАМОНАВИЙ УСУЛЛАР ЁРДАМИДА АХБОРОТНИ ҲИМОЯ ҚИЛИШ ВА ХИЗМАТЛАРНИ БОШҚАРИШ

Ш.Ш. Юлдашева¹, Д.Б. Хамдамов²

¹ТАТУ, МТ кафедраси, shakhnoza_shukhratovna92@inbox.ru 97-720-36-47

²ТАТУ, АТ кафедраси, +99897-740-36-47

Замонавий шароитларда компания барқарор ишлаши кўплаб омилларга боғлиқ, улардан бири ахборотларни ҳимоя қилиш (АХҚ)ни таъминлашдир. АХҚ - бу ахборотлар хавфсизлигини муҳим жиҳатларини таъминлашга қаратилган чора-тадбирлар мажмуидир.

АХҚни тегишли даражаларини таъминлашни махсус ташкилотлар ва ахборот хавфсизлигини таъминлаш бўлган бўлим ходимлари амалга оширади. Ахборот хавфсизлиги комплексини замонавий секторида бундай структурали ташкилотларни назорат хизмати, ихтисослаштирилган корхоналар, синов-сертификатлаштириш марказлари, сертификатлаштириш марказлари, корхона ва ташкилотларда АХҚ ва хавфсизлик хизматларига ажратиш мумкин.

Алоҳида структура сифатида АХҚ хизматлари режалаштириш, ташкиллаштириш, назорат қилиш, асослаш, координациялашга асосланган бошқарув функцияларини амалга ошириш ёрдами билан тизимни бутунлигини бошқаришнинг замонавий усуллари асосида бошқариши керак.

Ташкилотнинг фаолияти ва қабул қилинган стратегияларнинг хусусиятларидан келиб чиқиб, бошқарув модели турли концепцияларга асосланиши мумкин:

EAM (Enterprise Asset Management) – асосий функцияларни бошқариш учун мўлжалланган тизим;

BSC (Balanced Scorecard) – тизим кўрсаткичларини мувозанатлаштирадиган тизим;


ABC (Activity Based Costing) – тақсимлашга йўналтирилган жараён;

EVA (Economic Valued Added) – иқтисодий қўшимча қийматни ҳисобга олишга ва аниқлашга асосланган бошқарув тизими;

ERP (Enterprise Resource Planning) – тизимлари ишлаб чиқариш корхоналари, шу жумладан озиқ – овқат корхоналарининг ахборот хизматларига бўлган эҳтиёжлари учун бир вақтнинг ўзида бир нечта вазифаларни ечади[1].

BSC концепциясини такомиллаштириш, АХТ фаолиятининг ўзига хос хусусиятларига мос келади, бунда инструмент лойиҳалаштириш босқичида қўлланилиши мумкин. Бу мувозанатланган кўрсаткичлар тизими (МКТ) шахсий, умумкорпоратив, стратегик, тактик мақсадларни ривожлантириш ва ўрнатиш ёрдами билан бизнес бошқарувга ўз хиссасини қўшади.


МКТ – бу муайян кўрсаткичлар мажмуи ёрдами билан корхонани стратегик бошқарув тизими. МКТ қуйидаги вазифаларни ечиш имконини беради (1 - расм).



1- расм. МКТ ечадиган вазифалар

Бирор бир ташкилотда МКТ қуриш босқичлари қуйидагиларни ўз ичига олади:

- ташкилотлар ёки таркибий бўлинмаларни вазифасини аниқлаш;
- мақсадга эришиш учун стратегик мақсад ишлаб чиқиш;
- ажратилган жараёнлар учун натижавий ва самарали кўрсаткичларни аниқлаш;
- МКТ қўллаш бўйича чора- тадбирларни ишлаб чиқиш.



2-расм. МКТ таянч модели

Ушбу усул бир нечта йўналишларни, фақатгина анъанавий молиявий-иқтисодий жиҳатлардан ташқари 4-проекцияни қамраб олади. МКТ проекция модели қуйидагиларни ўз ичига олади: молия, мижозлар, ички жараёнлар (бизнес-жараёнлар), ўқитиш ва инновация (2- расм).

Ҳар бир проекция кўрсаткичлар минимал тўпламини аниқлайди, бунини ўзгартириш мумкин, яъни унга сонли қийматларни қўшиш мумкин, мутлоқ ва нисбий кўрсаткичларни ажратиш мумкин. Мутлоқ кўрсаткичлар техник, иқтисодий ва мантиқий ўлчовлар характеристикаларини тавсифлайди. Улар алоҳида сон сифатида аниқланади ёки қўшилади, бўлинади, кўпайтирилади ёки киритилган қийматларнинг ўртача сони сифатида олинади.

АХҚ хизмати бошқарув жараёнларининг кўрсаткичлари, яъни стратегик мақсадларни ишлаб чиқишни кўриб чиқиши керак:

- жараённи узлуксиз ишлаши ва такрорланиши; режалаштирилган мақсадлар билан кириш ва чиқишлар тенглиги;
 - яхшилаш имконияти;
 - пайдо бўладиган муаммолар;
 - ишчиларнинг компетентлиги;
 - хужжатлаштириш, қурилмаларни имконияти ва мониторинги.
- Ички бизнес жараёнларини такомиллаштириш қуйидагилардан иборат:
- фойдаланиладиган технология;
 - ходимларни малака даражаси;

- ходимларнинг мотивацияси.

Шулар билан бирга ходимлар билан ишлашга, уларни малакасини оширишга алоҳида эътибор бериш муҳим ҳисобланади.

Инновация проекцияларини ишлаб чиқишга йўналтирилиши керак бўлган кўрсаткичларга қуйидагилар киради:

- ходимларни малакасини ошириш;
- ходимларни мотивацияси;
- ходимларни қаноатлантириш даражаси;
- жамоавий маданият[2].

Мувозанатланган кўрсаткичлар тизимини мақсади 4 хил камчиликни бартараф этади:

- оператив бошқарув стратегияси тўлиқ таъсири йўқлиги сабабли “истикболли киритиш” мавжуд эмаслиги;
- “инсон омили” таъсирининг пасайиши;
- оператив даражада натижаларни назорат қилиниши, шунинг учун назорат қилиш стратегияси ўтказилмайди ёки етарли даражада ўтказилмайди.

Шундай вазиятда, МКТ ва тегишли кўрсаткичлар тўплами ёрдами билан таянч мезонларни аниқлаш ва бошқарув стратегияси билан ушбу тизимни боғлаш, ахборотларни ҳимоя қилиш хизмати бошқаруви асосий жиҳатларини ва бошқарув ташкилотини ягона концепциясини яратиш мумкин.

Адабиётлар рўйхати:

1. Р.Х. Джураев, Ш.Ю. Джаббаров, Б.М. Умирзаков “Сетевая безопасность”. Учебник. – Т.: “Алоқачи”, 2019, 308 с.
2. Информационная безопасность государственных организаций и коммерческих фирм. Справочное пособие М.: 2002.

ШОВҚИНБАРДОШ КОДЛАР АСОСИДА ИШОНЧЛИЛИКНИ ОШИРИШ УСУЛЛАРИ

М.И. Джалилов¹, З. Акбарханова²

¹ТАТУ, МУТ ва Т кафедраси доценти, djalil48@jandex.com 93-542-01-65

²Д ТАТУ, МУТ ва Т кафедраси магистранти, 94-609-96-72

Маълумотларни узатиш тизимларига қўйиладиган энг муҳим талаблардан бири қабул қилинадиган маълумотларнинг юқори ишончлилигини таъминлаш ҳисобланади. Қабул қилишнинг юқори ишончлилигини таъминлаш мақсадида бир томондан, қабул қилишнинг ишончлилигига юқори талаблар ва бошқа томондан, ҳалақитларнинг таъсири туфайли алоқа каналининг паст сифатини мувофиқлаштиришга имкон берадиган махсус чоралар қўлланилиши керак. Шунга кўра, маълумотларни узатиш назарияси ва амалиётининг муҳим вазифаси реал алоқа каналларида

ўрнига эга бўлган турли хил ҳалақитлар билан курашиш муаммоси ҳисобланади.

Бу муаммонинг ечилишига кўп сонли тадқиқотлар бағишланган, уларда ҳалақитлар, уларнинг вужудга келиши сабаблари, уларнинг маълумотларни узатиш тизимлари параметрларига таъсирини, ҳам улар билан курашиш усулларини ўрганишга боғлиқ бўлган кенг масалалар доираси кўриб чиқилган. Ҳозирги вақтда ҳалақитлар, алоқа каналидаги хатоликлар статистикасини ўрганиш ва тадқиқ қилишнинг кўплаб усуллари, шунингдек хатоликлар билан курашиш усуллари ва воситалари маълум. Қўлланилиш соҳаси, шовқинбардошлиги, таъминлайдиган тезлиги ва ишлатишдаги мураккаблиги бўйича фарқланадиган маълумотлар ишончлилигини оширишнинг турли усуллари таклиф этилган[1].

Таҳлиллар кўрсатадики, ҳалақитлар мураккаб характерга эга бўлганида ва ҳалақитлар параметрлари эҳтимолликлари тақсимооти қонунлари характерига нисбатан маълумотлар бўлмайдиган шароитларда улар билан курашиш усулларини танлаш қийинчиликлари вужудга келади. Бу шунга боғлиқки, реал каналлардаги ҳалақитлар гуруҳлашиш анъанасига эга, натижада уларнинг таъсири – битталиқ элементларнинг бузилиши вақт бўйича гуруҳланади. Бу кузатиладиган анъана туфайли дискрет канал чиқишидаги хатоликлар ҳам пакетларга гуруҳланади.

Хатоликлар билан курашиш усулини танлаш у ёки бу хатоликлар манбаи моделига боғлиқ бўлади, у ҳолда ўрнатилган моделга мувофиқ у ёки бу усул энг эҳтимолли хатоликлар билан курашишга мўлжалланган. Шундай қилиб, ишончлилиқни ошириш усулини тўғри танлаш сезиларли даражада ҳалақитлар манбаи моделининг асосига қабул қилинган бузилишлар, хатоликлар, алоқа каналининг характеристикаларининг мослигига боғлиқ бўлади.

Алоқа каналлари бўйича маълумотларни узатиш ишончлилигини оширишнинг маълум асосий йўналишларидан қуйидагиларни ажратиш мумкин:


1. Эксплуатацион-профилактик характердаги чоралардан фойдаланиш асосида ҳалақитлар манбалари, бузилишлари таъсири миқдорини қисқартириш ва интенсивлигини камайтириш;

2. Такомиллашган узатиш усуллари ва модемларидан, шу жумладан хатоликларни эҳтимоллий аниқлаш усулларидан фойдаланиш ҳисобига сигналларни ўзини узатилиши ва қабул қилиниш шовқинбардошлилигини ошириш;

3. Шовқинбардош кодлардан фойдаланиш ҳисобига хабарларни узатиш шовқинбардошлилигини ошириш.

Шовқинбардош кодлашнинг тузилиш схемаси 1-расмда келтирилган рақамли маълумотларни узатиш тизимида кодлаш/декодлаш қурилмаларининг қўлланилиши ҳисобига узатиладиган маълумотларнинг юқори ишончлилигини таъминлаш муаммоларини ечиш ҳисобланади. Бу схема

шовқинбардош кодлаш назариясида кенг ишлатилади, чунки у амалда учрайдиган кўплаб вазиятларни қамраб олади.



1-расм. Рақамли маълумотларни узатиш тизимининг тузилиш схемаси

Ишончлиликни ошириш усуллариининг змонавий ҳолати ва ривожланиши йўналишлари таҳлил қилиш кўрсатадики, маълумотларни узатиш юқори самарадор тизимларини яратиш бўйича масаланинг ечими ҳам инвариант, ҳам адаптив ёндашишдан фойдаланиш йўлларида кўринади.

Шовқинбардош кодлардан фойдаланиш ҳисобига маълумотларни узатиш шовқинбардошлилигини оширишга боғлиқ бўлган йўналиш учун кодлашни самарадор тизимларини қуришнинг иккита йўли бўлиши мумкин, хатоликлар тўпламларини тузатиш учун мўлжалланган кодлар маълум. Секин ўзгарадиган параметрларли каналлар учун баъзан адаптив кодлаш ишлатилади.

Тадқиқотлар натижаларини таҳлил қилиш кўрсатадики, маълумотларини узатишда кўп каналли модемлардан фойдаланишнинг асосий афзаллиги сигналлар сатҳларидаги узилишлар ва қисқа вақтли пасайишларнинг таъсирига сезгир эмаслигидан (инвариантлигидан) иборат. Бундай усуллар маълумотларни юқори узатиш тезликларида манипуляциялаш тезлигини сезиларли камайтиришга имкон беради. Параллел узатишнинг кетма-кет узатишга қараганда афзаллиги анча паст тезликларда амалга оширилишидан иборат ва шунинг учун оддий модуляциялаш усулларида фойдаланишга асосланиши мумкин.

Хатоликларнинг асосий сабаби узлуксиз каналдаги халақитлар, шунингдек унинг идеал эмаслиги ҳисобланади. Хатоликлар сабаби ҳам алоқа

каналнинг турли оралиқларини ишлатадиган, ҳам маълумот узатиш аппаратларини ишлатадиган ходимнинг нотўғри амаллари ҳам бўлиши мумкин[2].

Ишончлиликни ошириш усулларини шартли равишда учта гуруҳларга бўламиз. Биринчи гуруҳга алоқа каналнинг сифат кўрсаткичлари – генератор қурилмаларининг ишлаш стабиллигини ошириш, узатиш тизимининг электр таъминотини захиралаштириш, яроқсиз қурилма ва унинг элементларини аниқлаш ва уларни ўз вақтида алмаштириш, техник хизмат кўрсатишни яхшилашга йўналтирилган эксплуатацион ва профилактик характердаги чораларни ва хусусан, дискрет маълумотларни узатиш вақтида каналлардаги ўлчаш ва профилактика ишларини ва бошқаларни ўтказилишида махсус эҳтиёткорлик чораларини кўришдан иборат.

Иккинчи гуруҳга битталиқ элементларни узатиш шовқинбардошлилигини оширишга йўналтирилган тадбирлар киради. Гап фойдали сигналнинг амплитудаси, узунлиги ёки частоталар спектрини ошириш ҳисобига сигнал/шовқин нисбатини ошириш, шовқинбардош модуляциялаш усуллари ва қабул қилишда мураккаб сигналларни қўлланиши ва бошқалар каби чоралар ҳақида бормоқда. Санаб ўтилган усуллардан кўпчилигини қўлланиши жиддий қийинчиликларга дуч келади.

